

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS  
TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANAGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK: 16-5A120301-05**

**OMONOV IZZATILLO INOMJONOVICH**

**Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy  
va madaniy ahvoli**

**5A120301 – O'zbekiston tarixi**

**Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:  
t.f.n. Z.Sh.Madrahimov**

**Namangan – 2016**

**MUNDARIJA:**

<b>Kirish.....</b>	<b>3-12</b>
<b>I bob. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy ahvoli.....</b>	<b>13-42</b>
1.1. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining ichki va tashqi siyosati.....	13-25
1.2. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin.....	25-33
1.3. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi.....	33-42
<b>I bob</b> bo'yicha xulosa.....	42
<b>II bob. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....</b>	<b>43-66</b>
2.1. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.....	43-52
2.2. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining ichki va tashqi savdo aloqalari.....	52-66
<b>II bob</b> bo'yicha xulosa.....	65-66
<b>III bob. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida madaniy hayot.....</b>	<b>67-88</b>
3.1. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida ilm-fan taraqqiyoti.....	67-82
3.2. Umarxon hukmronligi davrida me'morchilik va vaqf mulklariga berilgan e'tibor .....	82-88
<b>III bob</b> bo'yicha xulosa.....	88
<b>Xulosa.....</b>	<b>89-91</b>
<b>Adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>92-99</b>
<b>Ilova.....</b>	<b>100-101</b>

## Kirish

**Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.** Mustaqillikka erishganidan so'ng O'zbekiston o'tgan yigirma ikki ichida o'ta mashaqqatli va sharaflı yo'lnı bosib o'tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z istıqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarnı bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir", deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz<sup>1</sup>.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. Ma'naviy boyliklar, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bebaho xazınasi va taraqqiyot manbai xisoblanadi. Aynan ushbu ma'naviy va mafkuraviy asosni mustahkamlash ham da rivojlantirishda tarix fani alohida ahamiyatga egadir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "...tarix xotirasi,... milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi"<sup>2</sup>.

Prezident I.A. Karimov tarixiy xotira to'g'risida – "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi,"<sup>3</sup> – deya haqli ravishda qayd etgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tarix xaqida o'z fikrlarini davom ettirib, "Tarixdan ibrat olib yashah, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli o'gu kabi insonni zaharlaydi,

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 27.

<sup>2</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 140 – 14.

<sup>3</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 97

uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi” deb “Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir” deb qayd etganlar<sup>4</sup>.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixchilari oldida haqqoniy tarixning yoritilishi lozim bo'lgan masalalari ko'lamini ham aniqlandi. Mustabid sovetlar hukmronligi davrida, kommunistik mafkura ta'sirida o'zbek xalqi tarixida kechgan jarayonlar sinfiylik, partiyaviylik prinsiplari asosida ma'muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan xolda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi. Bu davrga oid tadqiqotlarda o'zbek xalqi tarixining ayrim muammolari umuman chetlab o'tildi.

Bugungi zamon mustabid sovet tuzumi mafkurasi asoratlariga, eskicha fikrlashga barham berish, tarixiy voqealar va jarayonlarni baholashda milliy manfaatlardan kelib chiqish zarurligini talab qilmoqda. O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini umumjahon taraqqiyoti nuqtai nazaridan, aniq tarixiy faktlarga tayanib, xolis va ilmiy asosda tadqiq etib, xalqqa yetkazish zaruriyati paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1998-yil 26-iyunda bir gurux tarixchi va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvida Respublika tarixchilari oldiga aynan shunday vazifa qo'yildi. Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyunida qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi qabul qilingan qarorida ham o'z ifodasini topgan. Unda xususan, o'zbek xalqi va uning davlatchiligining haqqoniy tarixini o'rganish, “..eng qadimdan hozirga qadar davlatchilik tarixiy bosqichlarida hududimizda yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini o'rganish” lozimligi qayd etilgan<sup>5</sup>.

Ma'lumki, Qo'qon xonligi (1709 – 1876) tarixan qisqa vaqt bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Xonlikning ko'zga ko'ringan hukmdorlari Shohruhbiy (1709 – 1721)

<sup>4</sup> Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – B.112.

<sup>5</sup> ЎзР Вазирлар маҳкамасининг “ЎзРФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш” тўғрисидаги қарори // Ўзбекистон овози, 1998 йил 28 июль.

davlat asoschisi, Norbo'tabiy (1763 – 1798) ilk pul isloxotchisi, Olimxon (1798 – 1810) esa rasman “xon” rutbasini olgan, Umarxon (1810 – 1822) “Amir – ul-muslimin” unvonini olgan va xonlik taraqqiyotining qaysidir ma'noda yuqori cho'qqisiga olib chiqqan.

Umarxon hukmronligi davrida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy soxada ham yutuqlarga erishdi, pul isloxlari o'tkazilib, xonlik tarixida ilk bor oltin tangalar zarb etildi, ilm-fan rivojlanib, “Qo'qon adabiy muhiti” shakllandi, qo'shni va xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya imperiyasi, Usmoniylar davlati bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarni o'rnatdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvolini o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot ob'yekti va predmeti.** Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli o'rganish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot ob'yekti va predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli mavzusi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari quydagilardan iborat:

- XIX asr boshlarida Qo'qon xonligidagi siyosiy vaziyatni o'rganish va Umarxonning xonlik taxtiga chiqish jarayonini ko'rsatib yoritib berish;
- Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy ahvolini ilmiy tahlil qilish;
- Umarxonning harbiy yurishlari, ularning yo'nalishlari va oqibatlarini ko'rsatib berish;
- Umarxonning boshqaruv soxasidagi isloxlarni ko'rsatib berish va qiyosiy taxlil qilish;
- Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining qo'shni Buxoro va Xiva xonliklari, xorijiy mamlakatlar – Rossiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlar bilan munosabatlarini yoritish va qiyosiy taxlil qilish;

– Qo’qon xonligining Umarxon hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o’rganish, bozorlar, karvonsaroylar faoliyati, soliqlar, pul isloxlari, savdo yo’nalishlari hamda eksport va import mahsulotlari turlarini aniqlash;

– Umarxon hukmronligi davrida Qo’qon xonligining madaniy ahvolini o’rganish va qiyosiy taxlil qilish;

– Umarxonning ilm-fanga bo’lgan munosabati, “Qo’qon adabiy muhiti”ning shakllanish jarayonini va bu davrda barpo etilgan me’morchilik inshootlarini o’rganish va ko’rsatib berish.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Umarxon hukmronligi davrida Qo’qon xonligining ichki va tashqi siyosati, harbiy yurishlar, qo’shni mamlakatlar bilan aloqalar, xonlikdagi iqtisodiy-ijtimoiy hayot, soliq tizimi, savdo munosabatlari, pul isloxlari, ilm-fanga berilgan e’tibor, vaqf mulklarining ahvoli, adabiyot, tarixnavislik, me’morchilik taraqqiyotini yoritish va ilmiy xulosa qilish tadqiqot oldiga qo’ygan asosiy masala va farazlari hisoblanadi.

**Mavzu bo’yicha qisqacha adabiyotlar taxlili.** Umarxon hukmronligi davrida Qo’qon xonligining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli masalasi alohida tadqiqot ob’yekti sifatida hozirga qadar o’rganilmagan bo’lsada, XIX asr boshlaridan – XIX asr 70 – yillarigacha xonlikda ro’y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar ayrim tadqiqotchilarning diqqat markazida bo’lgan. Umarxon hukmronligi davri tarixi yoritilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid tadqiqotlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari asosan rossiyalik olimlar, harbiylar, sayyoh va elchilar hisoblanib, ular XIX asr o’rtalaridan boshlab O’rta Osiyo, xususan, Qo’qon xonligini atroflicha o’rganishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida asosiy e’tibor Rossiya bosqini arafasidagi Qo’qon xonligining umumiy tavsifiga qaratilgan. Jumladan, ularda xonlikdagi siyosiy, ijtimoiy-

iqtisodiy hayot, mamlakatdagi yirik shaharlar, ularning aholisi soni, milliy tarkibi, bozor va karvonsaroylariga oid ayrim qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari jumlasiga P.I.Nebol'sin, Ch.Ch.Valixanov, A.N.Teterevnikov, L.Kostenko, N.Petrovskiy, M.Terent'yev, A.Kun, A.P.Xoroshxin, A.K.Geyns, A.Middendorf, V.P.Nalivkin va boshqalarni kiritishimiz mumkin<sup>6</sup>.

Umarxon hukmronligi tarixiga doir ikkinchi guruh adabiyotlarini sovet davrida yaratilgan asar va tadqiqotlar tashkil qiladi.

Bu davrda Qo'qon xonligi, xususan, Umarxon hukmronligi tarixining turli masalalariga oid tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga A.P.Qayumov, V.A.Abdullayev, A.L.Troiskaya, R.N.Nabiyev, H.Z.Ziyoyev, H.N.Bobobekov, S.X.Ishanxanov, V.M.Ploskix, T.K.Beysembiyev, E.Xurshut, A.Mahkamov, Sh.H.Vohidov kabilarning asar va tadqiqotlarini kiritish mumkin<sup>7</sup>.

Umarxon hukmronligi davriga oid sovet davri adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda kechgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar kommunistik partiya mafkurasiga bo'ysundirilgan holda, sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganilgan. Shu jumladan, Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining

<sup>6</sup>Небольсин П. И. Очерки торговля России с Средней Азии / Зап РГО. Кн. X. – СПб., 1855. – С.1–355; Валиханов Ч. Ч. О состоянии Алтышара или шести восточных городов китайской провинции в 1858 – 1859 годах / Собрание сочинений. В 5-томах. – Алма-Ата., Т. III. 1985 – С. 97 – 222; O'sha muallif. Описание нескольких монет улуса чагатая, Хивы и Коканда / Собрание сочинений. В 5-томах. – Алма-Ата., Т. V. 1985. – С. 104–113.; Тетеревников А. Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. –СПб., Тип. Майкова, 1867. –73 с.; Костенко Л. Туркестанский край. Том I. – СПб., Тип. Траншеля, 1880. – 452 с.; O'sha muallif. Туркестанский край. Том II. – СПб., Тип. «Общественная польза», 1880. –261 с.; Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматании в Средней Азии.– Т., Тип. Военно-Нар.Уп. 1873.– 120 с.; Кун А. Очерки Кокандского ханства // ИРГО, Т. XII. – Спб., 1876. – С. 17–119; Хорошхин А. П. Сборник касающихся Туркестанскаго края. – СПб., 1876. –533 с.; Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве / Собрание литературных трудов. Том II. – СПб., Тип. М. Стасюевича, 1898. –741 с.; Федченко А. Из Кокана. Сведения о путешествии по Коканскому ханству // Известия ИРГО. Том VIII. 1870. – С. 6–20; Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины. Перевод с немецкого В. И. Ковалевского. – Спб., 1882. –604 с.; Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – 215 с.

<sup>7</sup> Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. – 358 б.; Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. – 383 б.;Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – 582 с.; O'sha muallif. Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – Москва: Наука, 1969. – 154 с.; Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства (Феодалное хозяйство Худояр-хана). – Тошкент: Фан, 1973. – 476 с.; Зиёев Ҳ. З. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Тошкент, 1962. – 88 б.; O'sha muallif. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI – XIX асрлар). – Тошкент, 1965. – 237 б.; Бабабеков Х. Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв.). – Тошкент: Фан, 1990. – 118 с.; Бейсембиев Т. К. “Тарихи Шахрухи” – как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 198 с.; Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. – Фрунзе, 1977. – 465 с.; Хуршут Э. “Мунтахаб ат-таворих” и его списки // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1986. – №5. – С. 41 – 45; O'sha muallif. Ҳақимхоннинг ҳаёти ва саёхатлари. – Тошкент: Фан, 1987. – 47 б.; Махкамов А. Роль города Коканда в развитии в экономических связи Средней Азии с Россией и сопредельными странами в XIX – начале XX веков: Дис... канд. ист. наук. – Т.: Инс. Истории АН Уз ССР, 1988. – 170 л.

siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli tarixi uzviy aloqadorlikda tadqiq etilmagan.

Umarxon hukmronligi davriga doir adabiyotlarning uchinchi guruhini iqtisodiy davrida nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining turli davrlari, xususan, xonliklar davri tarixi ham yangicha qarash va yondashuvlar asosida o'rganila boshlandi. O'zbekiston hududida qadimdan beri shakllanib va rivojlanib kelgan milliy davlatchilikning ajralmas qismi bo'lgan Qo'qon xonligida Umarxon hukmronligi davri tarixi, unda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning ayrim jihatlariga bag'ishlangan turli asarlar, tadqiqotlar va maqolalar chop etildi. Mustaqillik yillari tadqiqotlarida Qo'qon xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, qo'shin tuzilishi, boshqaruv tizimi, xonlikda madaniy hayot taraqqiyoti, savdo munosabatlari, xonlikning Sharqiy Turkiston va Rossiya imperiyasi bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari bilan bir qatorda, Umarxon hukmronligi davrida xonlikning siyosiy ahvoli, madaniy hayot va Umarxonning istilochilik yurishlari, islohotlari, ilm-fanga bergan e'tibori ko'tarilgan va o'zining ilmiy talqinini topgan. Bunday tadqiqotlar jumlasiga H.N.Bobobekov, H.Z.Ziyoyev, Sh.H.Vohidov, G.A.Agzamova, D.Sangirova, V.Ishquvvatov, Z.A.IIhomov, B.Ya.Tursunov, O'.A.Sultonov, Sh.Yu.Mahmudov, Z.Sh.Madrahimov, Sh.T.Qo'ldoshev, B.M.Babadjanov, M.O.Alixojiyev kabilarning asar, dissertatsiya va maqolalarini kiritish mumkin<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> Бобобеков Х. Н. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 238 б.; О'ша muallif. Қўқон хонлиги тарихининг долзарб муаммолари // “Ўзбек давлатчилиги тарихида Фарғона водийси”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Фарғона, 2004. – Б. 29 – 35; О'ша muallif. История Коканда. – Тошкент: Фан, 2006. – 244 б.; Зиёев Х. З. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарк, 1998. – 480 б.; О'ша muallif. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 288 б.; Воҳидов Ш. Х. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар // Шарк юлдузи. – Тошкент, 1995. – №3 – 4. – Б. 214 – 223; Воҳидов Ш., Сангинова Д. Шоҳ ва шоир Мадалихон. // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – №5. – Б. 24-25.; Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, аъналари (XIX асрнинг 70 – йилларигача): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА Тарих институти, 2006. – 154 в; Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий бошқарув тизими (1709 – 1876 й. й.): Тарих фан. номз. дисс... – Т.: ЎЗР ФА Тарих институти, 2007. – 160 в.; Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII - XIX асрнинг биринчи ярми): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА Тарих институти, 2009. – 154 в; Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2009. – 159 в.; О'ша muallif. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи: – Т.: Yangi nashr, 2014. – 174 б.; Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Тошкент: Янги нашр, 2010. – 742 б.; Алихожиев М. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тугган ўрни: Тарих фан. номз... дисс. афтореф. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2012. – 27 в.



Mustaqillik yillarida Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha yirik mutaxassis H.Bobobekov o'z asar va maqolalari orqali Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Shuningdek, manbashunos olim Sh.Vohidov Qo'qon tarixnavislik maktabi vakillarining ko'plab asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi va o'z asar hamda maqolalarida Qo'qon xonligi, xususan, Umarxon davri haqida qimmatli ma'lumotlarni chop ettirdi.

B.Ya.Tursunov tadqiqotlarida Qo'qon xonligining qo'shin tuzilishi bilan bir qatorda, Umarxon hukmronligi davrida xonlikning harbiy ahvoli va Muxammadalixonning xarbiy isloxtlari, istilochilik yurishlarini yoritishga xarakat qilgan<sup>9</sup>.

Sh.Mahmudov tadqiqotlarida Qo'qon xonligining boshqaruv tizimi va Umarxon davrida bu sohada yuz bergan o'zgarishlar ko'rsatib berilgan.

Sh.Qo'ldoshev tadqiqotlarida esa Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy aloqalari yoritilish bilan birga, Umarxonning Sharqiy Turkistonga nisbatan siyosati va Xitoy bilan munosabatlari ochib berishga xarakat qilingan.

Z.Sh.Madrahimov tadqiqotlarida Qo'qon xonligidagi savdo munosabatlari bilan bir qatorda, Umarxon hukmronligi davrida bu sohada yuz bergan o'zgarishlar ham yoritilgan<sup>10</sup>.

**Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.** Tadqiqotni amalga oshirishda tarixiylik, xolislik, davriy izchillik, qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy va xronologik, semantik va pragmatik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Magistrlik dissertasiyasidan kasb hunar kollejlari va akademik liseylarda "O'zbekiston tarixi" fanidan hamda oliy o'quv yurtlari Tarix yo'nalishi talabalari uchun "O'zbekiston

<sup>9</sup> Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, аъналари (XIX асрнинг 70 – йилларигача): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎЗР ФА Тарих институти, 2006. – 154 в.

<sup>10</sup>Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2009. – 159 в.

tarixi” va “Qo’qon xonligi tarixi” fanlaridan ma’ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg’ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

– XIX asrning birinchi choragida Qo’qon xonligining siyosiy ahvoli o’rganildi, Umarxonning taxtga chiqish sabablari ko’rsatib berildi;

– Umarxonning boshqaruv soxasidagi islohotlarini ko’rsatib berildi va qiyosiy taxlil qilindi;

– Umarxon hukmronligi davrida Qo’qon xonligining qo’shni Buxoro va Xiva xonliklari, xorijiy mamlakatlar – Rossiya, Xitoy, Turkiya, Hindiston va boshqa davlatlar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari ko’rsatib berildi va ilmiy xulosa qilindi;

– Umarxon hukmronligi yillarida xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yoritildi va qiyosiy tahlil qilindi;

– Umarxon hukmronligi davrida bozorlar, karvonsaroylar faoliyati, soliqlar, pul islohotlari, savdo yo’nalishlari hamda eksport va import mahsulotlari turlarini aniqlandi va o’zaro solishtirildi;

– Umarxon hukmronligi davrida Qo’qon xonligining madaniy ahvolini o’rganildi;

– Umarxonning ilm-fanga bo’lgan munosabati, “Qo’qon adabiy muhiti”ning shakllanish jarayonini va bu davrda barpo etilgan me’morchilik inshootlarini yoritib berildi.

**Tadqiqotning manbalari.** Tadqiqot ishiga oid manbalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. XIX asrda O`rta Osiyo muarrixlari tomonidan yozilgan asarlar.
2. XVIII – XIX asrlar oralig’ida O`rta Osiyo davlatlari, xususan, Qo`qon xonligida bo`lgan yevropalik hamda rossiyalik elchi, sayyoh, savdogar, olim va boshqa shaxslarning xotiralari, rasmiy xabarlar va tarixiy asarlari.

**Birinchi guruh manbalariga** – XIX ikkinchi choragi – XX asr boshlarida O`rta Osiyo muarrihlari tomomidan yozilgan asarlar hisoblanadi. Xususan,

Muhammad Hakimxon To'ra "Muntaxab at-tavorix"<sup>11</sup>, Mrzo Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin"<sup>12</sup>, Muhammad Solih Toshkandiyning "Tarixi jadidayi Toshkand", Muhammad Yunus Toibning "Tarixi Aliquli amirlashkar"<sup>13</sup>, Avaz Muhammad Attorning "Tarixi jahonnamoyi"<sup>14</sup>, Muhammad Aziz Marg'iloniyning "Tarixi Aziziy", Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona"<sup>15</sup>, Mulla Olim Mahdumning "Tarixi Turkiston"<sup>16</sup> Mahmud Hakim Yayfoniyning "Xullas ut-tavorix" kabi asarlarini kiritish mumkin. Ularda asosan Qo`qon xonligining XVIII – XIX asrlardagi tarixi, jumladan, Umarxon hukmronlik davri haqida ham qimmatlai ma'lumotlar mavjud.

Qo`qon xonligi haqida ma'lumot beruvchi **ikkinchi guruh manbalari** tarkibiga XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr 50-yillariga qadar O`rta Osiyo, xususan, Qo`qon xonligiga savdo-tijorat ishi yoki o`z hukumatining alohida topshirig'i asosida tashrif buyurgan elchilar, rasmiy shaxslar, shuningdek, sayyohlar, olim va harbiy asirlarning O`rta Osiyo davlatlari haqidagi esdaliklari, rasmiy xabarlari, ilmiy asarlarini kiritish mumkin. Ular orasida Mir Izzat Ulla, F.Nazarov, E.K.Meyendorf, xorunjiy Potanin, P.I.Demezov, I.V.Vitkevich, V.V.Vel'yaminov-Zernovlarning asarlari va esdaliklarini alohida qayd etish lozim<sup>17</sup>. Ularda asosan Qo`qon xonligining XIX asrlardagi tarixi haqida qimmatli

<sup>11</sup> Muhammad Hakimxon To'ra "Muntaxab at-tavorix. – T.: Yangi asr avlodi, 2010. – 717 b.

<sup>12</sup> Mirzo Olim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-havoqin / Nashrga tayёрlovchilar A. Matfoziyev, M. Usmonova. – T., 1995. – 128 b.

<sup>13</sup> Muhammad Yunus To'ib. Tarixi Alimquli amirlashkar // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1996. – № 1. – B. 214 – 223; Osha muallif. Tarixi Alimquli amirlashkar // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1996. – № 2. – B. 208 – 223.

<sup>14</sup> Avaz Muhammad Attor. Tarixi jahonnamoyi / Forc-tojik tili dan Sh. Voxidov tarjimasi // Sharq yulduzi. – Toshkent, 1991. – № 8. – B. 119 – 137.

<sup>15</sup> Ishoqxon To'ra Ibrat. Tarixi Farg'ona / Nashrga tayёрlovchilar X. Bobobekov, Mahmud Hasaniy, Meros turkumi. – T., 1991. – B. 268–327.

<sup>16</sup> Mulla Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Qarshi: Nasaф, 1992. – 148 b; Osha muallif. Tarixi Turkiston / S'zboши va izoxlar Sh. Voxidovniki, arab ёзуvidan tabdil Sh. Voxidov va P. Hoлиqova, k'rsatkichlar Sh. Voxidov va D. Sangirova. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. – 242 b.

<sup>17</sup> Путешествие Мир Иззат Уллы в Кокандское ханство в 1812 году. Пер. и примеч. Ю.А.Соколова // Труды САГУ. История Средней Азии и Узбекистана. Новая серия. Вып. LVXXVIII. Кн. II. 1956. – С. 41–52; Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – 98 с.; Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М., 1975. – 180 с.; Потанин Н. И. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1830) // ИРГО. Том V. Часть XVIII. – СПб., 1856. – С. 254–289.; Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). – М.: Наука, 1983. – 149 с.; Борнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагоря и отчёт о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию. В 3-томах. – М., 1848–1849. – 628 с.; Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известие о Кокандском ханстве, от Muhammad-Али до Худоярхана. – СПб., 1856. – С. 329–370; O'sha muallif. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник ИРГО. Кн. V. Часть XVIII. – СПб., 1856. – С. 107–152; O'sha muallif. Торговое значение Кокандского ханства для русских // ИРГО. – СПб., 1854. – 87 с.

ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Umarxon hukmronlik davri xaqida ham qimmatlai ma'lumotlar mavjud.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari.** Magistrlik dissertasiyasini yoritish jarayonida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o`rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e`tibor qaratishga oid g'oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e`tibor qaratildi.

Tadqiqotning metadalogik asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Prizdenti I.A. Karimovning asarlari, maruza va nutqlarida ilgari surilgan uslubiy, ilmiy nazariy ko`rsatmalari muhim ro`l o`ynadi.

**Tadqiqotning davriy chegarasi.** Tadqiqot uchun davriy chegara sifatida Umarxon hukmronlik qilgan davr – 1810 – 1822- yillar oralig'i olindi. 1810-yilda taxtga o'tirgan Umarxon 1822-yilga qadar Qo'qon xonligini boshqargan va xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yuksalishida muhim o'rin egallagan.

**Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.** Magistrlik dissertasiyasi ishi kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Magistrlik dissertasiyasi hajmi 102 betni tashkil qiladi.

## I BOB. UMARXON HUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGINING SIYOSIY AHVOLI

### 1.1. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining ichki va tashqi siyosati

XIX asrning birinchi choragi siyosiy-ijtimoiy va madaniy adabiy hayotida katta rol o'ynagan Amir Umarxonning hayoti va faoliyati Vatanimiz tarixining yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Amir Umarxon 1787-yilda tug'ilgan. Umarxon Qo'qon xoni Norbo'taxon va Ming oyimlarining ikkinchi farzandi bo'lib, uning bir onadan tug'ilgan akasi Olimjon\* va singlisi (Oftob oyim) bo'lgan. Shuningdek, Umarxonni boshqa o'gay ukalari va singillari ham mavjud bo'lgan. Xususan, Norbo'tabiyning birinchi xotinidan katta o'g'li Madamin va nikohsiz xotinlaridan uchta kichik o'g'illari – Rustam, Pozil va Yodgor hamda yana to'rtta qizi bor edi<sup>18</sup>.

Boshlang'ich ma'lumotni saroy muallimlari qo'lida olib, keyin Qo'qon madrasasida o'qigan. Yetuk ustozlar tarbiyasi o'tkir zehn va tirishqoqligi tufayli arab va fors tillarini chuqur o'rganadi. Sharq mumtoz adabiyotini sevib mutolaa qiladi. Muhammad Yoqubdan diniy va tasavvufiy ilmlarni o'rganadi. O'z davrining barcha asosiy bilimlarini egallab, harbiy san'atidan ham ta'lim olib fozil va shijoatli bir shaxs bo'lib kamolga yetadi. Aqlli, tadbirli, tashkilotchi bo'lgani uchun ham Umarxon yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilinadi: akasi – Qo'qon xoni Olimxonning davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etadi. 1807 – 1808-yillarda akasi unga Marg'ilon hokimligini ishonib topshiradi.

Umarxon shahzodalik vaqtidayoq harbiy sohada o'z tajribasini oshirib boradi. Qo'qon xoni Olimxon harbiy yurishlar vaqtida unga bir necha marta qo'shinini ishonib topshirgan. Xususan, Olimxon, Umarxon va Muhammadalixonlar hukmronlik davri haqida qimmatli manba hisoblangan Muhammad Hakimxonto'raning “Muntaxab at-tavorix” asarida bu xususida qimmatli ma'lumotlar keltirildi: “Olimxonga ..... Yunusxoja\*ning dorilbaqodan oxirat uyiga ko'chib o'tgani xabari yetdi. Bu xabarni eshitgan Olimxon Toshkand tomon yurish

---

\* Qo'qon xoni Olimxon (1798 – 1810).

<sup>18</sup> Бобобеков Х. Кўқон тарихи. – Т., 1996. – Б. 24-25.

\* Toshkent bekligi hukmdori.

uchun qo'shinni tayyorlashga tushdi, ammo, ancha maslahatu mashvaratdan so'ng, o'zining bu paytda qo'shin tortib, biron yerga chiqishini ma`qul topmay, fikridan qaytdi va bu ish uchun borishni olam ahli shahzodasi amir Umarxon va Xo'qand amirlari bilan lashkari zimmasiga yukladi"<sup>19</sup>.

1807-yilda Olimxon ukasi Umarxonni 12 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga qarshi yuboradi. Ikki o'rtada bo'lgan jangda Qo'qon xonligi qo'shinlari Yunusxojaning o'rniga Toshkent bekligi taxtini egallagan Sultonxojaning qo'shinlari ustidan g'alaba qozonib, Toshkent atroflari, xususan, Niyozbek qal`asi egallanadi. Muhammad Hakimxonto'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida bu xaqida quyidagi ma`lumot keltirilgan: "...ancha urush va janglardan so'ng, g'alaba yulduzi olam ahli shahzodasi Umarxon tomonidan balqib chiqdi va Sultonxojaning yulduzi quyi sari endi"<sup>20</sup>. Sultonxojaning o'zi Qo'qon qo'shinlariga asir tushadi. Ma`suliyatni o'z zimmasiga olgan Sultonxojaning ukasi Homidxoja Qo'qon xonligiga tobelikni tan oladi. Ammo keyinchalik Toshkentning mustaqillik uchun xarakat qilayotganini sezgan Olimxon 1808-yilda Toshkentni tamomila bo'ysundiradi<sup>21</sup>.

Umarxon tog`asi – Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi Mohlaroyimga uylanadi. "Muntaxab at-tavorix" asarida bu xususida quyidagicha ma`lumot keltirilgan "1220-yil Andijon hukumati amir Olimxonning tog`asi Raxmonqulibek qo'lida edi. Uning iffat pardasi ortida o'tirgan Mohlar Oyim ismli bir qizi bor edi. Amir Olimxon ul xonimni shahzoda amir Umarxon nikohiga kirishini istab, shunga ko'ra, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bir to'y o'tkazdi"<sup>22</sup>.

Umarxon Nodiraga 1807- yilda uylangan va ularni ikki o'g'il farzandi bo'lgan. Katta o'g'li Muhammad Alixon (Madalixon), kichik o'g'li Sulton Muhammadxondir. Shuningdek, Umarxonning boshqa xotinidan Abdullaxon ismli o'g'li ham bo'lgan<sup>23</sup>.

<sup>19</sup> Muḥammadḥakimxon Tўra. Muntaxab at-tavorix. – Toʻshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 291.

<sup>20</sup> Muḥammadḥakimxon Tўra. Muntaxab at-tavorix... – B. 293.

<sup>21</sup> Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарк, 1998. – Б.30. • 1805 – 1806-yillar.

<sup>22</sup> Muḥammadḥakimxon Tўra. Muntaxab at-tavorix... – B. 295.

<sup>23</sup> Воҳидов Ш., Сангиrowa Д. Шоҳ ва шоир Мадалихон. // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – №5. – Б. 24.

Bu davrga kelib xonlikda Olimxonning bu xatti-harakatidan bir qator amaldorlar va diniy ulamolar norozi bo'lib bormoqda edi. Olimxonning Toshkentdaligidan foydalanib, ular fitma uyushtiradilar, u o'ldirildi, deb mish-miga tarqatadilar. “Muntaxab at-tavorix” asarida qayd etilishicha, bu fitnaga Umarxon ham bosh qo'shgan, “...shahzoda Umarxon ko'rnamak amirlar bilan maslahatni bir yerga qo'yib, amir Olimxonni Toshkandda yolg'iz qoldirib, o'zlari Xo'qand tarafga qaytib ketadigan bo'lishdi..... ertasi tundan yarim oqqanda vafosiz amirlar bilan uyatsizlik libosini kiygancha xushxirom otiga minib, yo'nalish jilovini lashkargoh sari burdi va o'rduga yetgach “amir Olimxonni o'ldirildi, zamon shahzodasi Umarxonning zamoni, deya jar solishdi”<sup>24</sup>.

Taxtga uning ukasi Umar o'tqaziladi. Olimxon xiyonatni bilib qolib, qisqa yo'l bilan Qo'qonga jo'naydi, yo'lda esa pistirma qo'yilgan edi. Olimxon 1810-yilda “Olti qush” degan joyda otib o'ldiriladi. Qotil andijonlik Qambar Mirzo edi<sup>25</sup>. Umarxon taxtga o'tirish jarayonida bir qator og'ir qotilliklarni amalga oshiradi. U bu yo'lda akasi Olimxon bilan birga Olimxonning o'g'li, o'zini jiyani Shahruxxonni ham o'ldirib yuboradi<sup>26</sup>.

Akasi Olimxonning o'limidan so'ng Qo'qon taxtiga uning ukasi Umarxon (1810 – 1822) o'tirgan. Uning davrida Qo'qon xonligining sarhadlari shimolda Turkiston va Dashti Qipchoqqacha, g'arbda Samarqandgacha, janubda Ko'histon hamda Ko'lob, Hisor va Shahrisabzgacha, sharqda esa Sharqiy Turkistongacha kengaytirilgan edi.

Mulla Olim Maxdim Xoji “Tarixi Turkiston” asarida shunday yozadi, “Umarxon jannatmakon tab'i latif va royi zarif va jamil ahloqi husnig'a munsif bir zot bo'lgan sababdin tamomi ulamo va fuzalo va sodot, mashoyix va vuzaro va umaro, sog'ir va kabir hamma barobar ittifoqlashib, arki o'rdag'a hozir bo'lib, yana qaytadin Umarxonni o'zbek xonlari rasmicha oq namatga solib, qorilar (Anna

<sup>24</sup> Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих..... – Б. 321.

<sup>25</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи... – Б. 26.

<sup>26</sup> Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих..... – Б. 337-338.

Fatahna) surasini o'qib, ko'tarib, Farg'ona taxtig'a o'tquzub, tamomi jam' bo'lgan xaloyiqlar tahniyat va muborakbod ovazasini arshu a'log'a yetkurubdurlar"<sup>27</sup>.

Umarxonni taxtga chiqish jarayoni xaqida XIX asr tarixchisi Mirzaolim Mushrif quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: "Ulamo va fuzalo Umarxonni taxt-saltanatga ulturg'uzdilar. Baiizat tammomi jamoat birla Olimxonni janozasin o'qib, dafn qildilar. Ulamo va fuzalo va mashoih "jannatmakon" laqab qo'ydilar"<sup>28</sup>.

Umarxon Qo`qon xonlari orasida adolatlisi va vatanparvari bo'lgan. Uning hukmronligi davrida Qo`qon xonligining siyosiy mavqei ancha kuchaydi, chegaralari mustahkamlandi, iqtisodiy salohiyati yuksaldi, mamlakatda tinchlik qaror topib, turli hunarlar, ilm-fan, san`at va adabiyot rivojlandi, ko`plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Muhammad Hakimxonto'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida Umarxonning taxtga o'tirishi, hukmronlik davri xaqida quyidagi fikrlar bildirilgan: "Amir Umarxon ilohiy amr bilan shohlik tahtining harir o'rindig'iga gul yanglig' o'tirgach sharob ichidagi mast qiluvchi durd tiniqlik kasb etgandek orom olgach, xutba poyasi humoyun ismi bilan minbar kabi balandlikka ko'tarildi va tanga ehtiromli nomi bilan azizlik martabasini topdi. Ul asrning mashhur shoirlari amir Umarxonning taxtga chiqish tarixi, ya`ni sanasini "Umar ba adl nishast" so'zlaridan chiqardilar. Ular shohvor gavhar farmon beruvchilik taxtiga o'tirib, Farg'ona mamlakatini adolat ziynati bilan bezadi va o'lkada to'la adolat o'rnatib, fuqaro arz-dodiga yetdi"<sup>29</sup>.

Umarxon hukmronligi davri xaqida Mirzaolim Mushrif quyidagi ma'lumotlarni keltirgan, "Ulamo va fuzalo donishlari qadr topdi. Sipoh va askarlari nizom, oroyish topib, davlatidin xalq ko'nglida ravshanlik paydo bo'ldi. Adliddin raiyalar osoyi topib, rohatda bo'ldilar. Xaloyiqni in`om va ehson birla shod qildi. Fozil va raso va ulamo va shuaro birlan suhbat tuttilar..... Atrofdagi

<sup>27</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон.... – Б.37.

<sup>28</sup> Мирзаолим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б.19.

<sup>29</sup> Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 337.



podshohlar Said Umarxonni ikromlarin bajo kelturub, tortuq va xadyalar yubordilar”<sup>30</sup>.

Umarxon mamlakatning markazlashgan boshqaruviga tahdid soluvchi kuchlardan xalos bo’lishga harakat qildi. U hukmronligining dastlabki yillarida Rajab Qushbegi va bir necha saroy ayonlarining maslahati bilan Olimxonga qarshi fitna uyushtirib, uni taxt tepasiga olib kelgan sarkardalar Idrisqulibek, Mo’minbek va Qaytoqiy bahodirlarni qatl ettirgan. Muhammad Hakimxonto’raning “Muntaxab at-tavorix” asarida bu xususida quyidagi ma’lumotlar qayd etilgan: “...bo’lib o’tgan fitnalarning xamirturishi xisoblangan Irisqulibiy va Jumaboy Qiytoqiy kabi ikkita haromnamakning boshini qay bir azob-uqubat bilan nopok tanasidan judo qildirdi”<sup>31</sup>.

Manbalarda qayd etilishicha, Rajab Qushegi va boshqa amaldorlar Umarxonga nomlari zikr etilgan sarkardalari uning akasiga vafo qilmagani, kezi kelganida unga nisbatan ham sotqinlik qilishlari mumkinligini asos qilib ko’rsatganlar. Mahalliy tarixchilar bu qat’iy harakat bilan Umarxon fitnani yo’q qildi va mamlakat havfsizligiga hissa qo’shildi, deb e’tirof etganlar. Lekin aslida bu holat Umarxon vafotidan so’ng turli urug’lardan iborat qo’shin orasida Ming urug’i vakillari salmog’i va ta’sir doirasining zaiflashib ketishiga olib kelgan edi. Chunki, yuqoridagi sarkardalar va ularga yaqin kishilar ming urug’i vakillari edi.

Umarxon saltanat taxtiga chiqqanidan so’ng Olimxon davrida Buxoroga ketishga majbur bo’lgan ko’plab lashkarboshilar ham Qo’qonga qaytganlar.

Muhammad Hakimxonto’raning “Muntaxab at-tavorix” asarida bu xususida quyidagi ma’lumotlar qayd etilgan: “O’sha paytlarda Rajab devonbegi amir Olimxondan xadikka tushib, amir Xaydar\* podshoh oldiga ketgan va u yerdan ham qochib, Shahrizabzga kelib yashamoqda edi. Bu xabarni eshitib (Umarxonning taxtga o’tirganini), to’xtovsiz ravishda o’zini amir Umarxonning uzangisini o’pish sari yetkazib, ko’runush yo’sunini bajo keltirdi. Bir necha kundan so’ng amir

<sup>30</sup> Мирзаолим Муфриф. Қўқон хонлиги тарихи..... – Б.19.

<sup>31</sup> Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих..... – Б. 338.

\* Amir Xaydar Buxoro amirligi tahtini 1800 – 1825-yillarda boshqargan.

Umarxon ul sheryurak xaqqiga podshohona mehribonliklar qildi va Toshkand hukumatini unga topshirdi”<sup>32</sup>.

Olimxon davrida tojik qullaridan tuzilgan qo’shin tarqatilib, zo’rlik bilan tortib olingan qullar egalariga qaytarib berilgan. Sarkardalar esa munosib unvon va mansablar bilan taqdirlanadilar. Jumladan, Muhammad Nur Xo’jaga xudaychi amali berilib, yuz kishilik tojiklardan iborat bo’linmaga bosh etib, osh vazir-mingboshilik lavozimiga esa Gulshoh Marg’iloniy tayinlangan<sup>33</sup>.

Umarxon hukmronligi davri ham Qo’qon xonligida kechgan murakkab siyosiy voqealar bilan xarakterlanadi. Umarxon hukmronligining dastlabki davrida Buxoro amirligi bilan do’stona munosabatda bo’lingan. “Muntaxab at-tavorix” asarida bu xususida quyidagi ma’lumotlar qayd etilgan: “O’sha kezlarda amir Umarxon bilan amir Xaydar podshoh o’rtasida do’stlik rishtalari bog’lanib, amir qiblagohining amakisi janob sayyidlik panohi To’raxoja xojai kalonni elchilik yo’sini bilan Buxoroga amir Xaydar podshoh huzuriga yuboradi. Amir Xaydar alarning qadamini muborak qilib, juda e’zoz va ikrom ko’rsatdi. Xoja amir Xaydar podshoh bilan yangidan ahdu paymon bitimini tuzishga erishdi”<sup>34</sup>.

Biroq keyinchalik ikki xonlik o’rtasida munosabat yana chigallashdi. Buxoro amirligi va Qo’qon xonligi o’rtasida Toshkent, Turkiston, Jizzax, O’ratepa, Xo’jand va boshqa chegaradosh shahar va qo’rg’onlar uchun urushlar kelib chiqdi. Umarxon hukmronligi davrida ustunlik Qo’qon xonligi tarafida edi.

Umarxon hukmdorligi davrida Chimkent va Turkistonda g’alayon ko’tarilgan, O’ratepa hokimi esa xonga itoat etishdan bosh tortgan. Umarxon bu murakkab holatdan chiqib ketish maqsadida boshqaruv tizimida bir qator o’zgarishlarni amalga oshirishgan. Natijada, Gulshoh mingboshi Xo’jandga hokim qilinib, uning o’rniga Yusufxo’ja Qoshg’ariy mingboshi lavozimiga tayinlangan<sup>35</sup>.

Yusuf mingboshi boshchiligida O’ratepaga yuborilgan Qo’qon qo’shini yurishdan zafar va katta o’lja bilan qaytgan. O’ratepa bo’ysundirilgach, Umarxon qo’shin bilan “mamlakat holidan xabar olish” maqsadida Toshkentga borgan.

<sup>32</sup> Муҳаммадҳақимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 338.

<sup>33</sup> Мулло Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон.... –Б.37.

<sup>34</sup> Муҳаммадҳақимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 338.

<sup>35</sup> Мулло Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон.... –Б.38.

Toshkentda u Rajab Qushbegini qo'shin bilan Turkistonni zabt etishga yuboradi (1812, 1815). Turkiston qo'lga kiritiladi. Muntaxab at-tavorix" asarida keltirilishicha, Turkiston qo'lga kiritilganidan so'ng, "Amir Umarxon Dashti Qipchoq viloyatining O'kuz tog'dan Hazar dengizigacha yerlarga to'la hukmron bo'lgach, Yassi hukumatini Shayx Badal Mirzoga berdi"<sup>36</sup>.

G'alabalardan ruhlangan Umarxon Buxoro amiri Xaydarga qarshi ko'tarilgan Samarqand qo'zg'oloni, Xitoy-Qipchoq va Qoraqalpoq biylari isyonidan foydalanib, Jizzaxni qamal qildi. Qamal qirq kunga cho'ziladi va harbiy harakatlar uzoq cho'zilib ketishi oqibatida qurbonlar sonining orta borishi Umarxonni Qo'qonga qaytishga majbur qildi va natijada Jizzax xonlik tasarrufiga kirmay qoldi.

1818-yil qozoqlar Toshkent atrofini talaganlar. Umarxon 5000 kishilik qo'shinini ularga qarshi yuborgan va qozoqlarni haydab chiqargan<sup>37</sup>.

Umarxon davrida ham Olimxon davrida bo'lgani kabi Qo'qon xonligining Buxoro amirligi bilan O'ratepaga egalik qilish borasidagi kurashlari davom etdi. O'ratepa Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida talash bo'lib, bir necha marta qo'ldan qo'lga o'tgan. Bir necha marta o'tkazilgan harbiy harakatlar natijasida O'ratepa qo'qonliklar tomonidan egallangan. Umarxon 1811-yilda ilk bor O'ratepaga yurish qiladi va uni xonlikga qo'shib oladi. Buxoro hukmdori amir Haydar tomonidan O'rtatepa hokimi etib tayinlangan Mahmudxon To'ra Ahroriy Umarxonga jangsiz taslim bo'lib, do'stona munosabat o'rnatgan. Bu xizmati uchun Umarxon uni Marg'ilon hokimi etib tayinlaydi. O'ratepa hokimi etib esa mamlakat siyosiy hayotida muhim o'rin egallagan Rajab qushbegi tayinlangan<sup>38</sup>. Biroq bu amaldorning O'ratepadagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmagan. Bir oz vaqt o'tishi bilan bilan yuz urug'i vakillari Muhammad Rahim otaliq boshchiligida O'ratepani egallaganlar va Rajab qushbegi O'ratepani jangsiz topshirib, Qo'qonga qaytishga majbur bo'lgan. Ushbu tarixiy voqealar xususida XIX asr muarrixi Mulla Olim Mahdum Xoji, jangsiz mag'lubiyat Umarxonning noroziligiga sabab bo'lganligi,

<sup>36</sup> Мухаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 345.

<sup>37</sup> Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Тошкент: Янги нашр, 2010. – Б.156.

<sup>38</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон... – Б.42.

Qo'qon hukmdori Ernazar devonbegini To'raqo'rg'onga hokim etib tayinlab, unga hamroh qilib Rajab qushbegini jo'natganligi, yo'lda Rajab qushbegi qatl qilinganligini bayon qiladi<sup>39</sup>.

Umarxon O'ratepaga yana bir necha marta harbiy yurish uyushtirdi. Umarxonning 1820-yilda O'ratepaga qilgan harbiy harakatini o'sha davrlarda yashagan shoira Dilshodu Barno uning faoliyatiga nisbatan, ayniqsa olib borgan harbiy harakatlarini qoralab salbiy fikrlar bildiradi<sup>40</sup>. "Tarixi muhojiron" asarida "Farg'ona amiri Umarxon o'zi olim va katta shoir bo'laturib, bu mazlum (O'ratepa) shaharning birorta olim va shoiriga rahm qilmadi..."<sup>41</sup> – deb uning zulmidan ko'pdan ko'p odamlarning yostig'i quriganini qayd etib o'tadi. Bu ma'lumot Umarxonning Qo'qon davlatini boshqarish borasidagi barcha faoliyatini ijobiy baholab bo'lmasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Umarxon 1821-yilda katta qo'shin bilan Samarqandni qamal qiladi va uning atroflarini talon-taroj qiladi. Umarxon faoliyati davomida Qo'qon xonlariga qarindosh hisoblangan Shahrisabz kenagaslarini Buxoro amirligiga qarshi kurashda qo'llab-quvvatlangan.

Umarxon hukmronligi davrida mamlakatda davlatchilik asoslarini mustahkamlashga harakat qilgan. Xususan, davlatchilikning muhim ko'rsatkichlaridan biri – tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim ishlarni amalga oshirdi. Umarxon davlatning taraqqiy etishida tashqi savdo aloqalarining o'rnini beqiyosligini to'g'ri anglab, Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasidagi dastlabki savdo diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ydi va 1812-yilda o'z elchilarini Peterburgga bu davlatga yubordi<sup>42</sup>. Biroq xonlikka qaytishda ulardan biri kasallikdan vafot etadi, ikkinchisi esa Petropavlovskda surgun qilingan soldat tomonidan o'ldiriladi. Bu noxush voqeani bartaraf qilish uchun Rossiya hukumati tomonidan 1813-yilning may oyida Qo'qonga F.Nazarov yuboriladi, xon ahvolni va elchini o'ldirish

<sup>39</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон... – Б. 43.

<sup>40</sup> Дилшод. Тарихи Мухожирон / Нашрга тайёрловчи М. Қодирова. – Т., 1994. –Б. 75-91.

\* Muallif Dilshodu Barno Umarxonning 1820-yilda O'ratepaga qilgan harbiy harakatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan va bu urushda asir qilinib Qo'qonga olib kelingan.

<sup>41</sup> Дилшод. Тарихи Мухожирон.... –Б. 77.

<sup>42</sup> Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. – М.: Наука, 1965. – С. 223 - 224.

sabablarini aniqlaguncha uni tutib turadi. F. Nazarov xonlikda bir yilcha yashaydi, 1814-yil oktyabrda Rossiyaga qaytib ketadi<sup>43</sup>.

Shuningdek, Umarxon Usmoniylar imperiyasi bilan iliq munosabatlar o'rnatishga xarakat qilgan. Xususan, 1819-yil Usmoniylar davlatiga Xoja Mir Qurbon boshchiligida elchilarni yuborgan. Ular Usmoniylar davlatiga xonlikning Buxoro amirligi bilan munosabati yomonligi sababli, Xiva xonligi hududi orqali borganlar. Elchilar yo'l-yo'lakay Xiva xonligida to'xtagan. Xiva xoni Muhammad Rahimxon I (1806 – 1823) qo'qonlik elchilarga hurmat ko'rsatgan. Elchilar qaytishda ham Xiva xonligi hududi orqali vatanlariga qaytgan. Elchilar Usmoniylar davlatidan Qo'qon xoni Umarxon uchun atalgan chopon, durbin, to'pponcha, eng asosiysi Usmoniylar sultoni Mexmed II (1808 – 1839) nomidan yozilgan yorliq olib qaytganlar. Yorliqda Umarxon “xonlar xoni” deb qayd etilgan<sup>44</sup>. Bu esa Usmoniylar davlati tomonidan Qo'qon xonligini tan olinganligidan va O'rta Osiyoda xonlikning yuqori mavqega ega bo'lganidan dalolat berar edi.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan do'stona munosabat o'rnatgan. XIX asr 20-yillarida O'rta Osiyoda bo'lgan E.K.Meyendorf, Umarxonni qo'shni xonliklarda qadrlashlarini, Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan do'stona munosabatda ekanligini qayd qilgan<sup>45</sup>.

Shuningdek, Umarxon sharqiy qo'shnisi Xitoy bilan munosabatlarini yaxshilashga e'tibor qaratgan. Xususan, Umarxon davrida doimiy ravishda manjurlar hukumatining elchisi yashagan<sup>46</sup>. Umarxon o'zidan avvalgi hukmdorlar kabi Qo'qon xonligini mustaqil davlat ekanligini manjurlar hukumatiga bildirgan. U manjurlar imperatoriga yuborgan oltin suvi yuritilgan harflar bilan o'zini “xon” deb atab yozilgan maktubda imperatorga “do'st” deb murojaat qilgan. O'z navbatida u Sharqiy Turkistonga 1814-yili Mirza Abbas ismli oqsoqol va shariatni tartibini nazorat qiluvchi qozisini yuborgan. Ushbu qozining zimmasiga Sharqiy Turkistondagi shahar hokimlari, mahalliy musulmon aholi bilan Qo'qon

<sup>43</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т., 1996. – Б. 27.

<sup>44</sup> Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия... – Б. 149-150.

<sup>45</sup> Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия..... – Б.150.

<sup>46</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 42.

savdogarlari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, Sharqiy Turkistondagi musulmon aholisidan boj yig'ib olishni Umarxon foydasiga hal qilishi hamda bojxona tizimidagi muammolarni hal etish kabi vazifalar yuklatilgan edi. Ammo bu ikki rasmiy shaxslar Sharqiy Turkiston noibi bilan bilan bir to'htamga kelisha olmaganlar. Chunki u Qo'qonning Sharqiy Turkiston masalasidagi talablari kengayib, ohir-oqibat o'lkani o'z ta'siriga olishi mumkinligidan cho'chigan. Shu bilan birga, xo'jalarni Qo'qonda yashamayotganligiga ishongan holda Umarxonning bu takliflarini qo'rslik bilan rad etgan. Noib: "Qo'qon – hamma vaqt biz uchun ahamiyatsiz va ajnabiy davlatdir. Imperiyamiz chegarasidan tashqaridagi bu davlat bilan "Buyuk Osmon dinastiyasi" bitim tuzdi va savdo ishlarini yo'lga qo'ydi. Shundog'am unga (Qo'qon xoniga) ko'p iltifot qildi. Endi esa, u telbalik bilan Osmon davlati (Xitoy)ni ichki ishlariga aralashishga intilyapti", – deb yozgan<sup>47</sup>. Umarxon manjurlar imperatoridan xech bo'lmasa "Qo'qonlik savdogarlar ustidan nazorat olib boradigan ikki qo'qonlik oqsoqolning tayinlanishi" haqidagi iltimosini qondirilishini so'ragan. Shu bilan birga, Umarxon 1819-yili Qashqarning maslahatchi amboni Bin Jang tomonidan qo'qonlik savdogar Solijonning qiziga nisbatan qilingan vahshiylik va Sharqiy Turkistonda Qo'qonlik savdogarlarga nisbatan qilingan nohaqlik, qonunsizliklarning ko'payganini eshitgan. Bu xolatlarni oldini olishni so'rab, Umarxon manjurlar hukumatiga bir necha bor murojaat etgan. Uyg'ur tarixchisi Qurbon Ali Ayaguziy yozishicha, Jahongirxo'ja Umarxon tomonidan Buxorodan chaqirilganligi to'g'risidagi habar manjur amaldorlariga yetib kelgan. Oqibatda, manjurlar hukumati 1820-yili muzokaralar boshlagan va oxir-oqibat bir bitimga kelingan edi<sup>48</sup>. Uning davrida manjurlar hukumati Qo'qonga 200 yombu kumush to'lagan.

Umarxon hukmronligi davrida Sharqiy Turkistonda manjurlar amaldorlarining zo'ravonligi, o'zboshimchaligidan mahalliy aholining barcha

---

<sup>47</sup> Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий aloqalar (XVIII - XIX asrning birinchi yarmi): Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent: ЎзР ФА Tarix instituti, 2009. – B. 40-43.

<sup>48</sup> Валихонов Ч. Ч. Записке о Кокандском ханстве // Собрание сочинений в пяти томах. Т. 3. – Алма Ата, 1985. – С.415.

tabaqasi noroziligi kuchaygan<sup>49</sup>. Oqibatda, 1816-yildagi Ziyovuddin qo'zg'aloni yuz bergan<sup>50</sup>. Ziyovuddin Qashqar shahrining g'arbida joylashgan Toshmalik kentining amaldori edi. Oqtog'liklar va qoratog'liklar orasidagi o'zaro kurash natijasida uning bobosi Andijonga, ya'ni Qo'qon xonligi hududiga qochib borgan. Manjurlar hukmronligi o'rnatilgach, uning bobosi Toshmalikka qaytib kelgan. Ikkinchi o'g'lini Toshmalik hokimbegi Boyondoyning qiziga uylantirgan va o'lka amaldorlari orasida katta nufuzga ega bo'lgan. Sharqiy Turkiston va Qo'qon xonligidagi ko'chmanchilik qilib kun kechiruvchi qirg'iz qabilalari orasida katta bo'lgan Ziyovuddin keyinchalik ular bilan bordi-keldi qilib turgan. Keyinchalik Ziyovuddin boshchiligidagi qo'zg'alonchilar ushbu qirg'izlar bilan birlashib, xitoy piketlariga hujum qilgan va Ilidagi ot zavodini egallagan. Ammo Ziyovuddin qo'zg'aloni bostirilgan va uning o'zi qo'lga olinib, qamoqqa olingan. Uning ukalari va kichik o'g'illari ham qo'lga olinib, Pekinga olib ketilgan<sup>51</sup>. Xitoy hujjatlaridan foydalangan tarixchi Toro Soguchi bu qo'zg'alonga Qo'qon xonligi ham aralashgan deb qayd etgan. Aslida esa, Ziyovuddin qo'zg'aloniga Qo'qonning hech qanday aloqasi bo'lmagan. Chunki, Qo'qon davlati Erdona davrida manjurlar hukumati bilan tinchlik va do'stlik bitimi imzolangan. Shu bilan birga, manjurlar hukumati xo'jalarni xonlikda ushlab turish haqida Norbo'tabiy bilan muzokara olib borgan bo'lib, bu muzokaralar xo'jalar va musulmon aholining noroziligini uyg'otmaslik uchun yashirin bitim imzolagan edi. Ammo Sarimsoqxo'janing uchinchi o'g'li Jahongirxo'ja Umarxondan manjurlarga qarshi kurashda harbiy ko'mak so'ragan. Ammo Umarxon bu uning taklifini rad etgan. Shunga qaramay, Jahongirxo'ja Umarxondan yashirin ravishda xonlik aholisi orasidan o'zining maslakdoshlarini qidirib topgan. Ayniqsa, unga Sharqiy Turkistondan kelgan muhojirlar qo'shilgan. Shu bilan birga, 1820-yili u Oloyga borib, ko'chmanchi chorvador qirg'izlarning cho'nbag'ish qabilasi sardori Suronchi bilan ham til birlashtirgan<sup>52</sup>. Suronchining maqsadi Sharqiy Turkistondagi yaylovlardan

<sup>49</sup>Валиханов Ч. Ч собрание сочинение 5 томах. – Алма-Ата, 1987. – С. 139.

<sup>50</sup> Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий.... – Б.42-43.

<sup>51</sup> Валиханов Ч. Ч. Собр. Соч. 5 томах. Т. 3. – Алма-ата, 1987. –С. 140.

<sup>52</sup> Мухаммад Хақимхон. Мунтахаб ат-таворих // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. X-XIX вв. –Т., 1988. – С. 277.

foydalanish bo'lgan. Jahongirxo'ja o'z ukasi Mahmudxon va o'z maslakdoshlari bilan bilan birga Qashqarga qochib, u yerda qo'zg'alon ko'tarishga harakat qilgan. Ammo Jahongirxo'janing bu harakati muvaffaqiyatsiz chiqib, Suronchi manjur askarlari tomonidan qo'lga olingan va o'zi Qo'qonga qochib ulgurgan. Jahongirxo'ja Qo'qonda Umarxon buyrug'i bilan qo'lga olinib, uy qamog'ida saqlangan. 1822-yilda Farg'onada yuz bergan dahshatli zilzila tufayli Oloyga qochib borgan va u yerda qirg'izlar bilan birga Qashqarga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rgan<sup>53</sup>. Bu vaqtda Umarxon vafot etib, taxtni Muhammad Alixon egallagan.

1822-yilda "Jannatmakon" nomini olgan Umarxon kasallik oqibatida vafot etgach, taxtga uning o'g'li, XIX asr muarrixii Ishoqxon Junaydullohoji o'g'li Ibratning ko'rsatishicha, 15 yoshli Muhammad Alixon (Madalixon) (1822 – 1842) o'tirgan<sup>54</sup>.

Umarxonning vafoti to'g'risida turli xil ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Biroq, Umarxonning zamondoshi, jiyani va Umarxon vafot etgan davrda xonlikda bo'lgan Muhammad Hakimxonto'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Yoz fasli oxirlab, qish fasli yetgach, amir Umarxon tabiati ko'p sharob iste'mol qilaverishi oqibatida o'z me'yor chegarasidan tashqari chiqib, kasallik yuz berdi. Alqissa, kasallik ud amirning pok gavhariga aralashib, dard baht sifatli zotiga yo'l topdi. Tabiblar qanchalik davolash uchun urinmasinlar, teskari natija olardilar va borgan sayin mijoz zaifligi kuchayish va ko'payish sari yuzlandi. 1237- yil o'n sakkizinchi rabi` us-soniysi, jusa kuni, jadiyning esa o'n ikkinchisida quyosh chiqish mahali (12- yanvar' 1822-yil) – muqaddas ruhi qudsi falak sari parvozga kirishdi"<sup>55</sup>.

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, Umarxon 1810-yilda akasi Olimxon o'rniga Qo'qon xonligi tahtini egalladi. Umarxon hukmronligi Qo'qon xonligi O'rta Osiyoning yirik davlatlaridan biriga aylandi. Buxoro amirligi bilan o'zaro munosabatda ustunlik Qo'qon xonligi tomonga o'tdi. Umarxon faol tashqi

<sup>53</sup>Наливкин В. П. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. –С. 126.

<sup>54</sup>Исхоқхон Иброт. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний. – Т.: Камалак, 1991. – Б.292.

<sup>55</sup>Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 454.



siyosat olib borib, Xiva xonligi bilan bir qatorda, Rossiya, Usmoniylar davlati, Hindiston va Xitoy bilan elchili aloqalarini olib bordi.

## **1.2. Umarxon hukmronligi davrida harbiy ish va qo'shin tuzilishi**

Umarxon (1810 – 1822) hukmronligi davrida harbiy ishga yetarli katta e'tibor qaratilgan. Chunki o'sha davrdagi siyosiy vaziyat shuni taqazo etar edi. XIX asr muarrihi Mirzoolim Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin” asarida bu haqida: “Umarxon davrida ulamo va fuzalo donishlari qadr topdi. Sipoh va askarlari nizom, aroyish topib, davlatidan xalq ko'nglida ravshanlik paydo bo'ldi”, – deb qayd etiladi<sup>56</sup>.

Umarxon xonlik hududini kengaytirish bilan birga, mamlakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, chegara hududlarga qal'a va qo'rg'onlar ham barpo etirgan. Xonlikdagi qal'alarning asosiy qismi aynan Umarxon va Muhammadalixonlar hukmronlik davrida barpo etilgan. Tashqi xavfning kuchayib borishi ularning aynan shu davrda bunyod etilishiga sabab bo'lgan. Bu davrda Rossiyaning borgan sari O'rta Osiyo hududi tomon siljiy boshlashi va Qashg'ar tomonidan xavfning kuchayib borishi tufayli ulkan hududni himoya qilish uchun ko'plab qal'alar qurilgan<sup>57</sup>.

Xonlikdagi asosiy qal'alarning ko'pchiligi Umarxon davrida qurilgan bo'lib, bu jarayon xonlik chegaralarini kengaytirish bilan bog'liq. Xususan, 1813 – 1815-yillarda Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Jang qarorgohi qo'qonliklar tomonidan qayta tiklanib, Oq masjid nomini olgan. 1814-yilda Qoratog' shimolida Cho'loq qo'rg'on bunyod etildi. Tahminan shu davrlarda Gulcha va Murdash daryolarining qo'shilish joyida Qizilqo'rg'on punkti tashkil topdi. 1822-yilda Pishpek qal'asi bunyod etildi. Bu paytda Sin imperiyasi qo'shinining xonlik hududiga bostirib kirish xavfi xonlikning janubiy chegaralarini mustahkamlashni talab etar edi<sup>58</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, Qo'qon xonligidagi ayrim qal'alarning bunyod etilgan vaqti munozaralidir. Jumladan, qirg'izistonlik olim B.Soltonov Pishpekka

<sup>56</sup> Мирзаолим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи.... 1995. – Б.19.

<sup>57</sup>Халфин Н. А. Присоединение Средней Азии к России. – М.: Наука, 1977. – С. 116.

<sup>58</sup>Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари (XIX асрнинг 70 – йилларигача): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2006. – Б. 64.

qo'qonliklar tomonidan 1800 – 1812- yillarda asos solingan deb hisoblasa, o'zbek olimi H.Z. Ziyoyev Pishpek va To'qmoq Umarxon davrida ya'ni 1822-yilda barpo qilinganligini qayd etadi<sup>59</sup>. Biz keyingi fikrni to'g'ri deb hisoblaymiz. Sababi, Olimxon davrida Qo'qon xonligi hududi kengaytirilganligiga qaramay, qal'alar qurilishi u qadar avj olmagan. Bundan tashqari 1812-yilda Umarxon mavjud hududlarni, ya'ni, O'rtepa va Toshkent viloyatidagi bo'ysunishdan bosh tortgan hududlarni qaytadan xonlik tasarrufiga kiritish bilan band bo'lganligi bois H.Z.Ziyoyev tomonidan olg'a surilgan fikr haqiqatga yaqinroqdir.

Qo'qon xonligidagi qal'alarning qurilishi garchi bir-biridan jiddiy farq qilmasada, xonlik himoya tizimida tutgan o'rni bilan farqlanib turgan.

1822-yilda oliy hukmdor Umarxonning buyrug'i bilan barpo qilingan Sibir' – O'rta Osiyo va Xitoy yo'lida joylashgan Pishpek qal'asi xonlikning “sharqdagi kaliti” hisoblangan. Shu sababdan qal'a himoyasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Qal'a devorlari 4 metr chuqurlikdagi xandaq bilan o'ralgan va suv bilan to'ldirilgan. Qal'a devorlarining balandligi 7 metr, poydevor qalinligi 6 metr, yuqori qismi 3 metrni tashkil qilgan. Qal'aga kirish darvozasi shimolda joylashgan bo'lib, ichki qo'rg'onga esa g'arbdan kirilgan. Ichki tomondan qal'a devorlari bo'ylab, O'rta Osiyoning boshqa yerlarida kuzatilgani kabi savdo shahobchalari va turar joy binolari joylashgan. Qo'rg'onda qal'a boshlig'ining uyi, askarlar turar joylari, jinoyatchilar uchun zindon va qurol-yarog' hamda oziq-ovqat zahirasi binolari joylashgan edi. Qal'aning shimoliy qismida o'q quyuvchi ustaxona faoliyat ko'rsatganligi haqidagi ma'lumot ham diqqatga sazovordir. Zero, bu faktik ma'lumot qal'alarda harbiylar bilan bir qatorda turli hunarmandlar, xususan, faoliyati harbiy ish bilan bog'liq hunarmandlar ham yashaganidan dalolat beradi. XIX asrning 70 – yillariga oid arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Pishpek qal'asining 250 ta pilta miltiq bilan qurollangan piyoda va 150 ta otliq askardan iborat bo'lgan himoyachilari 3 tadan 5 tagacha to'p va 15 ta qo'lbola mortirga ega bo'lishgan.

<sup>59</sup> Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибир. – Т., 1962. – Б.162.

\* Mortir – qal'a himoyasida ishlatiladigan kalta to'p.

Xonlikda qal`alar 150 tadan – 300 tagacha askarlar tomonidan qo`riqlangan. Vaziyatga qarab ular soni bir necha ming kishiga ortishi mumkin bo`lgan<sup>60</sup>.

Har bir davlat boshqaruv tizimida oliy hukmdor boshliq markaziy hokimiyat yuritgan ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda qo`shin asosiy omil hisoblanadi. Qo`qon xonligi ham bundan mustasno bo`lmagan.

Tarixiy ma`lumotlarning tasdiqlashicha, Qo`qon xonligida Norbo`tabiy davridayoq mavjud bo`lgan qal`a va chegaradagi bo`linmalar muntazam qo`shinning asosi bo`lib xizmat qilgan. Tom ma`nodagi muntazam qo`shinga esa Qo`qon xoni Olimxon asos solgan. Umarxon hukmronligi davrida xonlik xarbiy jihadan yanada takomillashgan.

XIX asrning birinchi yarmida Qo`qonning turli hukmdorlari mamlakatda muntazam qo`shin tuzish, uni mustahkamlash borasida sa`y - harakatlarni amalga oshirdilar. Qo`qon hukmdorlaridan Olimxon davrida, mamlakatda muntazam qo`shinning tarkib topishiga olib keldi. Bu qo`shin keyingi hukmdorlar Umarxon va Muhammad Alixon davrida yanada kuchaydi. Ma`lumotlarga qaraganda, Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronlik yillarida 40 mingga yaqin qo`shin to`play olganlar. Muntazam qo`shin Qo`qon xonligida asosan qal`alarda, harbiy istehkom va yirik iqtisodiy-siyosiy markazlar, shaharlarda muqim turgan.

Umarxon davrida Qo`qon xonligida qo`shin tarkibiy bo`linishi O`rta Osiyoda keng tarqalgan an`analar asosida amalga oshirilgan.

Bu davrda xonlikda qadimiy qo`shin bo`linishi saqlanib qolgan bo`lib, ko`p sonli qo`shin tumanga (10000 kishidan iborat), tuman o`z navbatida xazorga (1000 kishidan iborat, Qo`qon xonligida tug`), xazor-dastaga (1000-500 kishi), dastayuzlikka (Qo`qon xonligida bayroq), yuzlik-ellikka, ellik-o`nlikka bo`lingan<sup>61</sup>.

Qo`qon qo`shini harbiy safarga chiqqanda har bir bo`linma qoshida harbiy sohaga aloqador bo`lmagan 5 kishidan iborat guruh hamrohlik qilgan. Ular vazifalaridan biri yaralangan askarlarni jang maydonidan olib chiqib aravalarga

<sup>60</sup> Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин... – Б.69.

<sup>61</sup> Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин... – Б.100.

joylashtirish va halok bo'lgan askarlarni (dushmanmi yoki o'zlarining askarimi farqi bo'lmagan, musulmon bo'lsa bo'ldi) dafn qilishdan iborat bo'lgan.

“Tarixi Shohruhiy” asarida yozilishicha, Qo'qon xonligi bayrog'i oq rangda bo'lgan<sup>62</sup>. U ipakdan to'qilgan bo'lib, yuqoridan pastga kokilalar osilib turar edi. Qo'qon xonligi qo'shinida har bir besh yuzlik bo'linma o'z bayrog'iga ega bo'lgan. Har bir yuzlik bo'linmaning o'z ramzi (gerbi) ham mavjud edi. “Tarixi Shohruhiy” asari muallifining bayroqlar xususidagi ma'lumotini juda qat'iy va aniq ma'lumot sifatida qabul qilmaslik lozim. Xonlik qo'shinining turli qism va bo'linmalarida turli ko'rinish va xilma-xil ranglardagi bayroqlar bo'lganligi ayrim manbalarda qayd etilgan. Ruslar tomonidan Turkiston shahrida o'lja olingan bayroqlardan biri qizil rangli, Oqbuloqdan o'lja olingan bayroq esa yaltiroq tovlanuvchi jilvaga ega edi<sup>63</sup>.

Bu davrda qo'shinning asosiy qismi, ya'ni, yadrosini, otliq askarlar tashkil etgan. 1813 – 1814-yillarida Qo'qonda bo'lgan F.Nazarov Qo'qon xoni otxonasida 20000 askar uchun ot saqlanishi xususida yozgan edi. Uning quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovor. U, “...otliq askarlar baquvvat otlarda, qimmatbaho to'n va qizil charmdan tikilgan shalvar kiyganlar. Boshlariga qizil salla o'raganlar. Boshqa qo'shin turlari esa, oq salla o'raydilar. Otliqlarning kiyim - boshlari va otda o'zini tutishi kishi salobatli taassurot qoldiradi”. Bu fikr bir tomondan ayrim tadqiqotchilarning Qo'qon otliq askarlari maxsus kiyimga ega bo'lmagan degan nuqtai nazarlari noto'g'riligini ko'rsatadi. Ikkinchi tomondan esa, Qo'qon qo'shini turli harbiy bo'linmalari o'z kiyimiga ega bo'lganligi, otliq askarlar liboslari qisman bo'lsada, boshqa qo'shin turlarinikidan farq qilganligini ko'rsatadi<sup>64</sup>.

Qo'shin ta'minoti markaziy hukumatdan katta sarf-xarajatlarni talab qilardi. Bunday vaziyatda markaziy hukumat soliqlar tizimidan keng foydalanardi. Xususan, xonlikda harbiy xarajatlarni qoplash uchun, aholidan maxsus soliqlar yig'ilgan. Bu soliq “miltiq puli” deb nomlangan. XIX asr muallifi A.K. Geynsning yozishicha soliq miqdori o'rta hol odamga 2,5 tilla, boy odamga 5 tilladan

<sup>62</sup> Бейсембиев Т. К. “Тарихи-Шахрухи” как исторический источник. – Алма-Ата: Наука, 1987. – С. 69.

<sup>63</sup> Бейсембиев Т. К. “Тарихи-Шахрухи” как исторический источник.... – С. 86.

<sup>64</sup> Турсунов Б. Я. Қўкон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин.... – Б.89.

belgilangan. Harbiy yurishlar vaqtida bu soliq miqdori ham oshirilgan. “Aholi miltiq puli” dan tashqari qal`alar qurish va ularni ta`mirlash uchun “qal`a puli”, “muhrona”, “ulov puli” ham to`lardi. Soliqlardan tashqari aholi turli harbiy majburiyatlarni ham o`tab berishi lozim bo`lgan. Jumladan, Qo`qon xonligining shimoliy qismida yashovchi qozoqlar, harbiy qal`alar qurish va ularni ta`mirlash ishlariga safarbar qilinganlar. Bu majburiyatlarni bajarish uchun har bir ovul bittadan odam jo`natishi kerak bo`lgan. Agar ularda odam jo`natish imkoniyati bo`lmasa, evaziga bitta qo`y yoki echki berishlari shart edi<sup>65</sup>. Qo`qon xonligi hududida yashovchi qirg`izlar qo`shin ta`minoti uchun har bir ovuldan 3 tadan qo`y bergan. Shu bilan birga ular har yili 5,5 ming pud bug`doy va arpa keltirib berishgan. O`rim davri boshlanishi bilan qo`shinning boshqa ehtiyojlari uchun qirg`iz ovullari 60 ming bog` xashak va o`tin keltirib berganlar. Bu narsalarning bari qal`alardagi garnizonlarga tarqatilgan.<sup>66</sup>

R.N. Nabiyevning qayd etishicha, Umarxon davrida poytaxt, ya`ni Qo`qon okrugining qo`shini birgina Shahrixon tumanida yetishtirilgan don hisobidan ta`minlangan.

Harbiy sohadagi yuqori mansab egalari ta`minoti ham xon xazinasidan tomonidan amalga oshirilgan. Qo`qon ma`muriy tizimida muhim o`rin tutgan va zimmasiga ayni vaqtda harbiy vazifalar yuklatilgan otaliq, qushbegi, parvonachi, dodhoh, biy eshik og`asi, qo`rchi, qorovulbegi kabi bir qator mansab egalari ham xon xazinasidan ma`lum miqdorda don va pul bilan ta`min etib turilgan.

Qo`shinning asosiy bo`linmalaridan biri hisoblangan piyodalar – sarbozlar ta`minoti talab darajasidan past bo`lgan. Sarbozlarga yilda davlat hisobidan bitta po`stin va to`n, bir juft etik berilgan. Shuningdek, ular har kuni 2 donadan bug`doy unidan tayyorlangan non bilan ta`minlanganlar. Ba`zi bayram kunlarida ularga sovg`alar ham tarqatilgan. Oylik maosh sarbozlarga o`z vaqtida berilmagan, shu sababdan odatda ularning maoshiga 2 tanga qo`shib berilgan.

---

<sup>65</sup> Турсунов Б. Социально-экономическая жизнь Кокандского ханства и казахское насилие // Вестник Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби. – №2 (19). 2002. – С.81.

<sup>66</sup> Бабабеков Х. Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв.). – Т.: Фан, 1990. – С. 73-75.

Qo'qon xonligida qo'shinning jangovor holati va qurol-aslahasini tekshirish maqsadida yilda ikki marotaba harbiy ko'rik o'tkazilgan. Hukmdorlar bunday harbiy ko'riklar vaqtida qo'shinning harbiy tayyorgarligi va qurol-yarog'i bilan bir qatorda kiyim-boshlariga ham jiddiy e'tibor qaratganlar. Odatda bunday harbiy ko'riklar vaqtida, davlat tomonidan bahorda va kuzda (ayrim manbalarda qish va yozda) kiyim-bosh tarqatilgan.

Xonlikda harbiy harakatlar oldidan ham askarlarga kiyim-bosh va qo'shimcha xaq to'langan. Yuzboshi 2 tilla, ellikboshi 1,5 tilla, oddiy askar 1 tilla olgan. Jangda jasorat ko'rsatgan askarlar pul va to'n bilan taqdirlanganlar, ayrim hollarda esa yuqori lavozimlarga ham tayinlanganlar<sup>67</sup>.

Harbiylarga tarqatiladigan kiyim-boshlar rangini iloji boricha ko'zga tashlanadigan, qo'shinning turli qismlarini bir-biridan tez ajratib olish imkonini beradigan ranglarda, ulug'vorlik bag'ishlaydigan qilib tanlaganlar. Bu holat tabiiy ravishda, oddiy fuqaro va dushman qo'shini oldida Qo'qon askarlarini salobatli qilib ko'rsatish, qolaversa dushman ko'ngliga g'ulg'ula solish uchun qilinar edi.

Qo'qon askarlari yuqoridagi ko'rsatilganidek, mahsulot va pul ta'minlanish bilan birga xiroj va tanobona soliqlaridan ham ozod etilganlar. Bunday huquq ko'proq harbiylarga berilardi. Ularning mulklari (bo'lsa) davlat solig'idan ozod qilinardi. Bu esa o'z navbatida askarlar turmush tarzini bir oz bo'lsada yaxshilardi.

Qo'qon qo'shinining qurol-yarog'i boshqa O'rta Osiyo xonliklaridagi kabi oddiy o'q otar va sovuq qurollardan iborat bo'lgan. Bu qurollar asosini mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan xanjar, qilich va nayza kabilar tashkil etgan. Mahalliy ustalar tomonidan yasalgan bu qurollar odatda otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan.

Qo'qon hunarmandlari orasida qurol-aslaha va jang kiyim-kechaklari ishlab chiqaradigan ustalar va kosiblar katta obro' va hurmatga ega edilar. Mahalliy ustalar tomonidan ikki turdagi qilich tayyorlangan bo'lib, ularning birinchisi egik oysimon ko'rinishda, ikkinchisi to'g'ri shaklga ega edi. Oysimon ko'rinishdagi qilich xonlik qo'shinida keng tarqalgan bo'lib, bu turdagi qilichlar engil va o'tkir

---

<sup>67</sup> Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин.... – Б. 106-108.

bo'lib, zarba berishda aniqlik bilan harakat qilish imkoniyatini berar edi. U aynan shu sifatlari bilan Evropa qilichlaridan ustun turar edi. Qilichlarning dastasi hayvon shohi, fil suyagi va daraxtlardan tayyorlangan. Qilich qinlari odatda yog'ochdan tayyorlanib uch qismiga metall qoplangan. Qilichlar sifati uning tayyorlanish muddatiga bog'liq bo'lgan. Sifatli qilichlar 15 kunda tayyorlangan bo'lsa, sifat ko'rsatkichi u qadar yuqori bo'lmagan qilichlar 3-5 kunda tayyor bo'lgan. Qo'l jangida foydalaniladigan qilich, xanjar nayza kabi qurollar doimo bir xil miqdorda ishlab chiqilmagan. Harbiy harakatlar vaqtida bunday qurollarni tayyorlash miqdori bir necha marotaba oshgan. Bunday qurollarga bo'lgan talab, ularning mavjud miqdoriga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu o'rinda shuni alohida qayd etish kerakki, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon qo'shinida O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida kuzatilgani kabi, o'q otar qurollarning keng tarqalishi bilan, sovuq qurollar – xanjar, qilich, nayza hamda askarlarning himoya vositasi bo'lgan sovut, dubulg'a, qalqon kabilarning ahamiyati pasaya boshladi.

Umarxon qo'shinni zamon talabiga mos ravishda qayta tashkil etish, uning harbiy taktik tayyorgarligi va mahoratini oshirish maqsadida ingliz, afg'on va turkiyalik mutaxassislarni taklif etishga harakat qilganlar. Shu bilan birga xonlik qo'shinini Yevropada tayyorlangan qurollar bilan ta'minlashga uringanlar.

Qo'qon xonligida qo'shin sonining ortib borishi tabiiy ravishda qurol-yarog' turlariga bo'lgan talab oshishiga olib keldi. Bu talabni doim ham chet el qurollari hisobidan qondirib bo'lmas edi. Chunki, chet eldan keltirilgan qurollar xazinaga qimmatga tushishi bilan bir qatorda, ulardan foydalanishni o'rgatuvchi va saqlovchi mutaxassislar ham etishmas edi.

Shuning uchun ham Qo'qon hukmdorlari qo'shinning qurol-yarog'ga bo'lgan ehtiyojini mahalliy ustalar tomonidan tayyorlangan qurollar bilan qondirishga harakat qilganlar. Bunda asosiy e'tibor turli qurol-yarog'lar ishlab chiqaruvchi mahalliy ustaxonalarga qaratilgan.

Miltiq tayyorlovchi ustaxonalar xonlikning turli shahar va viloyatlarida joylashgan bo'lib, ular yuqorida qayd etilganidek xon xazinasi tomonidan ta'min

etilgan<sup>68</sup>. Qurol, ya`ni, miltiq ishlab chiqarish bo`yicha Namangan shahri alohida ajralib turgan.

To`prezlar, qo`rchilar, jibachi, miltiqsoz, nayzasoz, zirhsozlar Qo`qon, O`ratepa va Marg`ilonda yashardilar.

Qo`qon xonligi qo`shinida qo`llanilgan to`plarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin. Birinchisi, qal`a himoyasida ishlatiladigan katta kalibrli, bir joydan ikkinchi joyga olib borish qiyin bo`lgan qal`a to`plari – “jaloir” bo`lsa, ikkinchisi dala janglarida ishlatiladigan, olib yurish qulay bo`lgan kichik kalibrli “shohmali” va “yazali” to`plaridir. Ularda ayrim xonlik to`plarini bir joydan ikkinchi joyga olib borish qiyin bo`lgan, ayrim Qo`qon to`plari olib yurishga juda qulay deb qayd etiladi.

Qo`qon to`plari mis va cho`yandan tayyorlangan. Aksari ko`pchilik to`plar misdan tayyorlangan va bu xonlik xazinasiga qimmatga tushgan.

Tarixiy manbalar ma`lumotlariga asoslangan holda Qo`qon xonligida uch toifadagi – oliy, o`rta, quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlar borligini kuzatish mumkin.

Oliy darajadagi harbiy mansab va unvonlar toifasiga – mingboshi, amirlashkar, qushbegi, botirboshi, voliy (noib), qal`abon, qo`rboshi, yovar, to`pchiboshi, to`qsoba, ponsodboshilar kirgan.

O`rta darajali mansab va unvonlar sirasiga esa, yuzboshi, ellikboshi, dahboshi, qorovulbegilarni kiritish mumkin.

Quyi darajadagi harbiy mansab va unvonlar askar, sarboz, navkar, mergan, mahram, botur, jazoilchi, to`pchi, qo`rchi, qorovullardan iborat edi<sup>69</sup>.

Xonlikdagi harbiy mansab va unvonlarning eng yuqorisi mingboshilik hisoblangan. Tarixiy manbalar ma`lumotlarning ko`rsatishicha, bu mansab Qo`qon xonligida Umarxon davrida joriy qilingan.

Umarxon Olimxondan farqli o`laroq davlatni boshqarishda kuchli ta`sirga ega bo`lgan din peshvolari va harbiy sarkardalar bilan ittifoq bo`lib ish yuritgan.

<sup>68</sup> Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – С. 312-313.

<sup>69</sup> Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин..... – Б. 72-73.



Markaziy hokimiyatda diniy mansab egalarining mavqei sezilarli darajada orta boshlagan. Umarxon davrida Qo'qon xonligining davlat tuzumi, davlat ishlarini yuritish qonun-qoidalari, diniy ishlar deyarli tartibga solingan edi.

### **1.3. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi**

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida markaziy boshqaruv tizimi yanada mustahkamlangan. Xonlikda hukumat qarorgohi xon o'rdasida joylashgan bo'lib, davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar ushbu saroyda hal qilingan. Markaziy boshqaruv tizimi ham to'laligicha o'rdada mujassamlashib, unda faoliyat yurituvchi barcha amaldorlar xon xuzuridagi Oliy kengash tarkibiga kiritilgan. Markaziy boshqaruv oliy hukmdor, keyin maslahat organi bo'lgan kengash, undan so'ng ijroiya vazifalaridagi mas'ul amaldorlardan iborat bo'lgan.

Davlat o'zining ichki va tashqi siyosati, jamiyat bilan olib boruvchi aloqalarini asrlar davomida shakllanib, mukammallashib borgan murakkab boshqaruv organiga tayanib amalga oshirgan. Bu organ O'rta Osiyo xonliklarida hukmdorlarning huzuridagi Oliy kengash bo'lib, tarixiy manbalarda u "maslahat", "xos majlis", "mashvarat", "majlisi sultoniy" kabi so'zlar bilan ifoda qilinadi.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon hukmdorlari huzuridagi kengash haqida XIX asrda xonlikda bo'lgan rossiyalik zobitlar, elchi va sayyohlar, kengashda ko'rilgan masalalar haqida esa mahalliy mualliflar tomonidan muhim ma'lumotlar yozib qoldirilgan. Umarxon hukmronligi davrida, ya'ni 1813 – 1814-yillarda Qo'qonda bo'lgan Sibir korpusi tarjimoni F.Nazarov o'zining esdaliklarida kengash haqida tasavvur qilishga xizmat qiluvchi qiziqarli holatni bayon etadi. Uning yozishicha, "...hukmdorning yuqori kengashini tashkil etuvchi bir qator vazirlar va davlat amaldorlari taxti-ravon yoniga solingan gilamlar ustida darajalariga ko'ra o'tirar edilar"<sup>70</sup>.

Markazlashgan davlat tuzishda bir qator islohotlarni amalga oshirgan Umarxon bir necha ulamolarga ham kengashda ishtirok etish uchun joy bergan. Bu haqida Mulla Niyoz Muhammadning "Tarixi Shohruhiy" asarida "...hukmi

<sup>70</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 41.

sharʼiyni joriy aylab, har vaqt amirning (Umarxonning) majlisida ulamoyi muhaqqiqlar (haqiqat izlovchilar) boʻlib”, – deya qayd etiladi va bir qator yuqori mavqeʼga ega boʻlgan din peshvolari va davlat arboblari, jumladan, Zokirxoʻja eshon, domla Mirzo Kalon, domla Moʻminjon Mavlaviy, Sultonxon Toʻra Ahroriy, Mahmudxon Toʻra Axroriy, Maʼsumxon Toʻra va Jahongirxon Toʻra kabi shaxslarning nomlari keltirib oʻtiladi<sup>71</sup>.

Qoʻqon xonligida ham Buxoro amirligi va Xiva xonliklaridagi kabi hokimiyat tepasida oliy hukmdor – xon turgan va Oliy kengashning markaziy figurasi hisoblangan. Tarixdan maʼlumki, oliy hukmdorlik otadan bolaga, akadan ukaga yoki biror qarindoshga nasib etishi mumkin boʻlgan. Shunday boʻlsa-da, yangi hukmdor tayinlanishida hukmron doira vakillari shuningdek, Kengashning taʼsiri kuchli edi. Shu oʻrinda Qoʻqon xonligida davlatning boshqaruv tizimiga turli shaxslarni mansabdor etib tayinlash, ularning bu mansablarga tayinlanish vaqtida oʻtkazilgan marosim va udumlar ham oʻzbek davlatchiligining qadimiy anʼanalari bilan bogʻliqligini taʼkidlab oʻtish lozim. Davlat boshqaruvida muhim oʻrin tutgan udumlardan biri oliy hukmdorni tayinlash, yaʼni “xon koʻtarish” marosimi boʻlib, bu marosim oʻziga xos xususiyatlarga ega edi.

“Xon koʻtarish” marosimi aniq bir tartiblar asosida va doirasida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalar Oʻrta Osiyo xonliklarida oliy hukmdorni oq kigizga oʻtqazib, xon koʻtarish tadbiri uzoq vaqtdan beri qoʻllanib kelinganidan dalolat beradi. Masalan, VI asrga oid manbalar maʼlumotlariga koʻra, bu davrda Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan Turk hoqonligida yirik amaldorlar taxt vorisini kigizga oʻtqazib, quyosh harakatiga monand ravishda toʻqqiz marta aylantirganlar va har bir aylanishda marosim ishtirokchilari yangi hoqonga taʼzim qilganlar<sup>72</sup>.

Qoʻqon xonligida, boshqa Oʻrta Osiyo xonliklaridagi kabi, hukmron doiradagi mansabdorlar ushbu marosimda yangi hukmdorga oʻz itoatkorliklarini bildirib,

<sup>71</sup> Махмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709–1876 йй.): Тарих фан. номз... дисс. –Т.: ЎзР ФА Тарих институти, 2007. – Б. 69.

<sup>72</sup> Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2001. – Б. 83.

bay`at (qasamyod) qilishgan, so`ngra uni oq kigizga o`tqazib ko`tarishgan. Marosimdan so`ng yangi xon xalqqa e`lon qilingan\*.

Umarxonning taxtga o`tkazish marosi xaqida Mulla Olim Mahdumning “Tarixi Turkiston” asarida muhim ma`lumotlar mavjud. Asar muallifining yozishicha, Umarxonni taxtga o`tqazish marosimi quyidagicha kechgan: “...Umarxonni o`zbek xonlari rasmicha oq namadga solib, qorilar “Anna fattahna” surasini o`qib, ko`tarib, Farg`ona taxtiga o`tqazib, tamomi jam bo`lgan haloyiqlar tahniyat va muborakbod ovozasini arshu a`log`a yetkurubdurlar”<sup>73</sup>.

Umarxon hukmronligi davrida Qo`qon xonligini idora etishda bir qator islohotlar amalga oshiriladi. Olimxonning mamlakat xududini kengaytirish borasida olib borgan harbiy harakatlarini Umarxon davom ettirib, markazlashgan davlatni kuchaytirishga harakat qildi. Umarxon taxtga o`tirgan yilidan boshlab savdo diplomatik aloqalarni yo`lga qo`yib, markaziy hokimiyatda bir qator yangi vazifa va mansablarni joriy qildi. Qo`qon xonlari Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixon hukmronlik qilgan davrlarni kengroq yoritib “Muntaxab ut – tavorix” asarida xonlik markaziy boshqaruviga oid bir qancha ma`lumotlar beriladi. Ulardan ayon bo`lishicha, davlat boshqaruvidagi turli mansab va amallarga oliy hukmdorning buyrug`i bilan turli amaldorlar tayinlangan. Buni asar muallifining ushbu so`zlari ham tasdiqlaydi: 1815-yilda Umarxon “.. eshon To`raxoja Maxdumi A`zamiy va eshon Sultonxon xoja Ahroriylarni xoja kalon(likka) sarafroz ayladi. Va bizni otamizni (Ma`sumxon to`rani) shayxulislom dedi va faqirni bovujudi kichik bo`lsam ham boamali naqibg`a ot qo`ydi. Va Mirzo Oxundni qozikalon va Rahmonqulibiyini otaliq o`ng qo`l va eshon to`rani o`roq va Mirzo Qalandarni qozi askar va eshonxon va Fayzi to`ra va Xonxo`ja mirasad va Umarali xo`ja va Podshoxxo`jani sadr va Qosimbekni devonbegi va Ishoqbekni devonbegi va Muhammadqulibekni mirzaboshi va Rajabni qushbegi, Sayyidqulibek va Ernazarbekni parvonachi” – etib tayinladi<sup>74</sup>.

---

\* Bu marosim Buxaro va Xiva xonliklarida ham shunday tarzda amalgam oshirilgan.

<sup>73</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Насаф, 1992. – Б. 36 - 37.

<sup>74</sup> Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 346.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligini idora etishda bir qator islohotlar amalga oshiriladi. Xonlikdagi harbiy mansab va unvonlarning eng yuqorisi mingboshilik hisoblangan. Mingboshi – ming nafar askarning boshlig'i. Ma'mur sifatida u ming kishilik askar beradigan mulkning hokimi hisoblangan. Qo'qon xonligida u xondan keyingi ikkinchi shaxs edi. Tarixiy manbalar ma'lumotlarning ko'rsatishicha, bu mansab Qo'qon xonligida Umarxon davrida joriy qilingan. Mingboshining zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida Mulla Olim Mahdum Hoji: “.. bu mansab voennuy ministrlik qatorida bo'lib, ondin boshqa hukumatning hamma ishiga muxodalasi, chunonchi xorijiya, doxiliya ishlarig'a tomom daxli bo'latur”,<sup>75</sup> – deb ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, mingboshi xondan keyingi cheklanmagan hokimiyatga ega shaxs hisoblangan. Buxoro amirligida bu vazifani qushbegi bajargan. Xonlikda mingboshi oliy qo'mondon vazifasini bajargan. Harbiy yurishlar vaqtida mingboshiga amirlashkar unvoni ham berilgan va xonlikning harakatdagi barcha qo'shini unga bo'ysungan. Buni Qo'qonda yashagan va ko'rgan kechirganlarini yozib qoldirgan V.P.Nalivkinning quyidagi ham ma'lumoti tasdiqlaydi: “Qo'qonda yashagan sarboz va to'pchilar faqat alohida vazifadagi noib, dodhohning doimiy tasarrufida bo'lganlar. Urush davrida noib, dodhoh o'z qismiga harakatdagi qo'shinning hamma sarbozlarini qabul qilgan, unga vaqtinchalik boshchilik qilishni maxsus tayinlangan amirlashkar (bosh qo'mondon)ga topshirardi”<sup>76</sup>. Harbiy harakatlar vaqtida qo'shinning barcha bo'linmalari, bir lashkarboshi qo'li ostida birlashganligini Hakimxon ibn Sayyid Ma'sumxonning “Muntaxab ut-tavorix” asarida ham tasdiqlanadi.

Xonlik tarixiga oid manbalar va arxiv hujjatlarida Umarxon hukmronligiga qadar mingboshi nomi uchramaydi. Ushbu mansab Umarxon tomonidan ta'sis etilib, 1810-yilda unga Shohi Marg'iloniy ismli shaxs tayinlanganligi bir necha manbalarda qayd qilib o'tiladi. Lekin, bu bilan Qo'qon xonligida, Umarxon hukmronligiga qadar bosh vazir vazifasini bajaradigan mansabdor bo'lmagan

<sup>75</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. –Б. 104.

<sup>76</sup> Наливкин В.П.Краткая история Кокандскаго ханства – Казан, 1886. – С. 209.

degan xulosaga kelmaslik kerak. “Muntaxab ut-tavorix” asarida keltirilgan Norbo’tabiy hukmronligi davridagi bosh vazir to’g’risidagi ma’lumot bu masalaga oydinlik kiritadi. Mazkur asarda Xo’jand viloyati hokimi Abdurahmon Bahodirning qushbegi mansabida faoliyat yuritgan ukasi Norbo’tabiyning bosh vaziri bo’lganligiga ishora qilinadi. Xususan, asarda: “Ul vaqtda Abdurahmon Bahodir Xo’jand viloyatida hukmronlig’ qilur erdi. Va aning bir birodari bor erdi, qushbegi degan. Va ul Norbo’tabiyning muta`mad katta sarkardasi erdi. Tamomi mamlakat aning iqtidor qo’lida erdi”, – deb qayd qilinadi<sup>77</sup>. Muarrix tomonidan Abdurahmon Bahodirning ukasining asl ismi tilga olinmasa-da, uning “qushbegi” deb atalishi qushbegi mansabida bo’lgan, degan fikrni ilgari surishga imkon beradi. Chunki o’sha davrda mansabdorlarni egallab turgan mansabining nomi bilan atash keng rasm bo’lgan bo’lib, bu holatni tasdiqlovchi ma’lumotlarni boshqa tarixnavislarning asarlaridan ham topish mumkin. V. Nalivkinning yuqorida zikr etilgan asarida bu masalaga oydinlik kiritilib, Norbo’taxon davrida qushbegi mansabida bo’lgan kishi Abdulla ismli ekanligi va u aynan Xo’jand hokimi Abdurahmonning ukasi ekanligi qayd etiladi<sup>78</sup>.

Keltirilgan tarixiy ma’lumotlar Umarxonga qadar davlatda bosh vazir vazifasini qushbegi bajargan deyishga asos bo’ladi. O’z navbatida nima uchun bosh vazir vazifasini o’zida mujassamlashtirgan qushbegi o’rnini mingboshi egalladi, degan savol tug’ilishi tabiiydir. Umarxon taxtga chiqqandan so’ng avval bosh vazir lavozimini bajargan qushbegi mansabining o’rniga mingboshi mansabini ta`sis etishini quyidagicha izohlash mumkin. Ma’lumki, Buxoro amirligida ham bosh vazir vazifasini qushbegi ado etgan. Buxoro xonligi tarkibidan ajralib, mustaqil davlat sifatida shakllangan Qo’qon xonligida boshqaruv tizimi ham dastlab Buxorodan andoza olib tashkil etilgan edi. Keyinchalik Qo’qon xonligi ma`muriy – boshqaruv tizimida islohotlar o’tkazilib, mansablar va mansabdorlar faoliyati o’zgarib borgan. Buni yuqoridagi holat shu kabi islohotlar natijasi deyish mumkin.

<sup>77</sup> Махмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими.... – Б.77-78.

<sup>78</sup> Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. –С. 69 - 70.

Buxoro amirligida mingboshi mansabi harbiy mansab sifatida mashhur edi.

Xiva xonligida esa mingboshi mahalliy boshqaruv tizimida quyi mansablar qatoridan o'rin olgan edi<sup>79</sup>.

Qo'qonda mingboshi mansabining mavqei keyingi hukmdorlar davrida yanada oshdi. Jumladan, Sheralixon (1842 – 1845) hukmronligidan boshlab mingboshi mansabining mavqei davlat boshqaruvida oshgan bo'lsa, Xudoyorxon (I – davri 1845 – 1858) va Sulton Sayyidxon (1863 – 1865) davrida ushbu mansab egasi davlat boshqaruvida to'liq hukmronlikni qo'lga olgan.

Qo'qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida mingboshidan keyingi pog'onada qushbegi mansabi turgan bo'lib, hukumat olib borgan siyosatini amalga oshirishda bu mansabdor muhim vazifalarga mas'ul edi. Uning faoliyati xususida Mulla Olim Maxdum o'z asarida muhim ma'lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, “Ikkinchi, qushbegilik mansabdagi odamlar doimo xon huzurida maslahatchi qatorida turub va yoki biror katta shaharga hokimi bil – istiqlol nasib qiladur”<sup>80</sup>. Bu mansab egalari harbiylar qatoridan ham o'rin olgan bo'lib, davlatning harbiy kuchlarini boshqaruvida faol ishtirok etishgan. Viloyatlarni boshqarish uchun hokim lavozimiga asosan qushbegi mansabidagi kishilar tayinlanganligiga Muhammad Hakimxonning “Muntaxab ut – tavorix”, Mirzo Olim Mushrifning “Ansof us – salotin...”, Mulla Niyoz Muhammadning “Tarixi Shohruhiy” kabi asarlarda bir qancha dalillar mavjud. Xususan, Umarxon hukmronligiga oid ma'lumotlar keltirilgan “Muntaxab ut tavorix” asrida 1820-yillarda Chustda Xushvaqt qushbegi, Toshkentda Lashkar qushbegi hokim bo'lib turgani qayd etiladi. Aytish kerakki, qushbegi mansabidagi kishi harbiy harakatlar vaqtida qo'shin boshlig'i vazifasini ham bajargan<sup>81</sup>.

Qo'qon xonligida iqtisodiy va siyosiy jihatdan muhim o'rin tutgan va xonlikning shimoliy sarhadlarida joylashgan mudofaa tizimining asosi hisoblangan Toshkentga hokim bo'lgan qushbegi katta imkoniyatlarga ega bo'lgan. Toshkent hokimi etib tayinlangan qushbegi harbiy qudrat borasida boshqa viloyat

<sup>79</sup> Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т., 1959. – Б. 262.

<sup>80</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Кўрсатилган асар. –Б. 104-105.

<sup>81</sup> Воҳид Ш. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар // Шарқ юлдузи. 1995. – № 3-4. –Б. 217 .

hokimlaridan ustun turgan. Toshkent hokimiga ayrim hollarda beklarbegi unvoni ham berilgan.

Beklarbegi unvoni temuriylar davrida oliy bosh qo'mondonga berilgan<sup>82</sup>. Qo'qon xonligida ya'ni, Umarxon hukmronligi davrida shunday unvonga Toshkent hokimi Lashkar beklarbegi (1810 – 1812 va 1813 – 1831) sazovor bo'lgan. Lashkar beklarbegining ijtimoiy kelib chiqishi qul bo'lib, u Qo'qonga Chitralidan keltirilgan.

Qo'qon xonligidan farqli ravishda Buxoro amirligida qushbegi mansabi bosh vazir hisoblanib, poytaxt uning nazorati ostida bo'lgan.

Xiva xonligida ham qushbegi Qo'qon xonligidagi singari bosh vazirdan keyingi o'rinda turgan asosiy amaldorlardan hisoblangan bo'lsa-da, ikkala xonlikda bu mansabdagi vazirlarning faoliyati bir – biridan keskin farq qilganligini ko'rish mumkin. M.Yo'ldoshevning ko'rsatishicha, Xivada qushbegi moliya – soliq ishlariga mutasaddi rahbarlardan sanalgan<sup>83</sup>.

Qo'qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida yuqori mavqega ega bo'lgan unvonlardan biri otaliq xisoblangan. Bu unvonning mavqei haqida Isoqxon To'ra o'zining “Tarixi Farg'ona” asarida aniq ma'lumot beradi. U “...yoshi xondan katta bo'lib, xizmat birla vazirlikg'a yetsa atoliq amali berilur ekan. Yorliqda muhri xonni muhri birla barobar ekan, bilofarq noyibdek”, – deb qayd etadi<sup>84</sup>.

Manbalarning tahlili ushbu unvonga Umarxon qaynotasini tayinlaganligini ko'rsatadi. Jumladan, “Muntahab ut – tavorix” asarida ko'rsatilishicha, 1815-yilda Andijon hokimi bo'lgan Umarxonning qaynotasi Rahmonqulibiyga otaliq unvoni berilgan edi<sup>85</sup>.

Otaliq unvoniga ega bo'lgan kishi davlat boshqaruvida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida hukmdorning bosh maslahatchisi hisoblangan.

Davlatning markaziy boshqaruvida eng oliy diniy mansab shayxulislom mansabini Sh.Vohidov, Umarxon tomonidan 1818-yilda ta'sis etilgan, deb

<sup>82</sup> Бекмухаммедов Х.Ю. Тарих терминларининг изоҳли луғати – Т., 1986. – Б.27.

<sup>83</sup> Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер егалиги ва давлат тузилиши.... – Б. 262.

<sup>84</sup> Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. // Мерос туркуми. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 303.

<sup>85</sup> Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими.... – Б. 87-88.

ko'rsatadi<sup>86</sup>. Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab ut – tavorix" asarida hijriy 1230-yilda Ma'sumxon To'raning shayxulislom mansabiga tayinlanganligi qayd etiladi. Bu milodiy sanada 1815-yilga to'g'ri keladi. Bu davrga qadar ham Qo'qon xonligida shayxulislom mansabi mavjud bo'lib, bu haqda tarixiy manbalarda ma'lumotlar juda kam uchraydi. Mulla Olim Mahdum Hojining qayd etishicha: "[Olimxon] ...tamomi Farg'ona viloyatig'a eshon domla Yoqub Oxundni bosh qilib, ko'p ulamo va fuzalolardin o'rdaga taklif aylab"<sup>87</sup>, maxsus kengash o'tkazib turgan. Fikrimizcha, bu davrda Yoqub Oxund shayxulislom mansabida bo'lgan.

Qo'qonda harbiy ishlar qozisi vazifasida qozi askar mansabidagi kishi faoliyat yuritib, bu amaldorning mavqei va xizmat doirasi Buxoro va Xiva xonligidagiday bo'lgan. Umarxon hukmronligi davrida bu vazifada "Shohnomayi Umarxon" asari muallifi Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy xizmat qilgan. U mazkur asarda o'zi egallagan amal xususida to'xtalib, "...qozi askar qo'shinda xizmat qilib shariat qonun qoidalari, tartiblari ustidan nazorat qilardi. Bu amal va lavozimga, albatta, o'qimishli va savodi chiqqan fiqx – olim tayinlanishi aniq", – deb qayd etadi<sup>88</sup>.

Qozi askar, o'z navbatida, markaziy davlat boshqaruvidagi sudlov masalalari bo'yicha bosh mansabdor – qozikalonga bo'ysunar edi.

Umarxon hukmronligi davrida xonlikning markaziy boshqaruv tizimida o'roq, sudur kabi diniy unvon egalari faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Bu unvonlarga ega bo'lgan kishilarning vazifasi asosan vaqf mulklarini nazorat qilishdan iborat edi. Sh. Vohidovning ko'rsatishicha, o'roq vaqf yerlarining xiroj va soliqlariga mas'ul shaxs bo'lgan. Sudur esa vaqf mulklarining daromadlari va hisob-kitobiga javobgar shaxs bo'lgan<sup>89</sup>.

Bu o'rinda viloyat hokimlarining qushbegi, devonbegi, parvonachi deb nomlanishi masalasi ham alohida izoh talab qiladi. Qayd etib o'tish lozimki, ushbu

<sup>86</sup> Воҳид Ш. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар // Шарқ юлдузи. 1995. – № 3-4. – Б. 222.; Воҳидов Ш. Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX – XX аср бошлари). – Т., 2006. –Б. 19.

<sup>87</sup> Мулло Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон... – Б. 29.

<sup>88</sup> Воҳидов Ш. Қўқон тарихчилари: Фазлий ва Мушриф. – Т., 1996. –Б. 16 - 17.

<sup>89</sup> Воҳид Ш. Қўқон хонлигидаги унвон ва мансаблар // Шарқ юлдузи. 1995. – № 3 - 4. –Б. 222.



mansabdorlar mahalliy hokimiyatda mazkur mansablarni egallaganlariga qadar markaziy boshqaruv tizimida faol ishtirok etganlar. Ular o'z amallari doirasida davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim rol' o'ynaganlar va muayyan obro'e'tibor qozonganlar. Ularning ayrimlariga ba'zi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra viloyatlar boshqaruvi ishonib topshirilgan. Ko'p hollarda ular biror viloyatga hokim etib tayinlanganlaridan so'ng ham mamlakat markaziy boshqaruv tizimida ilgari egallab turgan mansabining nomi bilan ham atalgan. Tarixiy manbalarda bu holatni tasdiqlovchi ma'lumotlar ko'p uchraydi. Shulardan biri haqida "Muntaxab ut – tavorix" asarida Qo'qon hukmdori Umarxon Toshkent hokimi Rajab devonbening iltimosiga ko'ra, uning o'rniga Lashkar qushbegini hokim etib tayinlagani haqida quyidagilar qayd etiladi: "...va'dasig'a vafo aylab Rajab devonbening o'rnig'a Lashkar qushbegini Toshkandg'a hokim qilib, o'zlari solim va g'onim mutavajjihi Ho'qand bo'ldilar"<sup>90</sup>.

Mahalliy boshqaruv tizimida haq-huquqlari poymol etilgan fuqarolar masalasi adolatli ko'rilmasa, ular markaziy boshqaruv tizimiga shikoyat qilishlari mumkin edi. Bu masalalar bilan xonning shaxsan o'zi shug'ullanganligini tarixiy manbalarda berilgan bir qancha ma'lumotlar tasdiqlaydi. Jumladan, Muhammad Hakimxonning "Muntaxab ut-tavorix" asarining bir necha joyida Qo'qon hukmdorlari haqida: "Fuqaro arz-dodig'a mashg'ul bo'ldi", – degan iboralarni uchratish mumkin. Bu esa har doim ham aholining arz-dodi mahalliy hukmdorlar tomonidan inobatga olinmaganligi, ular o'z muammolarini hal qilib oliy hukmdorga murojaat etganliklarini ko'rsatadi.

Hukmdor Umarxon o'z devonining debochasida bu masala xususida ham ma'lumot berib o'tar ekan: "Davron haloyiqi osoyish toptilar va chun davlat taxti va saltanat sariri nishimangohim bo'ldi, raiyatnavozliq va fuqaroparvarliq shevasi birla aftoda va mustamandlar holin ko'rub, bekas va bechoralardin so'rub, mahzun va sitamdiydalar xotirlarin shod va davr zulmidin buzulg'on ko'ngullar vayronalarin lufu marhamat birla obod qildim", – deb olib borgan ishlarini fahr bilan qayd etadi.

---

<sup>90</sup> Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими... – Б.80-82.

Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, Farg'ona vodiysida kechgan o'ziga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda XVIII asr boshlarida Ashtarxoniylar davlatida kuzatilgan siyosiy boshboshdoqlik va markazlashgan davlat salohiyatining susayishi oqibatida bu hudud Buxoro xonligidan siyosiy jihatdan ajralib chiqdi. Bu jarayonda, yuzaga kelgan vaziyatdan Ming urug'i yetakchilari foydalanib, urug' oqsoqoli Shohruhbiy yangi davlatga asos soldi. Ming urug'ining dastlabki hukmdori Shohruhbiy va uning o'g'li Abdurahimbiy mamlakat sarhadlarini kengaytirish bilan bir qatorda davlatning boshqaruv mexanizmini ham shakllantirib bordilar. Qisqa muddat ichida Qo'qon xonligida O'rta Osiyoda rivojlangan davlatchilik an'analari asosida markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi shakllandi. O'rta Osiyoda mavjud davlatchilik – Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligida to'liq amalda bo'lgan markaziy va mahalliy boshqaruv tizimi kabi an'analarni o'zida mujassamlashtirgan boshqaruvning sodda uslubi Qo'qon xonligida ham qo'llanila boshlandi.

### **I bob bo'yicha xulosa:**

Xonlik tashkil topgan XVIII asrning dastlabki o'n yilligidan XIX asr boshlarigacha bo'lgan davrni qamrab olgan 90 yilni Qo'qonda davlatchilikning muhim komponentlaridan biri bo'lgan ma'muriy-boshqaruv tizimining shakllanish davri sifatida qabul qilish lozim. Bu davrda O'rta Osiyoda mavjud an'analar asosida shakllangan xonlik ma'muriy boshqaruv tizimida deyarli o'zgarishlar bo'lmadi. Faqat yangi asr boshlariga kelib bu borada o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunga Norbo'tabiydan so'ng taxtga o'tirgan Olimxon hamda uning ukasi Umarxon tomonidan davlatning siyosiy mavqeini oshirish, markazlashgan davlatning salohiyatini kuchaytirish maqsadida olib borgan faoliyatlari, ular o'tkazgan harbiy islohotlar, mamlakat hududini yanada kengaytirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosat zamin yaratdi. Bu davrda davlatning markaziy boshqaruv tizimida mingboshi, xojakalon, qozi askar kabi yangi mansablar joriy etildi.

## II BOB. UMARXON HUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGIDA IJTIMOYIY-IQTISODIY HAYOT

### 2.1. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi O'rta Osiyodagi yirik davlatga aylandi. Markazlashgan davlatning salohiyati kuchli bo'lgan yillarda iqtisodiy hayot taraqqiyoti, uni tashkil etgan hunarmandchilik va savdning rivoji yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xonlik tashkil topgan XVIII asr boshlarida Andijon, Marg'ilon, O'sh, Xo'jand shaharlari Farg'ona vodiysining yirik shaharlari hisoblangan. Mamlakat siyosiy jihatdan taraqqiy etib borishi natijasida asta-sekinlik bilan bu shaharlarning iqtisodiy markazlar sifatida salohiyati oshib bordi.

Umarxon hukmronligi davrida xonlikda siyosiy va iqtisodiy yuksalish davri boshlangan. Natijada, mamlakat shaharlarining mavqei ko'tarilishi bilan bir qatorda, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram kabi yirik siyosiy va iqtisodiy markazlar qo'shib olindi. Shuningdek, xonlikning chegara hududlarida Oqmasjid, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarga asos solindi.

Umarxon hukmronligi davrida asos solingan va asta-sekin yirik iqtisodiy markazlardan biriga aylangan shaharlardan yana biri Shahrixon hisoblangan. Qo'qon xoni Umarxon (1810 – 1822) ning zamondoshi Dilshodi Barnoning “Tarixi Muhojiron” asaridagi ma'lumotga ko'ra, Umarxon Shahrixonga 1821 – 1822-yillarda asos solgan<sup>91</sup>. Umarxon yangi shaharga asos solganidan so'ng, xonlikning turli hududlaridan hunarmandlarni ko'chirib keltirgan va bu yerda savdoni rivojlantirish maqsadida savdogarlardan bir necha yil boj olmaslikni buyurgan<sup>92</sup>.

1819 – 1821-yillarda esa Shahrixon soyi kavlanib, “Shahri Umarxoniy” deb nomlangan kanal kavlangan. Kanal Qoradaryodan suv olib 101 chaqirim uzunlikda bo'lgan kanal bitgach, Andijonning janubiy-sharqiy yerlariga suv chiqarilib quruq

---

<sup>91</sup> Дилшод. Тарихи муҳожирон / Нашрга тайёрловчи М.Қодирова. – Т.: Фан, 1994. – Б. 77 – 91.

<sup>92</sup> Жалилов С. Фарғона водийсининг шарқий районларининг суғорилиш тарихидан: Тарих фан. ном... дисс.– Т., 1965. – Б. 65.

va bo'z yerlarni o'zlashtirish boshlandi, buni natijasida aholi yangi yerlarga ko'chib keldi.

Shuningdek, Umarxon Shahrixonsoy kanalini qazdirganidan so'ng, ko'p yerlar o'zlashtirilgan va Shahrixon yanada kengaygan. Tarixchi Mirzo Olim Mushrif, "Shahrixon obod bo'lib, g'allasi Xo'qand askariga kifoyat qilib, yana ziyodasi ombor qilinur edi", – deb yozgan edi.

Umarxon hukmronlik davrida ahamiyati oshgan shaharlardan yana biri Namangan hisoblanadi. Norin daryosidan suv oluvchi 1803-yilda qazilgan Yangiariq kanali 1819-yili Qo'qon xoni Umarxon tomonidan kengaytirilishi natijasida qo'riq yerlar o'zlashtirilib, Namangan shahri yanada kengaygan<sup>93</sup>. Yangiariq kanali kengaytirilib, uzaytirilib, 100 chaqirimga yetkazilgan (sekundiga 4-5 kub). Yangiariqdan hammasi bo'lib 96 ta ariq chiqarilgan bo'lib, bu ariqlardan atrofdagi juda ko'p qishloqlar suv bilan taminlangan. Shuning uchun ham Umarxon bu kanalni kengaytirishga, aholini suv bilan taminlashga boshchilik qilgan.

Shaharlar – atrof qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholining iqtisodiy farovonligi ko'tarilishida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, qishloq aholisi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar shahar hunarmandlari uchun xom-ashyo vazifasini o'tagan. O'z navbatida, shahar hunarmandlari tomonidan tayyorlangan mahsulotlarning asosiy iste'molchilari qishloq aholisi hisoblangan. Bu esa, qishloq aholisining hayot tarzining yaxshilanib borishiga va o'z navbatida shahar hunarmandchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Umarxon hukmronligi davrida xonlikda hunarmandchilikning turli sohalari taraqqiy etgan. Qo'qon qog'oz, zargarlik buyumlari, egar va ot-aravalari, Marg'ilon va Xo'jand ipak (kanoviz, shoyi, atlas va h.k.), yarim ipak matolari (beqasab, banoras, adras), O'sh va Andijon ko'nchilik va chorvachilik mahsulotlari, Namangan temirchilik va yog'och buyumlari bilan ajralib turgan.

Hunarmandlarining asosiy mashg'ulotlaridan biri to'qimachilik hisoblangan. To'qimachilikning asosiy xom-ashyosi mahalliy dehqonlar tomonidan

---

<sup>93</sup>Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва., 1958. – С. 182.

yetishtirilgan paxta edi. Xonlikda keng tarqalgan to'qimachilik mahsuloti bo'z yoki karbas deb nomlangan. Umarxon hukmronligi davrida ya'ni, 1813 – 1814-yillarida xonlikka rasmiy tashrif bilan kelgan F. Nazarov esa, “Qo'qon atrofida paxtachilik va ipakchilik rivojlangan, hunarmandlar dehqonlarga nisbatan ko'proq va erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham mehnat qiladi. Qo'qon hunarmandlari tayyorlagan to'qimachilik va ipak mahsulotlari boshqa hududlardagi xuddi shunday turdagi mollardan ustun”, – deb ta'riflagan<sup>94</sup>.

Marg'ilonda bo'lgan F. Nazarov, “....shaharda turli fabrikalar bor, ularda fors parchalari, baxmallar va turli Osiyo gazmollari tayyorlaydilar. Ularni Buxoro va Qashqarga sotadilar”<sup>95</sup> deb qayd etgan. Namangan xaqida esa, “.... aholi ko'p, qog'oz ishlab chiqaradigan fabrika bor, bu yerdagi mevalar boshqa yerlarda uchramaydi, aholi tog'li qirg'izlar bilan savdo qiladi”<sup>96</sup>, – deb yozib qoldirgan.

Bu davrda xonlikda Qo'qon va Toshkent shaharlarida bo'z to'qish rivojlangan va sifati bo'yicha ham taniqli hisoblangan. Xususan, Toshkentda “ko'k bo'z” va “oddiy bo'z” turlari ko'p to'qilgan va mahalliy aholi bilan bir qatorda qo'shni hududlarda yashovchi chorvador aholi tomonidan ko'plab xarid qilingan.

Xonlik shaharlarida to'qilgan mahsulotlarning bir qismini olacha tashkil etgan. Olacha matosining asosiy xaridori chorvador qozoq va qirg'izlar hisoblanib, ular savdo qiladigan asosiy markazlar – Toshkent va Namangan shaharlarida bu matoni tayyorlash rivojlangan.

Qo'qon to'quvchilarining mahsulotlaridan yana biri chit edi. Chitgarlar bo'zga maxsus tayyorlangan qoliplarda turli rangdagi gul bosishgan va bu mato chit hisoblangan. Chitgarlik nihoyatda nozik va murakkab kasblardan bo'lib, xonlik shaharlari orasida sifatli chit tayyorlashda Toshkent yetakchi bo'lgan.

Qo'qon xonligi aholisining asosiy mashg'ulotlaridan biri ipakchilik bo'lib, ipak va ipak matolar mamlakatning tashqi savdodagi asosiy mahsulotlaridan biri edi. Ipak va ipak matolar ishlab chiqarishda xonlikda Qo'qon va Marg'ilon alohida mavqe ega bo'lgan.

<sup>94</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 74 – 76.

<sup>95</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968. – С. 49.

<sup>96</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней Части Азии. – СПб., 1821. –С. 72.

Xonlikda tayyorlangan ipak ancha sifatli bo'lib, mamlakat bozorlari xom ipak va ipak matolari bilan mashhur edi. Qo'qon xonligi hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ipak sifatiga qarab – “chilla”, “tafil”, “sarnoq” va boshqa navlarga bo'lingan. Shuningdek, xonlikda ipak mahsuloti yigirilib, kalava ham tayyorlangan. Mamlakatdagi eng yuqori sifatli kalava “namanganniki” hisoblangan.

Xonlikning yirik bozorlaridan biri hisoblangan Marg'ilonda ipak va ipak matolar savdosi yil davomida qizg'in amalga oshirilgan.

Qo'qon xonligi xunarmandlari tomonidan tayyorlangan matolar orasida atlas taniqli hisoblangan. Marg'ilonda bu gazlama “atlas” yoki “jiba arqoq” nomi bilan mashhur bo'lgan<sup>97</sup>.

Qo'qon xonligida yetishtirilgan ipak va paxta xom-ashyosi hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar O'rta Osiyoning ichki bozorlarida o'ziga xos mavqeiga ega bo'lgan. Biroq, bu mahsulotlar qo'l mehnati asosida tayyorlangan va aksariyat hollarda ularning sifati talab darajasida emasligi, keyinchalik O'rta Osiyo bozorlariga ingliz va rus mollarini kirib kelishi bilan raqobatbardoshlik qobiliyatini yo'qotgan.

O'rta Osiyo xalqlari orasida ro'zg'orda keng ishlatiladigan kulolchilik mahsulotlariga talab doimo katta bo'lgan. Buxoro va Xiva xonliklari kabi Qo'qon xonligi ham o'ziga xos kulolchilik maktabiga ega edi. Qo'qon xonligi kulolchilik markazi Rishton shahri hisoblanib, bu yerda tayyorlangan mahsulotlar nafaqat shahar, balki qishloq aholisi ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Xonlikda ko'plab qurilishlar olib borilishi natijasida katta shaharlarda g'isht quyadigan xumdonlar vujudga kelgan. Xususan, Rossiya istilosiga qadar Namangandagi Yangiariq kanalining chap qirg'og'ida g'isht quyuvchi xumdonlar bo'lgan va ularda tayyorlangan g'ishtlar mahalliy inshootlarni barpo qilishda, madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa qurilish ishlarida keng foydalanilgan<sup>98</sup>.

---

<sup>97</sup>Агзамова Г. Марғилон ҳунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. – Тошкент – Марғилон., 2007. – Б. 115.

<sup>98</sup>Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины. – СПб., 1882. – С. 513.

Xonlikda yog'och va metalga ishlov berish, temir buyumlar ishlab chiqarish ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. Qo'qon, Toshkent, Namangan va Andijon shaharlarida yog'ochga ishlov beruvchi, temir buyumlar ishlab chiqaruvchi va boshqa ko'plab ustaxonalar mavjud bo'lib, ular asosan bozorlardagi hunarmandchilik do'konlarida joylashgan. Ularda tayyorlangan mahsulotlar do'konlarning o'zida sotilgan. Xonlik shaharlarida hunarmandlarning bunday do'konlari ko'pchilikni tashkil etib, XIX asrda birgina Qo'qonning o'zida 400 ga yaqin misgar, 100 ga yaqin kandakor faoliyat yuritgan<sup>99</sup>. Xonlikning daryo bo'ylarida va ularga yaqin hududlarida joylashgan shaharlarida qayiqsozlik va kemasozlik ham taraqqiy etgan. Bu shaharlar jumlasiga, Qo'qon, Toshkent, Namangan va Xo'jand shaharlarini misol qilish mumkin.

Metallga ishlov berish va undan turli buyumlar yasash markazi sifatida xonlikdagina emas, balki O'rta Osiyoda ham o'z o'rniga ega bo'lgan shaharlaridan biri Namangan hisoblangan<sup>100</sup>. Qurolsozlik rivojlangan bu markazda miltiq va qilichlar tayyorlangan. Temirchilik xonlikning boshqa shaharlarida ham taraqqiy etgan. Xususan, Chust, Shahrixon, Qo'qon, Poytug', Qorasuv shaharlari Farg'ona vodiysining 5 ta metall buyumlar, asosan, pichoq ishlab chiqarish markazlari bo'lib, ularning uchtasining bozori Andijonda joylashgan<sup>101</sup>.

Zargarlik qadimdan O'rta Osiyo xalqlari orasida qadrli kasblardan bo'lgan. Qo'qon xonligida ham bu soha o'ziga xos tarzda taraqqiy etgan bo'lib, O'rta Osiyo xalqlari an'analariga mos ravishda zargarlik ustaxonalari yirik shaharlarning markazlarida joylashgan. Zargarlik buyumlari tayyorlash borasida poytaxt Qo'qon yaqqol ajralib turgan va O'rta Osiyoda faqatgina Buxoro u bilan raqobat qila olgan. Shuningdek, Toshkent zargarlari ham o'z uslubiga ega bo'lganlar. Ular qo'shni dasht hudud aholisi uchun mo'ljallab, nisbatan arzon zargarlik buyumlarini ko'proq tayyorlaganlar.

<sup>99</sup>Абдуллаев Т. XIX – XX асрларда ўзбек кандакорлиги. – Т., 1974. – Б. 103.

<sup>100</sup>История народов Узбекистана. Том II. – Т., 1947. – С. 139 – 140.

<sup>101</sup>Мусаев Д., Хошимов Х. Андижоннинг XIX аср охири – XX аср бошлари даври хунармандчилиги тарихини ўрганилишига доир // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбелейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. – Тошкент – Марғилон. 2007. – Б. 123.

Qo'qon xonligida taraqqiy etgan o'ziga xos hunarmandchilik turlaridan biri aravasozi edi. Aravasozi Qo'qon, Toshkent, Namangan va Marg'ilon shaharlarida rivojlangan bo'lib, xonlikda tayyorlangan aravalar "Qo'qon arava" nomi bilan O'rta Osiyoda tanilgan. Chunki, Qo'qon aravasozi va egar-jabduq tayyorlash bo'yicha O'rta Osiyoda yetakchilik qilgan. Qo'qon arava 25 – 40 pud gacha yuk ko'tara olgan va asosan otlar yordamida manzilga olib borilgan. Bu aravalardan ichki va tashqi savdoda faol foydalanilgan.

Xonlik aholisining ko'chmanchi xalqlar bilan iqtisodiy aloqalari rivoji mamlakatda ko'ndilik va teriga ishlov berish hunarining taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Bunday hunarlar rivojlangan markazlar – shaharlar edi. Qo'qon, Toshkent, Andijon va O'sh shaharlari ko'ndilik markazlari bo'lib, bu yerlarda terini qayta ishlash va undan poyabzal tayyorlash bilan birga teridan kiyim-kechak, bosh kiyim, suv va qimiz uchun meshlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan<sup>102</sup>. Xususan, mamlakat poytaxti Qo'qonda chorva terilarini oshlash, ishlov berish, turli rangga bo'yash va ulardan etik, kavush, mahsi tayyorlash ham ancha ravnaq topgan edi. Xonlikda tayyorlangan poyabzallarga mahalliy aholi bilan bir qatorda chorvachilik bilan shug'ullanuvchi cho'l va tog' oldi hududlar aholisi, asosan, qozoq va qirg'izlar orasida talab katta bo'lgan.

Xonlik shaharlarida sovun ishlab chiqarish hunari ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. Sovungarlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar orqali mahalliy aholining sovunga bo'lgan ehtiyoji qondirilgan. Marg'ilon o'zining ipak matolari qatorida kulrang va qora rangdagi sovuni bilan mashhur bo'lgan bo'lsa, Toshkentda tayyorlangan kulrang sovunga mahalliy aholi orasida talab katta edi.

Poytaxt Qo'qonda tayyorlangan qog'oz O'rta Osiyoda mashhur hisoblangan va ilm ahli orasida qadrlangan. Qo'qonda ikkita qog'oz ishlab chiqarish korxonasi mavjud bo'lib, ularning biri shaharning "Mo'yi Muborak" darvozasi yaqinida,

---

\*Izoh. Pud – 16,3 kg. ga teng o'g'irlik o'lchov birligi (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 7 – том. 2004. – Б. 196).

<sup>102</sup>Сухарева О. А. Из истории городских и сельских поселений Средней Азии (второй половины XIX – начала XX в. ) // Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – Москва, 1982. – С. 21.



ikkinchisi shahar yaqinidagi Chorku qishlog'ida joylashgan edi. Qo'qonda ishlab chiqarilgan qog'oz butun O'rta Osiyo bozorlariga olib ketilgan.

Xonlik poytaxti Qo'qonda muqovasozlik hunari ham rivojlangan bo'lib, XIX asrga oid ma'lumotlarda, “eng yaxshi muqovasozlar Qo'qondadir” deyilgan. Namangan Qo'qon kabi muqovalash hunari rivojlangan shaharlardan bo'lib, bu yerda charm va qog'ozdan yaratilgan muqovalar O'rta Osiyoning yirik markazlari – Samarqand va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi<sup>103</sup>.

Xonlik shaharlarida o'simliklardan turli rangdagi bo'yoq tayyorlash va ip-gazlama, ipak hamda ipak matolarni bo'yash hunari rivojlangan edi. Xonlikda bu sohada Namangan yetakchilik qilgan. Bu shaharda ipakni bo'yashda asosan norpus (qora anor) bo'yog'idan foydalanilgan bo'lib, xonlikning turli hududlaridan bu yerga katta miqdorda ipakni bo'yatish uchun olib kelganlar. Qo'qon xonligida O'rta Osiyoning boshqa xonliklari kabi ro'yan (marena) deb nomlangan butasimon o'simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo'yoq tayyorlangan va u bilan qizg'in savdo amalga oshirilgan. Bu bo'yoq ham xonlik hududida asosan Namanganda tayyorlangan<sup>104</sup>.

Xonlik shaharlari aholisi dehqonchilik, bog'dorchilik bilan ham faol shug'ullangan. Shaharlar va ularning atroflaridagi dalalar, polizlar va bog'larda yetishtirilgan mahsulotlar bilan xonlik bozorlarida qizg'in savdo amalga oshirilgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi qadimdan bog'dorchilik mahsulotlari bilan qo'shni hududlarda ham tanilgan. Qo'qon xonligi davrida ham vodiyy bu borada o'z mavqeini saqlab qolgan. Namangan, Marg'ilon, Qo'qon bog'lari o'zining mo'l-ko'lligi, mevalarining ta'mi va sifati bilan mashhur hisoblangan. Bu sohada Namangan yaqqol ajralib turgan. Xonlikda anjir va anor yetishtirishda Namangan mashhur bo'lib, anjir mevasi, anor guli, ildizi, po'stlog'i va yaprog'idan mahalliy tabiblar turli kasalliklarni davolashda foydalanganlar. Shuningdek, Namangan olmalari xonlikdan tashqarida ham taniqli va xaridorgir hisoblangan. Bog'dorchilik Farg'ona vodiysining boshqa ko'plab shaharlari, ularning atrofi va qishloqlarida

<sup>103</sup>Қосимов Ў. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т., 1990. – Б. 20.

<sup>104</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2009. – Б. 37-40.

ham taraqqiy etgan. Marg'ilonning "Dona Kalon" nomli anori va Konibodom bodomini ham xonlik bozorlarida taniqli edi. Farg'ona vodiysi bog'larida yetishtirilgan mevalarga qo'shni hududlarda talab katta bo'lib, yil davomida bu yerdan quruq va ho'l mevalar ortilgan karvonlar qo'shni xonliklar, dasht hududlari va boshqa mamlakatlarga borib turgan.

Xonlik shaharlari o'zining dehqonchilik mahsulotlari bilan ham mashhur edi. Xususan, Namangan atroflarida bug'doy yetishtirish rivojlangan bo'lib, xonlik davrida Qo'qon va uning atrofi bug'doy bilan o'zini ta'minlay olmagan va Namangan dehqonlari yetishtirgan bug'doy poytaxt Qo'qon bozorlariga yil davomida yetkazib turilgan. Namangan o'zining tamakisi bilan ham mashhur bo'lgan<sup>105</sup>.

Umarxon hukmronligi davrida oldingi hukmdorlar davrida bo'lgani kabi Qo'qon xonligida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bolgan:

1. Amlok yerlar.
2. Xususiy mulk yerlar.
3. Vaqf yerlar.

Amlok yerlari bu davlat tasarrufidagi yerlar bo'lib, dehqonlarga ijara shaklida bo'lib berilgan. Mamlakatdagi butun yer davlatniki edi. Shuning uchun ham xususiy yer egalari aslida yerga emas, balki undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlaiga egalik qilar edilar. Xususiy yerlar bu xon oldidagi alohida xizmati uchun beriladigan yerlar bo'lib ulardan deyarli soliq olinmas edi. Mulklar ham turli shakilda bo'lgan. Masalan biron jangda alohida xizmati uchun, elchilik munosabatlarini biron bir davlatga borib ijobiy kelishuv bilan qaytsa yoki xon qarindoshlariga berilgan xususiy yerlar. Vaqf yer egaligi asosan masjid, madrasa, xonaqoh kabi diniy muassalarga tegishli yerlar bo'lib uni dehqonlarga ijara shaklida dehqonlarga berilib undan kelgan daromatni asosan masjid va madrasalarga jixozlar sotib olish uchun ishlatishgan. Vaqf mulkini sadr – lavozimi egasi boshqargan. Undan kelgan daromadni esa mutavvali tasarruf etgan (bu ikki lavozimni avlodi tekshirilib keyin xon tamonidan tayinlangan ko'p xollarda bu lavozimlar otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tar edi)<sup>106</sup>.

<sup>105</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.... – Б. 38-39.

<sup>106</sup> Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи. – Намангон: Ибрат, 1994. – Б. 58.

Xonlikdagi deyarli har bir madrasa, masjid, qorixona, xonaqoh, ziyoratgoh, qabristonning o'z vaqf mulklari bo'lgan. Vaqflarning katta qismi asosan madrasa, masjid va qorixonalar hissasiga to'g'ri kelar edi. Xonlikda vaqf, xususan, savdo vaqflarining katta qismi madrasalarga ajratilgan.

Din peshvolariga homiylik qilganligi sababidan ham Umarxon 1818-yilda “Amir-ul-Muslimin” unvonini olgan.

Umarxon hukmronligi davrida davrida olidingi hukmdorlar davrida bo'lgani kabi asosiy soliq – xiroj bolib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab 1/3–1/5 olinar edi. Qo'qon xonligida xirojni yig'ish shahar begi tomonidan sarkorga topshirilgan. Ko'chmanchi xalq 40 bosh hayvondan bir dona soliq to'lardi. Savdo karvoyalari viloyat hokimi yoki uning vakili soliqni olardi. Chet eldan kelgan savdo karvonlari bir marta umumiy narxidan 2,5 foiz soliq to'lar edi. Shu va ko'chmanchilardan olinadigan soliqning nomi zakot edi.

Qo'qon xonligida soliqlar xossachi va beklklarga bo'lingan. Xossachi – bu daromad xon xazinasiga tushgan. Beklik – bu daromad bek xazinasiga tushgan. Viloyat hokimlariga xiroj va tanobona solig'larini olish huquqi berilgan.

Xonlikda soliq va to'lovlardan tashqari, turli mehnat majburiyatlari ham mavjud bo'lib, ular ko'proq suv inshootlari qurilishida va baxor oylarida obodonchilik ishlarida keng qo'llanilgan. Manbalarda mehnat majburiyatlari turli nomlar bilan atalganligini ko'rish mumkin. Soliqlardan ozod etish haqidagi yorliqlarda “jamalg'ayi yurtiya” nomi qayd etiladi. Sharqshunos A.Juvonmardiyev o'z tadqiqotida uni aynan ishlab berish majburiyati ekanligini e'tirof etadi<sup>107</sup>.

Mehnat majburiyati oliy hukmdor yoki viloyat hokimining buyrug'iga asosan amalga oshirilib, har bir xonadondan bir kishi ish asobi bilan bir necha muddatga ishlab bergan. Hasharlar bir, ikki, uch va ko'p kunlik bo'lar edi<sup>108</sup>. Shu bilan birga, bir necha kunlik hasharlar ham mavjud edi. Buni Umarxon tomonidan 1819-yil Yangi ariqni qazish ishlarida qatnashish uchun Namangan viloyatidagi

<sup>107</sup> Жувонмардиев А. XVI – XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Т.: Фан, 1965. – Б. 65.

<sup>108</sup> Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства... – С. 255.

har bir oiladan bir kishi o'z ovqati va ketmoni bilan 15 kun davomida hasharda bo'lishlari haqidagi buyrug'i ham tasdiqlaydi<sup>109</sup>.

Umarxon "Amiriy" taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar bitgani ma'lum. Umarxon o'zining "Amiriy" nomli devonining debochasida davlat boshqaruvidagi faoliyati xususida quyidagilarni qayd etadi: "...chun davlat taxti va saltanat sariri nishimingohim bo'ldi, raiyatparvarliq va fuqaroparvarliq shevasi birla aftoda va mustamandlar holini ko'rib, bekas va bechoralardin so'rub, mahzun va sitamdiydalar xotirlarin shod va davr zulmidin buzilg'on ko'ngillar vayronalarin lutfu marhamat birla obod qildim, masokin va mustamandlar ahvolig'a shafqat ko'rguzdim, davron xaloyiqi osoyish toptilar"<sup>110</sup>.

Umarxon hukmronligi davrida iqtisodiy markazlarning ko'payishi xonlik aholisining hayoti farovonlashuviga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Qo'qon qog'oz, zargarlik buyumlari, egar va ot-aravalari, Toshkent qo'shni dasht aholisi orasida talab katta bo'lgan ipdan tayyorlangan matolari va hunarmandchilik buyumlari, Marg'ilon va Xo'jand ipak mahsulotlari, O'sh va Andijon ko'nchilik va chorvachilik mahsulotlari, Namangan bog'dorchilik mahsulotlari va yog'och buyumlari, Turkiston, Chimkent, Avliyo-ota, Sayram shaharlari chorva va chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turgan.

## **2.2. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining ichki va tashqi savdo aloqalari**

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi siyosiy jihatdan O'rta Osiyoda yuqori mavqega erishgan. Umarxon mamlakatni siyosiy jihatdan mustahkamlash bilan birga, savdoning rivojlanishiga homiylik qilib, bozorlar, karvonsaroylar, savdo rastalari va do'konlar barpo etgan, bozorlardagi savdo-sotiq jarayonini nazorat ostiga olgan.

Mamlakat bozorlariga shahar va qishloq aholisi dehqonchilik hamda hunarmandchilik mahsulotlari, tog'li hudud aholisi va ko'chmanchi chorvadorlar

<sup>109</sup> Махмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими.... – Б. 120.

<sup>110</sup> Махмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими.... – Б. 43.

chorva va chorvachilik mahsulotlarini olib chiqqan. Mahalliy savdogarlar xonlikning chekka qishloqlariga borib, o'sha hududda yetishtiriladigan yoki tayyorlanadigan mahsulotlarini arzon bahoda, ulgurjasiga sotib olgan va yirik shahar bozorlariga keltirgan. O'z navbatida, hunarmandlarning mollarini sotib olib, o'zlari bozorma-bozor, shaharma-shahar, qishloqma-qishloq sotib yuruvchi savdogarlar ham faoliyat yuritgan. Bu savdogarlar Qo'qon xonligida "do'kondor" deb atalgan.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon, Toshkent, Namangan, Marg'ilon, Andijon, O'sh, Xo'jand va boshqa shaharlar bozorlari o'zining me'morchilik uslubi, tashkiliy ishlari hamda to'kin-sochinligi va arzonchiligi bilan O'rta Osiyoga taniqli bo'lgan.

Qo'qon xonligi shaharlari orasida Qo'qon va Toshkent ulgurji mollar savdosi bilan yaqqol ajralib turgan.

Qo'qon shahri xonlikning yirik iqtisodiy markazi bo'lib, ichki savdoda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalliy aholi Qo'qon bozorlariga hunarmandchilik va shahar atroflaridan dehqonchilik mahsulotlarini olib chiqqan. Shuningdek, xonlikning turli hududlarida tayyorlangan va etishtirilgan mahsulotlarning sarasi Qo'qon bozorlarida sotilgan. Qo'qon bozori Farg'ona vodiysiga qo'shni hududlardan kirib kelayotgan mollarning asosiy tarqatuvchi markazi bo'lib, uning bozorlarida xonlikning turli hududlaridan kelgan savdogarlarni ko'rish mumkin edi.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qonda O'rta Osiyoning yirik bozorlaridan biri joylashgan edi. Xususan, 1813 – 1814-yillarida xonlikda bo'lgan F.Nazarovning yozishicha, Qo'qon markazida 9 ta karvosaroy, uchta toshdan qurilgan bozor bo'lgan va ularda haftada ikki marta bozor tashkil etilgan<sup>111</sup>.

Xonlik iqtisodiy hayoti asta-sekinlik bilan rivojlanib borishi oqibatida bozorlar soni ham ortib borgan. XIX asr 20 – 40-yillarida xonlik poytaxti Qo'qonda 6 ta bozor bor deb ko'rsatgan<sup>112</sup>.

<sup>111</sup>Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968.– С. 76.

<sup>112</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.... – Б. 117-118.

Qo'qon xonligi bozorlarining usti yopiq saroylarida nisbatan qimmat mollar, karvonsaroylarda esa chet el mollari va ulgurji mollar savdosi amalga oshirilgan.

Qo'qonda bozor haftada uch kun – chorshanba, payshanba va yakshanba kunlari ertalabdan kechgacha davom etgan<sup>113</sup>. Chorshanba asosiy bozor kuni hisoblanib, shu kuni bozorga xonlikning turli shaharlaridan va qo'shni hududlardan savdogarlar kelganlar.

Qo'qon xonligi bozorlarida eng yirik savdo ochiq bozor maydonlarida amalga oshirilgan bo'lsa, karvonsaroylarda nisbatan qimmat mollar, chet el mollari va ulgurji mollar savdosi amalga oshirilgan.

Qo'qon xonligining eng yirik va boy bozorlaridan biri Toshkentda joylashgan va u mahalliy hunarmandchilik, dehqonchilik, bog'dorchilik mahsulotlari bilan birga Rossiya va qozoq dashtlaridan keltirilgan mollar sotiladigan bozori bilan ham mashhur bo'lgan. Toshkent asosiy bozori hisoblangan Jo'ba bozorida (hozirgi Chorsu) XIX asr 20 – 30-yillarida asosiy rastalar va karvonsaroylardagi do'konlar qo'shib hisoblanganda 3000 dan ortiq do'kon mavjud bo'lgan. XIX asr 20 – 30- yillarida xonlikda bo'lgan kazak Maksimov ma'lumotlariga ko'ra, bu davrda Toshkentda 12 ta ikki qavatli – Urganjsaroy, Qizilboshsaroy (Fors saroy), O'russaroy, No'g'aysaroy, Qashqarsaroy va boshqa karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Bu karvonsaroylarning 4 tasida mahalliy, 2 tasida rus, 2 tasida qashqarlik, 2 tasida buxorolik savdogarlar to'xtagan<sup>114</sup>. Toshkentda Qo'qondagi kabi haftada uch marta – chorshanba, payshanba, yakshanba kunlari bozor bo'lgan.

XIX asr boshlarida Namangan ham o'zining bozorlari bilan mashhur bo'lib, u hunarmandchilik va bog'dorchilik mahsulotlari hamda tog'li qirg'izlar bilan olib borilgan savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Namanganning asosiy bozori xonlikning yirik shaharlarida bo'lgani singari mahsulot turlariga qarab, rastalarga va kichik bozorlarga bo'lingan. Shahar bozorida mayda savdo haftaning har kuni olib borilgan bo'lsa, yirik bozor Qo'qon va Toshkent bozorlaridagi kabi haftada bir

<sup>113</sup> Вельяминов-Зернов В. В. Торговое значение Коканского ханства для русских. ИРГО. – СПб., 1854. – С. 46.

<sup>114</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигининг савдо алоқаларида Тошкент шаҳрининг туган ўрни // Имом ал-Бухорий сабоқлари.– Тошкент, 2008. – №3. – Б. 205 – 209.

necha kun – shanba, yakshanba kunlari sahardan to kechgacha, yil bo'yi davom etgan<sup>115</sup>.

Umarxon buyrug'i bilan 1819-yili Namanganda Yangiariq kanalining kengaytirilishi natijasida ko'plab qo'riq yerlar o'zlashtirilib, Namangan shahri yanada kengaygan<sup>116</sup> va iqtisodiy imkoniyatlari oshgan.

Marg'ilon tashqi savdoda muhim o'ringa ega bo'lgan o'zining ipak va yarim ipak matolari bilan savdo qilinadigan bozori bilan xonlikning boshqa bozorlaridan ajralib turgan. Qo'qon xonlari buni inobatga olgan holda Marg'ilon bozoriga katta e'tibor berganlar, uni kengaytirganlar va yangi rasta, do'kon va karvonsaroylar qurdirganlar. Marg'ilon bozorida mayda savdo haftaning har kuni, payshanba va yakshanba kunlari asosiy katta bozor faoliyat ko'rsatgan.

Xonlikda o'zining bozorlari bilan mashhur bo'lgan markazlardan biri Andijon edi. Shahar markazida joylashgan bozorda 1000 dan ortiq do'kon mavjud bo'lgan. Bozor mahsulot turlariga qarab alohida savdo rastalariga va kichik bozorlarga bo'lingan. Shahar shimolida ot bozori, janubida qo'y bozori, markazida oyoq-kiyim bozori, attorlik, bo'yra, shirmonpazlik rastasi faoliyat yuritgan<sup>117</sup>.

Andijonda haftaning dushanba va yakshanba kunlari bozor kunlari bo'lgan va xonlikning turli hududlaridan, shuningdek, qo'shni mamlakatlardan ham savdo karvonlari kelgan. Haftaning boshqa kunlari bozorda mayda savdo-sotiq ishlari olib borilgan<sup>118</sup>.

Umarxon hukmronligi davrida O'sh shahrining ham ahamiyati yuqori bo'lgan. Qo'qon xonligining Qashqar bilan chegara hududida joylashgan va yirik savdo shaharlaridan biri O'sh xonlikning Qashqar va qirg'izlar bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan va uning bozorlarida mahalliy hamda turli hududlardan kelgan savdogarlarni ko'plab uchratish mumkin bo'lgan. 1812-yilda O'shda bo'lgan Britaniya josusi Mir Izzat Ullaning yozishicha, O'sh Qo'qon –

<sup>115</sup> Вельяминов-Зернов В.В. Торговое значение Коканского ханства для русских. ... – С.43 – 47.

<sup>116</sup> Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва, 1958. – С. 182.

<sup>117</sup> Мусаев Д., Хошимов Х, Андижоннинг XIX аср охири–XX аср бошлари даври хунармандчилиги тарихини ўрганилишига доир.... – Б. 123.

<sup>118</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.... – Б. 122-124.

Qashqar yo'lidagi yirik shahar va bu erda turli mamlakatlardan keltirilgan mollar ayriboshlangan hamda seshanba kuni O'shda yirik bozor bo'lgan<sup>119</sup>.

Qo'qon xonligining yirik shaharlaridan biri Xo'jandning "Payshanba" va "Chorshanba" bozorlarining 14 ta bozor maydoni bo'lgan va ularda mayda savdo amalga oshirilgan. Payshanba bozori shahar markazining sharqida, Chorshanba esa janubi-sharqida joylashgan. Payshanba bozorida 510 ta, Chorshanba bozorida 280 ta do'kon mavjud bo'lgan. Xo'jandda haftada uch kun – chorshanba, payshanba va juma bozor kunlari hisoblangan<sup>120</sup>.

Umarxon hukmronli davrida Toshkent, Turkiston, Chimkent, Avliyoota shaharlarida Qo'qon xonligi mavqeining mustahkamlanishi savdo munosabatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xonlik xazinasiga savdo bojlaridan tushdigan daromad ham ko'payib borgan.

Xonlikning yirik shaharlarida haftasiga uch marta, kichikroq shahar va katta qishloqlarda ikki marta, bir biriga yaqin bo'lgan bir nechta kichik qishloqlar tutashgan joylarda esa bir marta bozor bo'lgan.

Qo'qon xonligi bozorlarida Buxoro va Xiva xonliklari, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya va Qashqardan kelgan savdogarlarni tez-tez uchratish mumkin bo'lgan. Xonlikda turli millat va din vakillariga erkin yashash va savdo qilish uchun berilgan keng imkoniyat hamda boy va xaridorgir bozor turli mamlakat savdogarlarini bu yurtga chorlagan.

Shuningdek, bu davrda Qo'qon xonligi savdogarlari O'rta Osiyo xonliklari bilan bir qatorda, Rossiya, Xitoy, Qashqar, Hindiston, Afg'oniston, Eron, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa hududlarga savdo maqsadida borganlar.

Umarxon xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy aloqalarini mustahkamlash bilan birga, davlatning taraqqiy etishida tashqi savdo aloqalarining o'zni beqiyosligini anglagan va ular bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yishga xarakat qilgan. Xususan, Umarxon Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasidagi dastlabki savdo diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ygan va 1812-yilda o'z elchilarini bu davlatga

<sup>119</sup>Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в1812 году. Тр. Ср. ГУ. 1956. – С. 48 – 49.

<sup>120</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.... – Б. 123-124.



yuborgan<sup>121</sup>. Shuningdek, u Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yib, Turkiya davlati bilan ham diplomatik munosabatlar olib borgan<sup>122</sup>.

Bu davrda Qo'qon xonligining tashqi savdo aloqalarida Buxoro amirligi yuqori ahamiyatga ega bo'lgan. Qo'qon xonligidan Buxoro bozorlariga xonlikda tayyorlangan xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak matolar, kalava ip, ho'l va quruq mevalar, rus temiri va cho'yani hamda rus po'latidan yasalgan buyumlar, Qashqar ipagi va ipak matolari, Xitoy mollari – choy, chinni buyumlar, attorlik mollari va ipak matolar olib kelingan. Qo'qon xonligida yuqori baholangan mashhur turkman va Mashhad gilamlari, bo'z, gul bosilgan gazlama, shoyi va yarim shoyi gazlamalar, qorako'l, tulki mo'ynasi, chopon, ko'rpa, hind, afg'on, fors mollari Buxoro xonligidan keltirilgan<sup>123</sup>.

Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan ham yuqori darajada bo'lmasa-da, muayyan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Xonlikning Xiva bilan savdo aloqalari asosan Buxoro xonligi bozorlari va bu davlat hududidan o'tgan karvon yo'llari orqali olib borilgan. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi hududlarining kengayib borishi natijasida qozoq dashtlari orqali ikki xonlik chegaralari tutashib ketgan va to'g'ridan-to'g'ri savdo aloqalarini olib borish imkoniyati paydo bo'lgan. Xususan, Xiva – Qo'qon xonliklarining o'zaro savdosi Sirdaryoning quyi oqimi (Oqmasjid) orqali, 1814-yildan boshlab esa, Umarxon qurdirgan harbiy chegara qo'rg'onlari – Yangiqo'rg'on, Qushqo'rg'on va Chimqo'rg'on orqali bo'lgan<sup>124</sup>.

1819 – 1820- yillarda Xiva va Buxoroda bo'lgan sayyoh Nikolay Murav'yov xonliklarning o'zaro savdo aloqalari haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: xivaliklar Buxoro bozorlaridan qog'oz, ipak, ipak va yarim ipak matolar, shoyi kiyimlar, kashmir ro'mollari, Xitoy chinni idishlari, choy va boshqalarni sotib olganlar<sup>125</sup>. Xivaliklar Buxoro bozorlaridan sotib olgan mahsulotlarning ko'pi

<sup>121</sup> Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – Москва, 1968. – С. 41.

<sup>122</sup> Болтабоев Х. Амир Умархоннинг мактуби // Ўзбекистон дабиёти ва санъати. 1997 йил 27 октябр.

<sup>123</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари.... – Б. 82-84.

<sup>124</sup> Қосимов Ў. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. – Наманган, 1992. – Б. 28.

<sup>125</sup> Путешествие в Среднюю Азию Николая Муравьева (1819-1820)// История Узбекистана в источниках. – Т.: Фан, 1988. – С. 187.

Buxoro bozorlariga Qo'qonlik savdogarlar tomonidan keltirilgan. Ya'ni, Qo'qon – Xiva savdo aloqalarida Buxoro amirligi vositachilik vazifasini o'tgan.

Xiva xonligida ham Qo'qon ipagi va ipak gazlamalariga talab katta bo'lgan. Mashhur Qo'qon qog'ozi O'rta Osiyoning turli hududlari kabi, Xiva xonligigacha olib borilgan<sup>126</sup>. Xiva xonligining Xitoy va Qashqar bilan savdo aloqalarida Qo'qon tranzit shahar vazifasini bajargan. Xivadan Qo'qon xonligiga oz miqdorda Xiva choponlari, bo'z, po'stin, ot, tuya, xo'kiz terilari, yarim ipak mato, gilam, arg'umoq otlar va Mashhad orqali keltirilgan ingliz chiti olib ketilgan.

Qo'qon va Xiva xonliklari o'rtasida kam bo'lsa ham kichik-kichik karvonlar yil bo'yi borib turgan. Ular asosan Buxoro – Xiva karvon yo'lidan foydalangan. Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan asosan Buxoro amirligidan o'tgan karvon yo'llari va amirlik bozorlari savdo aloqalarini olib borgan bo'lsa ham ikki mamlakatni to'g'ridan to'g'ri bog'laydigan Toshkent orqali o'tgan karvon yo'li mavjud bo'lgan. Toshkentdan chiqqan karvon Jizzax, Forish va Balti-saudir, Bo'tabek, Bechapan, Odinboy, Yuz quduq, Moybuloq, Mingbuloq, Buzauboy, Kosay, Sorbuloq quduqlari va Oqqamish orqali Xivaga borgan. Shuningdek, Xiva va Qo'qon xonligi o'rtasida Sirdaryo orqali ham savdo aloqalari amalga oshirilgan. Xiva xonligi Amudaryo orqali Buxoro va Balx bilan, Sirdaryo orqali Toshkent va Qo'qon bilan aloqa qilgan. Biroq, Sirdaryo orqali o'tgan daryo yo'li uzoqligi va katta kemalar qatnashi uchun imkoniyat yo'qligi natijasida undan savdogarlar juda kam foydalangan. Natijada, Buxoro amirligi orqali Qo'qon – Xiva savdosi o'z ahamiyatini saqlab qolgan<sup>127</sup>.

Qo'qon xonligidan Hindistonga asosan xom ipak, ipak va yarim ipak matolar, quritilgan mevalar, ro'yan, echki momig'i jo'natilgan. Shuningdek, qo'qonlik savdogarlar tomonidan Hindistonga mahalliy hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida tayyorlangan va Rossiya mollari ham olib borilgan.

<sup>126</sup> Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства писчей бумаги // Поздне-феодалный город Средней Азии. – Т., 1990. – С. 163.

<sup>127</sup> Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида карвон йўллари. // Таълим ва Тафаккур.– Наманган, 2008. –№5. – Б. 24-25.

Hindistondan Qo'qon xonligiga Qobul va Buxoro amirligi orqali attorlik buyumlari, dorivor giyohlar, "muslin" deb nomlanuvchi yupqa mato, Banoras kimxobi, Kashmir ro'mollari, hind parchalari, ip-gazlamalar, chopon, belbog', diniy kitoblar, indigo (nil), murch, ziravorlar, shakar, guruch, shinni, qimmatbaho tosh, choy va ingliz mollari – surp, sallalik va kiyimlik doka, chit, qurol-yarog' va boshqa buyumlar keltirilgan<sup>128</sup>.

Umarxon hukmronligi davrida Hindistondan Qo'qon xonligiga keltiriladigan mahsulotlarning bir qismini mashhur Kashmir ro'mollari tashkil qilgan. Kashmirda ro'mol to'qish bilan aholining asosiy qismi shug'ullangan bo'lib, ingliz Pirs Jervis ma'lumotiga ko'ra, 1813-yil Kashmir hududida 24 ming shunday ro'mol to'qiydigan dastgoh mavjud bo'lib, yiliga 3 mingdan ortiq Kashmir ro'mollari O'rta Osiyoga olib kelingan.

Xonlikning Afg'onistonga eksport qiluvchi asosiy mahsuloti ipak hisoblangan. Bu davlat shaharlariga keltirilgan ipakning bir qismi mahalliy hunarmandlar tomonidan xarid qilingan bo'lsa, katta qismi qo'shni mamlakatlarga olib ketilgan. Qo'qon xonligi Afg'onistonning Qashqar va Xitoy bilan savdo aloqalarida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Afg'onistondan Qo'qon xonligiga Buxoro orqali afg'on qilichi, xanjari, to'n va sallalari, gilamlar, dorivor giyohlar, qo'y, tulki mo'ynalari, jun gazlama, buzgundj bo'yog'i, Buxoro qorako'lidan farq qiluvchi qorako'l terisi va hind-ingliz, fors mollari keltirilgan<sup>129</sup>.

Qo'qon xonligidan Eronga asosan xom ipak, ipak gazlama va yarim ipak gazlamalar va xonlik hududi orqali hamda savdogarlari tomonidan Qashqar ipagi va ipak matolari, Xitoy chinni idishlari, attorlik mollari, choy va h.k. lar ham olib borilgan. Qo'qon xonligiga Eronning yirik markazi Mashhaddan ipak matolar, Tabriz movuti, oltin ip bilan tikilgan fors parchasi, Kirmonshoh ro'mollari, oltin ip bilan tikilgan Isfaxon belbog'i, eron gilamlari, Sheroz mo'ynasi, feruza, shakar, sariq murch, tamaki, turli xil bo'yoq, pichoq, xanjar, qurol, qo'lyozma va bosma

<sup>128</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлиги ва Ҳиндистон билан савдо алоқалари тарихидан // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 130-134.

<sup>129</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигининг Афғонистон билан савдо алоқалари тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2012. – №4. – Б. 295-297.

kitoblar, dorivor giyohlar, ingliz matolari, shakar, mayda temir, mis buyumlari keltirilgan.

Xonlik savdogarlari Usmoniylar davlati (Turkiya) va arab shaharlariga savdo maqsadida borib turganlar. Ular arab mamlakatlari va Turkiya shaharlari bilan ham asosan Buxoro, Afg'oniston yoki Xuroson, Eron hududlaridan o'tgan karvon yo'llari orqali savdo aloqalarini amalga oshirganlar. Qo'qon xonligidan arab mamlakatlari va Usmoniylar davlati shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan<sup>130</sup>.

Qo'qon xonligi Buxoro amirligi pududidan o'tgan karvon yo'llari orqali Xiva xonligi, Afg'oniston, Hindiston, Eron, arab davlatlari, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan ham savdo aloqalarini amalga oshirgan. Xususan, Qo'qon xonligidan chiqqan karvon Samarqand yoki Buxoro, Qarshi, Balx, Bomiyon, Qobul, Peshavor shaharlaridan o'tgan karvon yo'llari orqali Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Qo'qon – Buxoro (yoki Samarqand) – Qobul karvon yo'lidan ot, tuya bilan birga aravalar xizmatidan ham foydalanilgan. Qobuldan Peshavor, Mo'ltan hamda boshqa Hindiston shaharlariga boruvchi karvonlar esa ot va tuyalardan foydalanganlar<sup>131</sup>.

Qo'qon xonligining tashqi savdo aloqalarida O'sh – Terakdovon – Qashqar karvon yo'li ham muhim ahamiyatga ega edi. Bu yo'l orqali xonlik Sharqiy Turkiston shaharlari, Xitoy, Hindiston bilan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Qo'qon xonligining Buxoro amirligi bilan munosabati yomonlashgan va Afg'onistonda notinchlik hukmron vaqtlarda xonlik Hindiston bilan asosan ushbu karvon yo'li orqali savdo aloqalarini amalga oshirgan<sup>132</sup>. Umarxon hukmronlig davrida bu yo'ldan samarali foydalanishgan. Xususan, 1812- yil 7- mayda Rossiya imperiyasi generali Glazenapaning tatar savdogari Mehti Rafilov bilan uchrashuvidan so'ng rus hukumatiga bergan hisobotida, Kashmir – Oqsu – Qo'qon

<sup>130</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигининг Усмонийлар давлати билан савдо алоқалари тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2012. – №2. – Б. 132-133.

<sup>131</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида карвон йўллари. // Таълим ва Тафаккур.– Наманган, 2008. –№5. – Б. 24-25.

<sup>132</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида карвон йўллари....– Б. 24-25.

shaharlarining savdo aylanmasi yiliga bir necha million rub. bo'lganligi haqidagi ma'lumoti buni tasdiqlaydi.

Qo'qon xonligining Rossiya, Qozoq dashtlari, Chuguchak, G'ulja va boshqa ko'plab hududlar bilan savdo aloqalarida Toshkent shahri muhim ahamiyat kasb etgan.

Umarxon hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlariga xos ravishda Qo'qon xonligi bozorlarida o'g'irlik xolatlari juda kam ro'y bergan va shunday xolat yuz bersa jiddiy jazo qo'llanilgan. Xususan, Umarxon hukmronligi davrida ya'ni 1814-yil xonlikda bo'lgan F.Nazarovning yozishicha, qo'y o'g'irlagan kishining barmoqlari kesilgan va qaynab turgan chelakka tiqilgan hamda eshakka teskari o'tkazilib, bozor aylantirilgan. Tarozidan urgan kishi esa yalang'och xolda bozorda qamchilab yurilgan<sup>133</sup>. Bu kabi keskin chora tadbirlar bozorlarda haridor va sotuvchilarni erkin harakat qilishlariga imkoniyat yaratgan.

Qo'qon xonlari XVIII asr 70 – yillariga qadar mamlakatning siyosiy mustaqilligini saqlab qolish va ichki urushlarni oldini olish bilan mashg'ul bo'lgan. SHu bois, ichki savdo munosabatlaridagi oldi-sotdi jarayoni qo'shni xonliklar pullari, asosan Buxoro tangalari va mol ayriboshlash orqali amalga oshirilgan.

Norbo'tabiydan so'ng xonlik taxtiga chiqqan har bir xon o'z nomidan yangi pul zarb ettirgan va eskisini yig'ishtirib olgan. Qo'qon xonlari ko'proq chaqa pul, ba'zilar oltin tanga zarb ettirgan. Xususan, Norbo'tabiy mis chaqa, Olimxon mis chaqa va kumush tanga, Umarxon dastlab mis va kumush tanga hamda hukmronligining so'nggi yillarida yana pul isloxoti o'tkazib, ilk bora xonlik tarixida oltin tangalarni muomilaga kiritgan<sup>134</sup>.

Qo'qon xonligi tangalarining bir tomoniga uni zarb ettirgan hukmdor nomi, ikkinchi tomoniga zarb yili va joyi yozilgan. Xususan, Umarxon tomonidan zarb ettirilgan tanganing bir tomoniga, – “musulmonlar amiri Sayid Muhammad Umar Sulton”, ikkinchi tomoniga – “1237-yil poytaxt Qo'qonda zarb etildi”– deb yozilgan.

<sup>133</sup>Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб. 1821. – С. 60.

<sup>134</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлиги тангалари// Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2010. – №2. – Б. 131-133.

Qo'qon xonligining oltin puli – tillo, kumush – tanga yoki kokan, mis – chaqa deb atalgan. Mahalliy aholi kumushdan ishlangan tangani “oq tanga”, misdan ishlangan tangani “qora tanga” deb atagan. Xonlik tangalari sifati va vazni turli xil bo'lgan. Qo'qon tillo tangasining 77,60 dan 82,80 foizigacha toza oltin hisoblangan<sup>135</sup>.

Qo'qon kumush tangasi ham turli xil vaznda zarb etilgan. Xususan, kumush tanga og'irligi 2,79 dan 2,88 gramgacha (0,75 misqol), soflik darajasi 61 – 89,5 bo'lgan. Bu vaqtda 250 tangaga yaxshi ot bergan.

Mis chaqalarning vazni ham har xil bo'lib, Umarxon mis tangasi 3,20 gramdan 6,43 gramgacha bo'lib, 24 – 25 chaqa 1 tangaga teng bo'lgan<sup>136</sup>.

Qo'qon xonligi tangalari Xiva, Buxoro, Qashqar bozorlarida ham ishlatilgan. O'z navbatida xonlik hududida Xiva, Buxoro, Qashqar, Xitoy, Rossiya, afg'on, hind tangalarida ham savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Shuningdek, xonlik bozorlarida mol ayriboshlash an'anasi ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Qo'qon xonligining yirik shaharlarida pul almashtirish do'konlari faoliyat yuritgan. Xususan, xonlikning eng yirik shaharlari Qo'qon va Toshkentda chorshanba hamda yakshanba bozori kunlari pul almashtiruvchi do'konlar faoliyat ko'rsatgan<sup>137</sup>.

Tillo tangalar asosan Chirchiq, Koson daryolari bo'yidan va Qorategindan hamda Sibirdan yashirin yo'llar bilan olib kelingan oltindan, kumush tangalar esa Qashqar orqali kirib kelgan Xitoy kumush yombilaridan, mis chaqa esa Rossiyadan keltirilgan qizil misdan tayyorlangan.

Xitoy yombisining 430 – 440 misqol vaznlisi xonlik bozorlarida ko'proq uchragan va narhi siyosiy hamda iqtisodiy vaziyatga qarab o'zgarib turgan. Qo'qon zarbxonasida 440 misqolli Xitoy kumush yombisi 30 tilloga harid qilingan va ba'zi

<sup>135</sup>Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлиги тангалари// Имом ал-Бухорий сабоқлари... – Б. 131-133.

<sup>136</sup>Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлиги тангалари.... – Б. 131-133.

<sup>137</sup>Адинарова А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Т., 1946. – С. 136.

vaqtlarda esa, 432 misqolli kumush yombi 31,5 tilloga ham sotib olingan hamda bir kumush yombidan 640 – 700 dona kumush tanga zarb etilgan<sup>138</sup>.

Savdogarlardan mis, oltin va kumushni Qo'qon sarrofboshisi sotib olgan. XIX asr o'rtalarida 100 misqolli oltin yombi 90 – 95 tillo, 314 misqolli kumush yombi 20 tillo, misning botmoni 22 – 28 tillodan sotib olingan. Mis tanganing 4 dan 1 qismi miqdorida qo'rg'oshin qo'shilgan va qo'rg'oshin xonlik hududidan qazib olingan hamda botmoni 15 – 16 tillodan harid qilingan. Sarrofboshi sotib olgan metallarini zarbxonaga keltirgan va mirzaning kitobiga qayd qildirgan<sup>139</sup>.

Poytaxt Qo'qonda xon O'rdasi yaqinida mamlakatdagi yagona zarbxona mavjud bo'lgan. Biroq, ma'lumotlarga ko'ra, XIX asr boshlarida O'shda ham xonlik zarbxonasi mavjud bo'lgan va unda mis chaqa tangalar zarb etilgan. Qo'qon zarbxonasi bir kecha-kunduzda 1000 tanga zarb qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Zarbxonada 100 misqolli oltin yombidan 100 tillo, kumush yombidan 640 – 700 tanga, 1 botmon misdan 36 ming chaqa zarb etilgan. Zarb etilgan 100 misqol oltindan 5 tillo, bitta yombi kumushdan 2 tillo, bir botmon misdan va qo'rg'oshindan 13 tillodan xon foydasiga o'tkazilgan. Shuningdek, sarrofboshi va zarbxona xizmatchilari ham ma'lum miqdorda daromad olgan<sup>140</sup>.

Qo'qon xonligida qalbaki pullar ishlab chiqarishga qarshi jiddiy choralar ko'rilgan. Qo'qon xonligida tanga-pullarni ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish bilan mehtar shug'ullangan.

Xonlikda bojxona ishi va savdo soliqlari islom dini ahkomlariga asoslagan holda amalga oshirilgan. Xon xazinasiga tushadigan daromadning asosiy qismi savdo sohasidagi soliqlardan iborat bo'lgan. Qo'qon xonligidagi soliqlar tizimi qo'shni xonliklarniki bilan deyarli bir xil edi.

Xonlik iqtisodiyotining yuksalishi va savdo munosabatlarining rivojlanishi uning hududlarida turli o'lkalardan kelib o'rnatib qolgan etnoslar vakillari soni ko'payishiga sabab bo'lgan. XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr boshlariga kelganda Qo'qon xonligining shahar va qishloqlarida mahalliy o'zbek, tojik,

<sup>138</sup> Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлиги тангалари... – Б. 131-133.

<sup>139</sup> Адинарова А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством... – С. 137.

<sup>140</sup> Адинарова А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством... – С. 138.

qirg'iz, uyg'ur, qozoqlar bilan birga, hind, afg'on, tatar, yahudiy, rus, fors va boshqa millat vakillari tez-tez uchrab turgan.

XIX asr boshlariga kelganda Qo'qon xonligi qirg'izlari asta-sekin mahalliy o'zbeklar ta'sirida dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va bozorlarga o'zlari etishtirgan dehqonchilik mahsulotlari olib chiqqanlar. Xususan, 1813 – 1814-yillarda Qo'qon xonligida bo'lgan F.Nazarov, Qora-Tov qirg'izlari dehqonchilik bilan shug'ullanganligi va yetishtirgan g'allasini ko'chmanchi qirg'izlarga ayirboshlaganligi haqida ma'lumot bergan<sup>141</sup>.

XIX asr boshlarida Qo'qon xonlari Olimxon va Umarxon tomonidan Toshkent, Turkiston, Chimkent shaharlari va uning atrofida yashovchi Katta Juz qozoq urug'lari bo'ysundirilgan. Shuningdek, XIX asrdan boshlab, O'rta Juz qozoq urug'larining ba'zilar ham Toshkent atroflariga ko'chib kelib joylashishi kuzatilgan<sup>142</sup>. Natijada, Qo'qon xonligi aholisining kattagina qismini qozoqlar tashkil qila boshlagan. Qo'qon xonligiga qarashli iqtisodiy markazlar – Toshkent, Chimkent, Turkiston, Sayram, Avliyoota, Oqmasjid va ularning atroflarida yashovchi qozoqlar xonlikning savdo munosabatlarida ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Sirdaryoning o'rta qismida yashovchi qoraqalpoqlar XVIII asr o'rtalaridan Farg'ona vodiysiga ko'chib kela boshlagan va bu jarayon XIX asr boshlariga qadar davom etgan. Ular markaziy Farg'onadagi Sirdaryo va Qoradaryo qirg'oqlarida joylashgan hamda Andijondan Qo'qongacha bo'lgan hududlarda qator qishloqlarni barpo qilganlar. Qo'qon xonligi qoraqalpoqlari qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa-da, ularning asosiy mashg'uloti chorvachilik hisoblangan. Shuningdek, Qo'qon xonligi qoraqalpoqlari bozorlarga o'zlari qamishdan tayyorlagan – bo'yra, chiy, turli xildagi qamish savatlar, chorva ozuqasi uchun qamish va qoramol, gilam, olacha, kigiz va boshqalarni olib chiqqanlar. Xususan, Umarxon hukmronlik davrida Qo'qon xonligida bo'lgan F.Nazarov o'z esdaliklarida yozishicha, Qo'qondan 12 verst uzoqlikda, Sirdaryo bo'ylarida

<sup>141</sup>Nazarov F. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 31 – 32.

<sup>142</sup>Султонов У. А. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари. – Т., 2007. – Б. 84.



yashovchi qoraqalpoqlar gilam to'qish, jun gazlama tayyorlash bilan shug'ullanganlar<sup>143</sup>.

Shuningdek, bu davrda hind, afg'on, fors, tatar, yahudiy va boshqa millatlar Qo'qon xonligining Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Namangan, Andijon shaharlarida yashagan hamda xonlikning savdo munosabatlarida o'ziga xos o'rin tutganlar.

Xonlik hududiga qo'shni mamlakatlardan kirib kelayotgan karvonni chegarada bojxona xodimlari kutib olgan. Ular karvon yuklarini savdogarlar ko'rsatmasiga ko'ra ro'yxatdan o'tkazganlar. Davlat amaldori – zakotchi karvondagi savdogar shaxsi, mamlakati, tuyalar (yoki ot va aravalar) soni, yuk miqdori, turi va boshqalarni ro'yxatga olib, yo'ldagi dastlabki shahar hokimi nomiga xabarnoma yuborgan. Chegara hududlaridagi bojxona bosh nazoratchisi, ya'ni zakotchi xon yoki bek tomonidan tayinlangan, uning yonida esa bojxona mavqeiga qarab 5 – 6 ta yordamchisi bo'lgan. Chegara bojxonasidan o'tgan karvon o'zlari kelgan dastlabki shahar darvozasi oldida to'xtagan va shahar zakotchisiga xabar yuborgan. Zakotchi o'z yordamchilari bilan kelib, karvonni tekshiruv maydoniga olib kelgan va bojxona yuborgan ro'yxatda ko'rsatilgan ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirgan. Shuningdek, mamlakat hududiga ta'qiqlangan mahsulotlar olib kelinmayotganligiga ishonch hosil qilingandan so'ng, xonlikda belgilangan tartibda musulmon savdogarlardan umumiy molning 2,5 foizi miqdorida, musulmon bo'lmagan savdogarlardan esa 5 foizi miqdorida boj olingan. Qo'qon xonligi savdo bojlari va soliqlaridan juda katta daromad olgan. Ulardan tushgan daromadning bir qismi xonlik qo'shinlarini qurol-yarog', mis va temir bilan ta'minlanishiga sarflanishi kerak edi. XIX asr 40-yillarida xonlik xazinasiga bir yilda savdo bojlaridan jami tushgan daromad 282000 tillo edi<sup>144</sup>.

**II bob bo'yicha xulosa:** Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Umarxon hukmronligi davrida Qoqon xonligining O'rta Osiyodagi mavqei

<sup>143</sup>Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 72.

<sup>144</sup> Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлиги божхоналари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2008. – №3. – Б. 98 – 100.

ko'tarilgan. Mamlakat hududi kengayib, ijtimoiy-iqtisodiy hayot ravnaq topgan. Iqtisodiy markazlar soni ko'paygan. Umarxon hukmronli davrida Toshkent, Turkiston, Chimkent, Avliyoota shaharlarida Qo'qon xonligi mavqeining mustahkamlanishi savdo munosabatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Umarxon mamlakatni siyosiy jihatdan mustahkamlash bilan birga, savdoning rivojlanishiga homiylik qilib, bozorlar, karvonsaroylar, savdo rastalari, do'konlar barpo etgan, pul isloxoti o'tkazgan, bozorlardagi savdo-sotiq jarayoni va savdo bojlarini nazorat ostiga olgan. Xususan, Umarxon dastlab mis va kumush tanga hamda hukmronligining so'nggi yillarida yana pul isloxoti o'tkazib, ilk bora xonlik tarixida oltin tangalarni muomilaga kiritgan Natijada, Qo'qon xonligi bozorlari O'rta Osiyodagi eng boy va xaridorgir bozorlarga aylangan.

### III BOB. UMARXON HUKMRONLIGI DAVRIDA QO'QON XONLIGIDA MADANIY HAYOT

#### 3.1. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligida ilm-fan taraqqiyoti

Amir Umarxon nafaqat xon balki o'zbek adabiyoti tarixida "Qo'qon adabiy muhiti" deb nomlangan, nihoyatda katta adabiy muhitini asoschi ham edi. Umarxon xonlik taxtiga ko'tarilgan so'ng siyosit bilan birgalikda maorif, fan, adabiyot va ayniqsa, san'atni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi.

Umarxon "Amiriy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Ma'lumotlarga qaraganda, uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. 1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she'rini o'z ichiga olgan "Majmuai shoiron" to'plamini tuzgan<sup>145</sup>. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'azallariga tatabbu'lar bog'lash bu shoirlar ijodida yetakchi o'rin tutgan.

Mulla Olim Maxdim Xoji "Tarixi Turkiston" asarida shunday yozadi, "...har vaqt amirning majlisida ulamoyi muhaqqiqlar bo'lub, ulamoyi xushomadgo'ydin parhez qilur ekan. Bulardan boshqa Umarxon "Majmu' ush-shuaro" barpo qilib, zakiy va zarif shuarolardin jam' aylab, hamma shuarolarning aytgan qasoid va g'azaliyot va ash'orotlarini jamlab, devon qilgandur. .... Xususan, Umarxon o'zi shoiri shirinsuxan edi. Aytgan she'rlari Farg'ona va boshqa viloyatlarda mashhurdir"<sup>146</sup>.

Amiriy ijodiga qiziqish shu darajada kuchli bo'lganki, uning devoni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent, Buxoro, Istanbul kabi shaharlarda toshbosma usulda 15 martadan ortiq chop etilgan. Shu bilan birga, she'riyat muhlislari tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan she'rlari turli bayoz va majmualarga kiritilgan. Ularning nusxalari Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Qo'qondagi qo'lyozma fondlari, kutubxonalar, muzeylar va ba'zi bir adabiyot muxlislari qo'lida saqlanadi. Qo'lyozma toshbosma nusxalarni turli tazkira va bayozlarni tadqiq etish va tavsiflash jarayonida uning 10229 misra merosini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy

<sup>145</sup> Каюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. –Б. 8.

<sup>146</sup> Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон.... – Б.44.

nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy xodimlari tomonidan yozma adabiyot katalogi uchun yig'ilgan materiallar orasida Amiriy devonining 26 ta qo'lyozmasi hisobga olinib, ularning ilmiy tavsifi berilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida ham Amiriy devonining 17 ta qo'lyozmasi mavjud<sup>147</sup>.

Amiriyning qo'qonlik adabiyot ixlosmandi Solijon Yo'ldoshevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan 1877-yilda ko'chirilgan nisbatan mukammal devoniga asoslanadigan bo'lsak, shoirning hozirgacha bizga jami 544 ta she'ri ma'lum. Bu she'rlarning janriy tarkibi quyidagicha: 465 g'azal, 53 ta muxammas, 5 ta musamman, 6 musaddas va 16 ta tuyuqdan iborat.

Devonda o'zbek tilidagi she'rlar 307 ta, fors-tojik tilidagi she'rlar esa 159 tani tashkil etadi. Amiriy ijodi janriy jihatdan rang-barang bo'lmaganidek, mavzu doirasi ham keng emas. Shoir merosi g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tarjeband, tuyuq kabi janrlardan iborat. U o'z iste'dodini ko'proq g'azal va muxammasdan namoyon etgan.

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o'ziga ustoz sanab, ulardan ijod sirlarini o'rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Aruzning turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va o'ynoqi vaznlaridagina yozilgan bu she'rlarning barchasi ishqu muhabbat mavzuida. Ularda an'anaviylik va tasavvufiy ruh ustun. O'zbek va fors-tojik tilidagi she'rlarini to'plab, devon tuzgan. Devon g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she'rni o'z ichiga olgan.

Amiriy devoni tarkibidagi g'azallar arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Boshqa janrlar ham devon tuzilishining asosiy tartiblariga rioya qilgan holda jamlangan. Devon maxsus nomlanmagan. Ammo muallif tomonidan debocha yozilgan. Shoir she'rlarining yaratilish tarixi, mavzu qamrovi ma'nosi timsollar mohiyatini to'g'ri anglashda "debocha"ning ahamiyati beqiyos. Chunki unda shoirning ijtimoiy faoliyati, ijodiy maqsadi borasidagi sharhlari, izohlari o'z

---

<sup>147</sup> Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O'zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi. – T.: Navro'z, 2011. – B. 218.

ifodasini topgan. Bu ma`lumotlar bizga ko`p masalalarni to`g`ri anglash va xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shoir she`riyati mavzusiga ko`ra asosan ishqiy yo`nalishda. Diniy mavzudagi she`r va baytlar ozchilikni tashkil qiladi. Shoh-shoir ijodida salaflarida bo`lgani kabi taqdirdan, dunyodan, odamlardan shikoyat motivlari deyarli uchramaydi. Bu balki Amiriyning hayotda omadli kishilardan ekani – siyosiy-ijtimoiy faoliyatida jiddiy qarshiliklarga duch kelmagani kabi, shahsiy-oilaviy turmushda ham bahtiyorligi bilan izohlanar. Unda-bunda uchraydigan norozilik ruhidagi ba`zi bayt va misralarni esa o`tmish adabiyotidagi an`ana ta`siri deb hisoblash mumkin.

Amiriy devonida g`azal yetakchi o`ringa ega. O`zi devon debochasida ta`kidlanganidek, u g`azalnavis ustozlar izidan borib, ularning barhayot an`analarini davom ettirdi. O`zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalandi.

Sharq so`z san`atining zabardast nomoyandalaridan o`rganish, ulardan ta`sirlanish, g`azallariga tatabbu yozish, taxmis bog`lash – Amiriy ijodining yetakchi xususiyati hisoblanadi. Xususan, u Kamol Xo`jandiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Fuzuliy, Mirzo Abdulqodir Bedil kabi ustoz shoirlardan bir umr mahorat sabog`ini o`rgandi. Binobarin, bu ulkan so`z san`atkorlari asarlarini chetlab o`tib Amiriy ijodiga baho berish mumkin emas. Chunki shoh-shoir she`rlarining har baytida bu she`riyat daholarining hayotbaxsh ta`siri sezilib turadi.

Amiriy ijodida Navoiy va Fuzuliy asarlarining ta`siri yaqqol ko`rinadi. Uning ayniqsa, ustoz Navoiy ijodiga ehtiromi baland. Uning 20 ga yaqin g`azaliga muxammas bog`lagan. O`zi yaratgan asarlarini esa kamtarlik bilan Navoiy merosi oldida bir mashq, havas deb hisoblaydi:

Bir pari paykar xati la`lini sharh ettim Amir

Bu g`azal ne zeri mashqidur Navoiy daftari.

Bu misralardan Amiriyning ijod yo`liga kirishida va shunday go`zal asarlar yaratilishida Navoiy asarlari mutolaasining o`rni beqiyosligini anglashimiz mumkin.

“Muntaxab at-tavorix” asarida keltirilishicha, Umarxon ushtirgan “majlislarda Umar Xayom ruboyilari va Xoja Hofiz Sheroziy baytlaridan o’qilardi. Amir ayniqsa, Umar Xayyomning ruboiylarini ko’p tilga olardi”<sup>148</sup>.

Shuningdek, Amir Umarxon o’zi hurmat qilgan shoirlardan sharqiy turkistonlik Shayh Zaliliy Qashqariyning uch g’azaliga taxmis bog’lagan\*.

Umarxon davrida Gulxaniy, Mahmur, Fazliy, Foziy kabi ko’plab iste’dodli shoirlar ijod qilishgan.

Amir Umarxon zamonasida yashab ijod etgan ajoyib shoir farg’onalik Muhammad Sharif Gulxaniydir. U 1770-yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug’ilgan. Boshlang’ich ta’limni qishlog’ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib, mardikorlik qilgan. Keyinchalik Qo’qonda istiqomat qilgan. Bu erda hammolda go’laq (o’t yoquvchi) bo’lib ishlaydi. Shu boisdan Gulxaniy taxallusi bilan ijod qilgan<sup>150</sup>.

Gulxaniyning hayoti va ijodi haqida Fazliy Namangoniyni “Majmuat ush-shuaro”, Qori Rahmatillo Vozex Buxoriyning “Tuhfat ul-ahbob fi taskirat ul-asqob”, Avaz Muhammad Attorning “Tarixi jahonnomayi” asarida, muallifni noma’lum bo’lgan “Tarixi Qo’qond” asarida ma’lumot berilgan<sup>151</sup>.

Gulxaniy Qo’qon xoni Olimxon (1800 – 1810) saroyida navkar bo’lib va urushlarda qatnashib, botirlik namunasini ko’rsatgan. U mustaqil mutoala yo’li bilan ko’p taxsil oladi. Umarxon saltanati davrida saroy shoirlari davrasiga jalb qilingan. Iste’dodli o’zbek shoiri Gulxaniy o’zbek poezisiyasiga masal janrini olib kirgan shoir. U mehnatkash omma ruxini ifodalovchi she’rlar yozgan. O’zbek va tojik tillarida “Gulxaniy”, “Jur’at” tahalluslari bilan ijod qilgan. Uning xalq orasida eng mashhur va bizgacha yetib kelgan asari “Zarbulmasal” dir (“Yapaloqqush hikoyasi”). Asardagi “Maymun va Najjor”, “Tuya bilan Bo’taloq”, “Toshbaqa bilan Chayon” kabi masallari chuqur axloqiy-ta’limiy ahamiyatga ega. Asardagi Yapaloqqush va Boyo’g’li, Ko’rqush va Hudhud, Kulonkir sulton va Malik

<sup>148</sup> Мухаммадхакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 452.

\* O’tgan asrning yetmishinchi yillarida zo’r jasorat bilan chop etilgan Amiriy devonida Zaliliyning “Bor” radifli g’azaliga bir taxmisi berilgan edi.

<sup>150</sup> Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. –Б. 266-267.

<sup>151</sup> Қаюмов А. Қўқон адабий мухити. – Тошкент, 1961. –Б. 304.

shohinlarning o'zaro murakkab munosabatlari asosida o'z davri ijtimoiy hayotining haqiqiy manzarasini tanqidiy ifodalab beradi.

Qori Raxmatillo Vozeh Gulxaniyning she'r va qasidalar devoni borligini aytgan, lekin u hozirgacha topilmadi. Gulxaniyning 12 g'azali va bir qasidasi Fazliy Namangoniy tazkirasi orqali yetib kelgan. Bular "Achchishmiman" ("Ko'zimdan"), "Ey to'ti", "Angusht" ("Barmoq") radifi hamda "Lola ko'ksidek bag'rim taqbataq qaro qonlar", "Termamish may tobidan gulbari ruhsorim ko'ring" misralari bilan boshlangan g'azallari va boshqalardir. Ulardagi ayrim g'azallar Umarxon she'rlariga taskiradir<sup>152</sup>.

Gulxaniy o'z asrlarini o'zbek va tojik tillarida yozadi. U xalqchil shoir bo'lgan va o'z she'rlarida xalq noroziligini aks ettirgan.

O'zbek klassik pozitsiyasining oltin fondiga o'zining munosib hissasini qo'shgan talantli shoirlardan biri Mahmur (asil ismi Mahmud, XVIII asr oxiri – 1844) Umarxon saroyida xizmat qilgan taniqli olim va shoir Akmal degan kishining o'g'li bo'lgan<sup>153</sup>. Shoir Fazliy uni "nazmni egallagan zo'r shoir", "yaxshi so'z ustalaridan biri", deb ta'riflagan. Qo'qondagi "Madrasai Mir"da tahsil ko'rgan. Umarxon qo'shinida sipohlik qilgan. Mahmur yoshligidan she'riyatga havas qo'yib, Sa'diy, Hofiz, Jomiy, Navoiy merosini chuqur o'rgangan.

Iqtisodiy muxtojlikda kun kechirgan. Mahmur oilasining och-yalang'ochligi, hatto bolalarining ba'zan eyishga noni yo'qligini alam bilan yozadi. U xalq tomonida turib, uning dushmanlarini ayovsiz xajv etadi. Saroy shoirlari Mahmurni kamsitishga urunganlar. Mahmur ularning laganbardorligi, ochko'zliklarini fosh etadi. Bu saroy adabiyoti bilan demokratik yo'nalishdagi adabiyot orasidagi kurash ifodasidir. Shoir o'zining ilg'or qarashlarini ifodalash uchun klassik she'riy shakllar (g'azal, qasida, muhammas)dan o'rinli foydalanadi<sup>154</sup>.

Mahmur o'z asarlarida xalqning g'oyatda ayanchli turmushini, mamlakatdagi vayronagarchilikni, kuchayib borayotgan ijtimoiy tengsizligini ifodalaydi. O'z zamonasi ziddiyatlarini umulashtirish, "shiru-shakar" (o'zbek va

<sup>152</sup> Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. –Б. 268-272.

<sup>153</sup> Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. –Б. 162-164.

<sup>154</sup> Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. –Б. 292-293.

tojik tillarida) uslubida yozgan “Munojat ba dargohi qoziulho’jat” muhammasida saroy maddohlari “dorul omon” deb maqtagan Qo’qon xonligidagi tengsizlik, adolatsizlik, zulmni fosh etadi. Shoir zamonani qoralab, zulmga nisbatan keskin norozilik bildirsa ham, lekin undan qutilish yo’lini topolmaydi.

Mahmurning hajviy she`rlar devoni saqlangan va unda 69 asar (3417 misra) to’plangan. Uning “Hapalak”, “Ta`rifi viloyati Qurama” kabi she`rlari mashhur.

“Hapalak”, “Tarifi viloyati Qurama” kabi she`rlarida shu nomdagi qishloqning vayrona manzarasi (shoirning oilasi shu erlik bo’lgan), undagi aholining ayanchli turmushi real tasvirlangan. O’rta Osiyo qishloqlarining tipik manzarasi aks ettirilgan. Mahmur lirik she`rlarida real hayot nafosatini, jismoniy muhabbatni kuylagan go’zal ma`shuqa obrazini yaratgan. Hofiz, Jomiy, Soib Tabriziy g’azallariga muhammaslar bog’lagan shoirning o’zbek va tojik tillarida yaratgan asarlari badiiy jihatdan barkamoldir.

Mahmurning hajviy she`rlar devoni saqlangan, unda 69 asar (3417 misra) to’plangan, lirik asarlari esa yozma adabiyotlarga uchraydi. Uning ijodi XIX asrning birinchi yarmi o’zbek adabiyotida demokratik yo’nalishning kuchayishiga, tanqidiy realizm oqimi asoslanishiga katta hissa bo’lib qo’shildi va Muqumiy, Zavqiy, Avaz O’tar singari demokratik shoirlar ijodiga barakali ta`sir ko’rsatdi<sup>155</sup>.

Xalqchil shoir Mahmur xalqqa zo’r muxabbat bilan qaraydi. Yangi solingan soliq va to’lovlarni eshitgan Xapalak qishlog’ining aholisini qishloqni tashlab ko’chib ketayotganliklarini shunday tasvirlaydi:

Kecha go’yo eshitib shuhrati tillo pulini,

Xapalak qo’rqusidan uchdi misoli kapalak....

Mahmur hech qachon mavjud tuzimni ag’darib tashlashga chaqirgan emas, ammo feodal jamiyatidagi illatlarga, zo’ravonlik va adolatsizlikka qarshi turib, hamisha ommaning tarafida turdi va kuyladi<sup>156</sup>.

Abdulkarim Fazliy Namangoniy (XVIII asr – XIX asrning boshi) – tarixchi, adabiyotshunos. Fazliy Namongoniy XVIII asrning ikkinchi yarimida Namangan

<sup>155</sup> Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи..... – Б. 294-296.

<sup>156</sup> Қаюмов А. Қўқон адабий мухити. – Тошкент, 1961. –Б. 179-180.



shahrining Anorzor mahallasida tug'ilgan. Otadan bevaqt yetim qolib, ona tarbiyasida o'sgan Fazliy mahallasida savodini chiqargan, o'z davrining bilimdoni muallimi va shoiri Zokir hojida tahsil ko'rdi.

Yoshligidan boshlab she'riyatga havas qo'ygan va o'zi ham she'rlar yoza boshlagan Fazliy g'azallarining avji Qo'qon xoni Amir Umarxonga ham yetib bordi. Xon uni Qo'qonga chaqirtirdi va saroyda xizmat qilishiga taklif qildi.

Fazliy o'z iste'dodini va zakovoti bilan tanilib, saroyda peshqadam shoirlardan biri bo'lib etishdi. "Shohomai nusrat payom" asarining muallifi, tarixchi Mushrifning yozishicha u "malikush shuarolik" darajasiga ko'tarilgan.

Fazliy Umarxon saroyidan ikki marta haydalgan, degan rivoyatlar bor. Uning sabablari noma'lum. Ehtimol, unga nisbatan qilingan hasadgo'ylik ig'vosidan yoxud o'tkir tili, qaysarligi va hozirjavoblighi sabab bo'lgandir. U Umarxon vafotidan so'ng Namanganga qaytib kelgan va umrining oxirigacha shu yerda otasidan qolgan bog' xovlida yashagan. Fazliy Labbaytog'a dahmasida dafn etilgan. U o'zbek va tojik tillarida yozgan she'rlarini jamlab, devon xoliga keltirgan. Lekin bu devonning taqdiri hozirgacha noma'lum. Uni kimlardir qatag'on yillarida qarindoshlaridan biri orqali Tojikistonga olib ketgan.

Fazliy ijodida o'zbek va tojik adabiyotining eng yaxshi an'analari saqlanib qolgan bo'lib, uning she'rlarini o'zbek klassik adabiyotining go'zal namunalaridandir. Mehr – muxabbat, hijron va insoniy tuyg'ularini kuylagan shoir she'rlari o'zining ravonligi va musiqaviyligi, dilrabolighi bilan ajralib turadi.

Fazliy umrining asosiy qismini Qoqon shahrida o'tkazgan. Qo'qon xonligida yashagan shoirlar haqida "Majmuat ush-shuaro" qo'lyozma asarini yozgan. Umarxonni topshirig'iga binoan "Shohnoma" ("Umarnoma", "Zafarioma")ni yozgan. Bu Umarxon davriga oid she'riy (5000 baytdan ko'proq) tarixiy asar bo'lib, 1821-yil may oyida tamomlangan. Ilm ahli hanuzgacha Fazliy ijodiga xolisona baho berib, qadrlab uning "majmuai shoiron"idan samarali foydalanib kelmoqdalar.

Nodir (1743-yil tug'ilgan) – o'zbek shoiri. Qo'qon xonlari Umarxon va Muhammad Alixonlar hukmronligi davrida saroyda xizmat qilgan. Shoirning "Haft

gulshan” dostoni mashhur bo’lib, u fors, arab tillarini mukammal darajada bilgan, xattotlik bilan ham shug’ullangan<sup>157</sup>.

Umarxon davrida ayol shoiralarga bo’lgan etibor Qo’qon xonligi nafaqat Qo’qon xonligi balki butun Osiyo hududida tarixida uncha kutilmagan darajaga yetdi. Bunga asosiy sabab Umarxonning she’riyatga oshuftaligi va albatta “Amiriy” taxallusi bilan Amir Umarxonning ham ijod qilib turishi edi.

Umarxon rafiqasi Nodira saroyiga xonlikning turli chekkalaridan iste’dodli qiz va juvonlarni keltirib, uni doim xushnid qilgan. Shoirlar ijod qilishlari uchun saroyda juda yaxshi sharoit yaratib berilgan. Saroyda kutubxona bo’lib, shoirlar ham bu kutubxonadagi kitoblardan bemalol foydalanishlari mumkin bo’lgan, bu esa ularni yanada kuchli ijod qilishlariga turtki bo’lib xizmat qilgan.

Amir Umarxon mamlakatdagi ayollar nufuzini oshirish uchun turli tadbirlar o’tkazgan. Shoira, olim qizlarni qo’llab-quvvatlagan, ular ijodiga shahsan o’zi qiziqib, o’z bahosini bergan.

Bu davrda Dilshod (1801-1905/06), Mahzuna (XIX asr), Uvaysiy (1771 – 1845), Zinnat, Samdaboku, Xayriniso, Fazilatbonu va boshqa ko’plab shoirlar Nodira saroyida yig’ilib turli mashfaratlar o’tkazib, bir-birlarini ijod namunalaridan bahramand bo’lib turishgan.

O’zbek shoirasi, ma’rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim – Nodira (1792 – 1842) Andijonda tug’ilgan. Otasi Rahmonqulbiy Andijon hokimi bo’lib, Qo’qon xoni Olimxonning tog’asi edi<sup>158</sup>.

Umarxon Maig’ilonga hokim etib tayinlanganidan keyin 1808-yilda Nodiraga uylangan. Nodira Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarni o’qitish uchun muallimlikka taklif etadi. Nodira 14 yoshli o’g’li Muhammad Alixon taxtga o’tiigach, davlatni idora etishda faol ishtirok etgan. 1842-yil Buxoro amiri Nasrullo Qoqonni bosib olganidan so’ng, Nodira va uning o’gillari Muhammad Alixon, Sulton Muhammadxon, Muhammad Alixonning o’gli Muhammadaminxon va rafiqasi Oyshabibi va ko’plab insonlarni qatl ettiradi.

<sup>157</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи..... – Б. 158.

<sup>158</sup> Нодира. Девон. – Т.: Фан, 1963. – Б. 20.

\* Ba’zi ma’lumotlarda 1807-yil.

Keyinchalik, Nodira va uning o'g'illarining jasadini Qoqon xoni bo'lgan Sheralixon topib, Qo'qondagi Dahmai shohonga dafn ettirgan<sup>159</sup>.

Nodira bir necha kitoblarni ko'chirtiradi va shoirlarni yangi-yangi devonlar, asarlar, dostonlar yozishga tashviq qiladi. Devonlarning chiroyli yozilishi, muqovasining bezatilishini shoira o'zi ko'zdan kechirib turadi. U yaxshi ishlagan kotiblarga tilla qalam, kumush qalamdon berib, ularni "Zarrin qalam"lik mansabiga ko'taradi<sup>160</sup>.

Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillarida ijod qilgan. Mohlaroyim Nodira taxallusida 180 she'r jamlangan devon, Komila taxallusida 19 g'azal, Maknuna taxallusida 333 g'azaldan iborat devon yozgan. Nodiradan 10 ming misraga yaqin lirik adabiy meros qolgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fig'onlari kuylanadi<sup>161</sup>.

Nodiraning devoni Qo'qon qog'oziga nastaliq xatida yozilgan bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik Instituti Qo'lyozmalar fondida №4180-raqam bilan saqlanadi<sup>162</sup>. Shuningdek, bugungi kunda Nodirabegimning Nodira, Maknuna, Komila tahallullarida o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan sherlari ham topib o'rganilmoqda.

Bundan tashqari, Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muhammaslar ham yozgan.

Dilshod (1801 – 1905/06) – demokratik, ma`rifatparvar tojik shoirasi. Uni o'zbek shoirasi deb ham aytish mumkin, chunki u 17 yoshida asirga tushib O'ratepadan Qo'qonga olib kelinadi. Bu yerda o'zbek yigitiga turmushga chiqib, umrining ohirigacha shu yerda yangidan o'zbek tilida ko'plab g'azallar yozadi. Dilshod o'z ijodida jamoatchilik fikrini bayon etadi, hayotining turli tomonini olib beradi. Uning tojik va o'zbek tillarida yozilgan asarlari bir-birini to'ldiradi va boyitadi. Ularni bir-biridan ustun qo'ygan, chunki shoira bu tillarni mukammal bilganligi tufayli ikkala tilda ham chuqur, mazmunli asar yozad. Dilshod o'zining

<sup>159</sup> Нодира. Девон. – Т.: Фан, 1963. – Б.44-45.

<sup>160</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи..... – Б. 170.

<sup>161</sup> Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. –Б. 318-319.

<sup>162</sup> Нодира. Девон.... – Б.10.

she`r va g`azallarida hukmron sinfning yuqori tabaqalarini, feodal va feodallarning tanqid qiladi. Ma`naviy tushkunlikni, tekinoxor va bezorilikni qoralaydi.

Dilshod Umarxon bilan uchrashganini quyidagicha bayon etadi: “Meni yasantirganjay kiyintirib, qandaydir xonaga olib kirishadi. U yerda chapon va sallalik amir o`tirar edi. Oldida qora stol, uning ustida suv, pichoq va bir dona anor bor edi. Xon baland bo`yli, qora ko`zlik, qora saqolli va ochiq yuzli bo`lib salobatli ko`rinardi. Mening salomimdan keyin men bilan hushmuomalik bilan suhbatlashdi”.

Dilshodning hayoti haqidagi ma`lumotlarni uning o`z asarlarida va qo`qonlik shoir Sulaymon Rojiyning “Muxtasar ul-ash`ori Dilshod” kitobida saqlangan. Uning otasi ham shoir bo`lib, u qatl etilgan. Dilshod unda juda yosh edi, onasidan ham erta judo bo`lib (1814) buvisi qo`lida tarbiyalangan. Uni 17 yoshida (1818) Umarxon sarbozlari Qo`qonga asir qilib olib ketgan. Biroq Dilshod to`griso`zligi, tanqidchiligi tufayli Umarxon saroyidan xaydaladi, keyin Toshmahmud degan imomga turmushga chiqadi. Shoiraning qaynonasi ma`rifatli, bilimdon ayol bo`lib maktabdorlik qilardi.

Dilshod ham qaynonasining yo`lidan borib, muallimalik qilardi. Dilshod talabalari orasida Anbar otinga alohida e`tibor bergan. Dilshod adabiyotga erta kirib kelgan. Barno va Dilshod tahalluslari bilan o`zbek va tojik tillarida she`rlar yozgan. Shoira g`azal, muhammas, musaddas, badiiy xotiranomalar, bir necha doston yaratgan. Uning asarlarida real tarixiy xodisalar, xalq hayoti va turmushi haqida fikr yuritilgan. Shoira juda iste`dodli edi. Lekin uning ozodlik va to`g`riso`zlikka bo`lgan intilishi uni fitna to`la saroydan (garchi bu saroyda Umarxon, Nodira kabi javohirlar bo`lsa ham) oddiy qishloq hayoti, ayollarni ilimli qilish yodini ustun qo`yadi. Dilshod Qo`qonda maktab ham ochgan.

Maxzuna Mehribon mulla Boshmon qizi (XIX asr) – o`zbek shoirasi. Uning hayoti va faoliyati haqida to`la ma`lumot yo`q. Fazliyning “Majmuat ush-shuaro” asarida Mahzuna haqida bunday deyilgan: “U aqlu idrokda Zebinisodek yagona bo`lib, Qo`qonning mashhur shoiralaridandir. Bu oq yuzlining taxallusi Mahzuna

bo'lib... Men notovon turli o'y-fikrlar bilan unga qanday g'azallar yubormayin – ul pari chehra menga har baytinga gavhardek pok javoblar qaytarar edi”<sup>163</sup>.

Jahon otin – taxallusi Uvaysiy (1780 – 1841). Uvaysiyning tug'ilgan yili haqida turli xil ma'lumotlar bor. Yo'lchi Qosimov Uvaysiyning 1780-yili tug'ilgan deb yozilgan bo'lsa, Bobobekov esa Uvaysiyning tug'ilgan yilini 1771-yil deb yozilgan. Uning asl ismi Jahonbibidir. U Marg'ilon shahrining Childuxtaron mahallasida tug'ilgan. Uvaysiy oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalaridan edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oiladagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqardi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz va Jomiy ijodlarini qunt bilan o'rgandi.

Amir Umarxon Marg'ilon hokimi bo'lib turgan yillarda (1806 – 1807) Uvaysiy el orasida tanilgan shoira edi. Undagi shoiralik iste'dodi Umarxonning xotini Nodirani o'ziga rom etgan. Umarxon Qo'qon taxtiga o'tirgach, Uvaysiy Qo'qonga taklif etilgan. Bu yerda u juda ko'p yoshlarga murabbiylik qilgan. Nodira bilan ijodiy hamkorligi qaror topgan. Uvaysiy o'z davrining peshqadam shoirasi bo'lib, uning g'azallarida lirik qahramon iffatli, badiiy jixatdan etuk, sabrli va vafodor ayoldir. Uvaysiy ayniqsa aruziy, muammo san'atini mukammal egallagan. Dilshodning ma'lumot berishicha, Uvaysiy Nodira bilan Konibodom, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarga borgan. 1842-yilda Buxoro amiri Nasrullo Qo'qonni ishg'ol qilgach, Uvaysiy Marg'ilonga qaytib, umrining oxirigachashu yerda yashagan.

Uning ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Uvaysiyning adabiy merosida 269 g'azal, 29 muxammas, 3 doston va boshqalar bor. Asarlarida insonni e'zozlash, do'stlik, vafo, sadoqat g'oyalari, el-yurt dardi, xalq hasrati kuylanadi. Shoira ijodining g'oyaviy doirasi teran va ko'p qirralidir<sup>164</sup>. Uning asarlarida hukmron feodallar erk va huquqlaridan mahrum qilingan ayollarning fig'oni aks etgan. Xususan, “Anor” chistonida davrning ijtimoiy voqealari, ayollar tutqunligi mohirona ochilgan:

<sup>163</sup> Каюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. –Б. 235-240.

<sup>164</sup> Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. –Б. 330-333.

Bu na gumbaidir, eshigi, tuynigidan yo ‘q nishon,  
 Necha gulgun pok qizlar maniil aylabdur makon.  
 Tuynigin ochib, alarning holidan olsam xabar,  
 Yuzlarida parda tortug’liq tururlar, bag’ri qon.

Shunday qilib, shoira Uvaysiyning she`rlari chuqur ijtimoiy mazmunga ega bo’lgan. U insonning ruhiy olamini, tabiat jamolini, do’stlik va sevgini tarannum etdi<sup>165</sup>.

Nozuk Xonim (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) – o’zbek shoirasi. Yoshligidanoq she`r yozishni mashq qilgan. Asarlarida ishq-muhabbatni kuylagan, “zolimlarga qarshi nafrat hislarini” bayon etgan. Ibrohim Davronning “Ash`ori nisvon” nomli tazkirasiga shoiraning “Fasona”, “Rext gul” va “G’azal afsona” deb ataluvchi she`rlari kiritilgan<sup>166</sup>.

Amir Umarxon davrida Qo’qonda tarixnavislik sezilarli ravijda o’sib borishini ko’ramiz.

Bu davrda yozilgan bir necha tarixiy asarlar fors va arab tillaridan o’zbek tiliga tarjima qilindi va Qo’qon xonligin ing shu davriga oid yangi kitoblar yozildi. Bu yangi asarlarning o’ziga xos xususiyatlari ham bor edi – ularning ayrimlari she`riy yoki qisman she`riy yo’lda yozilgan edi. Bu esa qo’qonlik tarixchilarning adabiyotni yaxshi bilibgina qolmay, o’zlari ham she`riyatda qalam tebratganliklarini ko’rsatadi. Ayrimlari esa o’z davrini mashhur shoirlaridan bo’lgan. Ayrim mualliflar asli Qo’qonlik bo’lishmasa ham, ammo ko’p vaqt Umarxon saroyida yashab shu yerda o’z asarlarini yozganlar.

Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy – tarixchi va shoir. U Isfara shahrida tug’ilib, Umarxon hukmronlik qilgan davrda Qo’qon shahriga ko’chib kelgan. Mushrif Umarxon saroyida qozi askar lavozimida xizmat qiladi. Umarxonning buyrug’iga binoan Mirzo Qalandar Mushrif Isfaragiy Fazliy Namangoniyning “Zafarnoma” asarini nasriy qilib yozadi. Bu asarning nomi “Shohnomai Umarxon” bo’lib, xonning vafotidan keyin yozib tugatiladi. Asar she`riy yo’l

<sup>165</sup> Қаюмов А. Қўқон адабий мухити. – Тошкент, 1961. –Б. 242-248.

<sup>166</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи..... – Б. 172.

bilan yozilgan “Umarnoma” (Avaz Muhammad Attorning “Tuhfat at-tavorixi xoni” asarida shunday nomlangan) asariga asoslangan holda yozilgan, chunki muallif Fazliydan ko’plab misollar keltiradi. Asarda juda ko’p qimmatli ma’lumotlar keltirilgan<sup>167</sup>.

Mullo Niyoz Muhammad Xo’qandiy – 1802 – 1803-yillar oralig’ida Qo’qonda harbiylar oilasida tug’ilgan. U harbiy xizmatni taxminan XIX asrning boshida tashlab Qo’qonda o’z mahallasida yashay boshladi. Shu yerda o’zining “Tarixiy Shohruxiy” nomli asarini yozdi. Uning “Tarixiy Shohruxiy” kitobi 1885-yili N. Pantusov tomonidan chop ettirilgan. Bu asar Xudoyorxonning topshiriq’iga asosan yozilgan bo’lib, Shohruhbiy davridan to 1872-yilgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi.

Avaz Muhammad Attor Ho’qandiy (XVIII asr oxiri – XIX asrning 70-yillari) – o’zbek tarixchisi. U “Tarixi jahonnomai” (“Tuhfat at-tavorixi xoni” nomi bilan ham mashhur) asarini yozgan. Avaz Muhammad umrining oxirigacha tabiblik va xattotlik bilan ham mashg’ul bo’lgan. Bizgacha hind tabibi Muhammad Arzaning Avaz Muhammad qo’li bilan ko’chirilgan “Mafriz al-qulib” nomli asarining nusxasi yetib kelgan.

“Tarixi jahonnomai” sharqona usulda yozilgan asardir. Unda “debocha”dan keyin xonlariing shajarasi berilgan. Qo’qon xonligi tarixi batafsil yozilgan.

Shuni eslatib o’tish joizki, asarning kirish qismida muallif ushbu asarini 1822-yil may oxirida boshlagani haqida yozadi. Asarda Umarxonning o’lgani haqida tarix keltiradi (17 rab’i ul-avval 1238/2- dekabr’ 1822-yil). Ammo kimdir uni ustidan tuzatib; 7 rab’i ul-soni 1237 (1822-yil 2-fevral’) -yil deb yozib qo’ygan. Bu tuzatish juda to’g’ri qilingan. Chunki Muhammad Alixonning taxtga o’tirishini Mushrif 14 rab’i ul-soni 1237 (1822-yil 9-yanvar’)-yil deb to’g’ri yozadi. “Muntaxab at-tavorix” nomli qo’lyozma asarning muallifi Hakimxonto’ra Umarxon vafotini 18 rab’i us-soni 1237-yil deb yozadi va dafn marosimida qatnashganligini aytadi<sup>168</sup>.

<sup>167</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи..... – Б. 174

<sup>168</sup> Бобобеков Х. Қўқон тарихи..... – Б. 174

Shavqiy Namangoniy (1805 – 1889) – o‘zbek tarixchisi va shoiri. “Jome’ ul-xavodis”, “Tarixi Xo‘qand”, “Pandnomai Xudoyorxon” kabi tarixiy dostonlari Xudoyorxon davridagi ijtimoiy, siyosiy voqealarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishda ahamiyatlidir. 1805-yilda hozirgi Namangan viloyati To‘rao‘rg‘on tumaniga qarashli Kalvak qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. Dastlabki ma‘lumotni otasi Mulla Hasandan o‘rgangan Shavqiy shu tumanga qarashli Shahand qishlog‘idagi madrasada o‘qigan<sup>169</sup>. U madrasani tugatgach o‘z qishlog‘iga qaytadi. Sababi otasi vafot etib, tirikchilik g‘amida bo‘z to‘qib oilani boqadi. Muhammad Alixon shoir Shavqiy she‘rlaridan xabar topgach, uni huzuriga chorlab Asaka yaqinidagi Kulla degan joyning qozisiga mirza etib, ishga tayinlatdiradi. Xonlikda toju-taxt uchun kurash va o‘zaro urushlar boshlanib ketgach, u yana o‘z qishlog‘iga qaytadi. Keyinchalik Namanganga kelib, ijodiy ish bilan shug‘ullanadi. Shavqiy o‘z ijodi davomida 10 ming misradan ortiq she‘riy misralarni meros qoldirgan. Uning “Pandnomai Xudoyorxon” va “Jome’ ul Havodis” degan dostonlari, “Qo‘qon voqeasining tarixi” nomli asarlari ma‘lum. Ilg‘or fikrli shoir Shavqiyning odob va ahloqiy qarashlari uning she‘rlarida o‘z ifodasini topgan<sup>170</sup>.

Muhammad Hakimxonto‘ra (1802-yilda tug‘ilgan) – Qo‘qon xoni Norbo‘tabiyning nabirasi, Olimxon va Umarxonlarning jiyani. Muhammad Hakixonto‘raning otasi Ma‘sumxonto‘ra Olimxon va Umarxonlarning singlisi Oftoboyimga uylangan edi<sup>171</sup>.

Qo‘qon xoni Muhammad Alixon Muhammad Hakimxonto‘rani avval To‘rao‘rg‘onga, so‘ng Namangan va Kosonga hokim etib tayinlaydi. Keyinchalik esa, o‘ziga nisbatan xiyonatda ayblab, Qo‘qon xonligidan quvg‘in qilgan. Muhammad Hakimxonto‘ra O‘rta Osiyo xonliklaridan tashqari, Afg‘oniston, Eron, Misr va boshqa arab mamlakatlarida bo‘lgan va umrining oxirida ko‘rgan-kechirganlari asosida “Muntaxab at-tavorix” (“Tarixlar to‘plami”) asarini

<sup>169</sup> Қосимов Ё. Наманган тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 32

<sup>170</sup> Қаюмов А. П. Қўқон адабий муҳити.–Т.: Ўзб. Фан. Акад., 1961.– Б. 55-56.

<sup>171</sup> Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих.... – Б. 7.



yozgan<sup>172</sup>. Bu asar Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixini o'rganishda muhim manbadir.

Hakimxonto'raning "Muntaxab at-tavorix" nomli asari o'zining janri bo'yicha o'ziga xos janrli bo'lib, jahon tarixi, lokal (mahalliy) tarix va memuarlikni mujassamlashtirgan. Asar rejasiga ko'ra tirik jahon tarixidir. Ammo uning hajmi va ahamiyatiga qarab, mazmunan O'rta Osiyo tarixiga oid bo'lganligi tufayli birinchi navbatda unga lokal (mahalliy) tarix sifatida qarash mumkin. "Muntaxab at-tavorix"ning o'zbek va fors tillaridagi variantlari mavjud. Unda payg'ambarlar haqidagi rivoyatlar, qadimiy eron, Arab xalifaligi, somoniylar, saljuqiylar, xorazmshohlar, mo'g'ullar, temuriylar va bobu-riylar davri tarixidan qisqacha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Buxoro va Qo'qon xonliklarining tashkil topishidan boshlab XIX asrning 40-yillarigacha bo'lgan tarixi to'liqroq tasvirlangan.

Asarda muallifning Rossiya, arab mamlakatlari va Eronga qilgan sayohatlari natijasida olgan taassurotlari va shu jumladan mazkur mamlakatlar xalqlarining turmushi, urf-odatlariga oid ma'lumotlar ham o'rin olgan.

XIX asrda O'rta Osiyodagi mavj Mullo Ali Qori Qunduziy (1786 – 1857) – asli qunduzlik bo'lsa-da Qo'qon xonligida yashab, ijod qilgan. "Tavorixi manzuma" va "Hol ul-Faroid" asarlarini yozgan. "Tavorixi manzuma" Qo'qon – Xitoy munosabatlarini yoritganligi bilan ham e'tiborlidir.

Amir Umarxon hukmronligi davrida kitob yozish ham rivoj topgan. Umarxon hukmronligi davrida Navoiyning eng go'zal devonlari ko'chirib yozilagan. Ularning eng nodir nusxalaridan biri (№2223/1) O'zRFA Sharqshunolik institutida saqlanadi. Shuningdek, bu davrda Lutfiy, Navoiy, amir Umarxonlarning devonlaridan iborat "Muhabbatnoma" degan bir majmua maxsus chiroyli bezaklar bilan bezatilib, go'zal xat bilan ko'chirilib tuzilgan. Bu majmuani Umarxon Turkiya sultoniga sovg'a sifatida yuborgan. Xuddi shi tarzda Bedil devoni ham Turkiyaga hadya tarzda yuborilgan<sup>173</sup>.

<sup>172</sup> Энвер Хуршут. Амир Умархоннинг канизи // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. – №9. – Б. 174-175.

<sup>173</sup> Каюмов А. П. Қўкон адабий муҳити.–Т.: Ўзб. Фан. Акад., 1961.– Б.36.

Amir Umarxon davrida Qoqon xonligida ilm-fan taraqqiy etdi, “Qo’qon adabiy muhiti” shakllandi. Madrasalarda o’qish-o’qitish ishlari yaxshilandi. Bu davrda Qo’qon shahri faqat xonlik poytahtigina emas, balki madaniy markaz ham hisoblanib o’ziga xos adabiy muhit yaratgan shahar edi. Olim-u, ulamolar, shoir va tarixchilar yig’ilishib turli anjumanlar o’tkazishib, tarixiy asarlarni muhokama qilishar va kelajak avlod uchun turli xil tarixiy asarlar yozishar edi. Bu ishlarning barchasiga ilm-fan va madaniyat peshvosi, xon va shoir Amir Umarxon boshchilik qilardi.

### **3.2. Umarxon hukmronligi davrida me’morchilik va vaqf mulklariga berilgan e’tibor**

Umarxon hukmronligi davrida me’morchilikka ham katta e’tibor berilgan. Umarxon hukmronligi davrida poytaht Qo’qon shahri O’rta Osiyoning yirik markazlaridan biriga aylangan. Go’zal va mahobatli saroylar, turli inshootlar qurilgan.

Umarxon hukmronligi davrida Qo’qon saroyi va qabul marosimi xaqida 1813 – 1814-yillarda Qo’qon shahrida bo’lgan Rossiya elchisi Flipp Nazarov ma’lumotlari e’tiborga loyiq. Filipp Nazarov xon saroyini ko’rganligini, Umarxon uni qabul qilganligini quyidagicha yozadi: “Saroyga chamasini 150 sajen yetmasdan bizni otdan tushishimizni buyirishdi va ko’rkam, xashamatli saroy ostonalari gacha kazaklarimiz bilan birga piyoda bordik. Bu yerda biz haqimizda habar berishguncha yarim soatcha turdik. Bizni ko’rish uchun tomoshabinlar shunchalik ko’payib ketdiki, ular daraxt, devor va tomlarga ham chiqib olishdi. Saroy oldida ko’plab martirlar va lafetsiz pushkalar, to’plar qo’yilganini ko’rdik. Imperator oliy hazratimizning yorliqlarini va davlat kanslerimizning tarjima xolini ikki qo’lim bilan boshimga ushlaganimcha, ikki bilagimdan ushlab xon qabulxonasiga meni olib kirdilar. U zinopoyali taxtda o’tirardi. Ko’rinishidan 25 yoshga kirganga o’xshaydi (Umarxon o’sha paytda 28 yoshda edi), xitoy ipagidan oltin yaltiroq to’n kiygan edi, boshida oltin bilan bezatilgan sallasi bor edi. Umarxon mening qo’limdan yorliqni va tarjima xolni olib yonida turgan vaziriga berdi. Keyin

taxtidan turib menga qo'lini uzatdi. Men uni qo'lini, odat bo'yicha ikki qo'lim bilan qisib qo'yishim kerak edi"<sup>174</sup>. Elchi xon saroyida qimmatbaho gilamda xon xovlisida Qozoq, Xitoy, Xiva, Buxoro va Eron elchilari bilan o'tirganini, sandiqlarda keltirilgan sovg'a-salomlari va maktubini Umarxon mamnuniyat bilan qabul qilganini yozib qoldiradi. Umarxon o'sha kun barcha elchilarga va saroy ahliga ziyofat beradi. Elchi bu yerda oshni – guruchni qizil bo'yoqqa bo'yalgan deb xotirlaydi. Lekin guruchning rangi qizil bo'yoqdan emas, aslida uning tayyorlanish usulidan edi. Amir Umarxon ham elchilarga turli-tuman qimmatbaho sovg'alar berib, maktublar bitib jo'natib yuboradi.

Umarxon davrida barpo etilgan inshootlar orasida Qo'qon shahrida qurilgan Jome masjidi mashhurdir. Jome` masjidi – me'moriy yodgorlik bo`lib, ham masjid, ham madrasa sifatida qurilgan bo`lib, unda 100 ga yaqin hujralari mavjud bo`lgan. Qo`lyozma va arxiv manbalariga qaraganda, machitning qurilishini Olimxon (1801 – 1810) boshlab qo`ygan edi. Uning farmoni bilan joy belgilanib, g'ishtlari ham olib kelingan. Ammo Olimxon o`ldirilgandan keyin g'ishtlar eski o`rdaning ta`mirlanishiga ishlatib yuborilgan. Umarxonning buyrug'iga binoan 1817/18-yilda yana o`sha joyga Masjidi Jome` quriladi. Jome` masjidining oldida 1852- yili g'ishtdan minora qurilgan. 1857- yili Xudoyorxonning farmoniga binoan, 1905 – 1907-yillarda xashar yo'li bilan masjid ta`mirlangan. Jome` masjidi va madrasasi Rossiya imperiyasi va Sovet tuzumi davrida buzila boshladi, omborga aylantirildi, bezaklarning rangi o`chdi. Qo`qon aholisining talabiga muvofiq, Jome` masjidi 1982- yili yana qaytadan ta`mirlangan<sup>175</sup>. Mustaqillik yillarida Jome` masjidi davlat muxofazasiga olindi. 2011-yilda masjidda keng qamrovli ta'mirlash ishlari amalga oshirildi<sup>176</sup>.

Umarxon davrida qurilgan Jome` masjidi ham madaniyat va san`atning yuksak namunasi hisoblanadi. Uning qurilganlik vaqti xaqida Mulla Olim Mahdum Hoji shunday yozadi: “Amir Umarxon taxtga o'tirganlarining oltinchi yilida masjidi jome` binosini boshlab, sakkizinchi yilida itmomiga yetkurubdurlar ....

<sup>174</sup>Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 52-53.

<sup>175</sup> Алихўжаев М. Қўкон маданияти тарихидан // “Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси”. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2004. – Б. 144.

<sup>176</sup> Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O'zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi. – T.: Navro'z, 2011. – B. 219.

Olimxon mundin muqaddam masjidida jome` o`rniga madrasai oliy bino qilmoq bo`lib, devorini odam bo`yi barobar ishlangandan keyin mone` ilon to`xtatib qolib Olimxondan keyin Umarxon avvalo binoni buzib, o`rniga ikkinchi marotaba masjidida jome` sharif va madrasa bino qilgan”<sup>177</sup>.

Bu haqda Mahmud Hakim Yayfoniy shunday deb yozadi: “Avval Amir Olimxon Masjidida Jome`ni ta`mir qilgan erdi. Imorat miqdor qad odam bo`lganda domla Muhammad Yoqub Oxund marxum mak` imorat mahrasini qilg`on erdi. Binobarin, sarof amvoya a`voi qilg`on vajhidin va hamma g`ishtlarni eski O`rdaga sarfi qilg`on erdi. Yana ul joyga Amir Jannatmakon (Umarxonni shunday deb atashar edi) ta`mir aylab Masjidida Jome`ni bino qildi”<sup>178</sup>.

Jome` ham masjid ham madrasa sifatida qurilgan bo`lib, unda 100 ga yaqin xujralar mavjud bo`lgan. Masjidning o`zi uch tomondan to`siq xonaqohlik ayvon bo`lib, 98 yog`och ustunga o`rnatilgan. Shu jumladan o`ntasi xonaqohning ichida. Ustunlarni ayrimlariga o`simliksimon o`ymakorlik naqshi solingan. Masjidning uzunligi 100 metrga yaqin. Old tomonining markaziy dahmada ozgina ko`tarilgan. Masjidning shifti vassa, juft usulida qurilgan ayrim joylarida xavzaklar bor. Xonaqohning oldidagi shift juda go`zal va nafis bezaklangan. Binoning bosh fasadi sharq tomonga qaragan. Masjid o`zining muhtasham hajmi (97,5X25,5 m) va bezaklarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi<sup>179</sup>. Tashqaridagi pishiq g`ishtlar pardozsiz qoldirilgan bo`lsa ham, bosh fasad va ichki qismi bezaklarning boyligi bilan ajralib turadi. Shipning lampa va to`sunlari islamiy va geometrik shakldagi turli naqshlar bilan bezatilgan. Ship bilan devorlarning tutashgan joyi muqarnas sharafalar bilan “yumshatilgan”. Devorlarga ganchkor bezaklar ishlangan, tog`ri burchakli pannolar ko`zga tashlanadi. Masjidning o`ymakor yog`och ustunlari tepasi kalla muqarnas bilan, pastsi marmar kursi bilan tugallangan. Bu esa zaminga yotqizilgan shunday material bilan o`zaro mutanosiblik hosil qiladi. Masjidning yonida qad ko`targan minora aftidan aftidan masjid bilan bir vaqtda qurilgan bo`lsa kerak. Minora kesilgan konus shaklida bo`lib, tepasi olti qirrali qafasa-tuynuk va

<sup>177</sup> Мулла Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон... – Б. 40.

<sup>178</sup> Махмуд Ҳаким Яйфоний. Хуллас ут-таворих. Қўқон шаҳар Ғ.Ғулом номидаги вилоят адабиёт музейи. – ҚП.4101.

<sup>179</sup> Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O`zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi. – T.: Navro`z, 2011. – B. 217.

gumbaz bilan tugaydi. Uning ichiga aylanma zinapoya qilingan, 22,5 metrli minoraning mahobatli ko'rinishi bezakdan xoli<sup>180</sup>.

Umarxon farmoni bilan 79 ta hujradan iborat Jomiy madrasasining to'laqonli, samarali faoliyat ko'rsatish uchun unga 30 ta do'kon va bitta hammom vaqf sifatida berilgan<sup>181</sup>.

Jome' masjidi Amir Umarxonni madaniyat va san'atga, me'morchilikka ko'p etibor berganidan, bu soxalarni gullab-yashnashiga katta hissa qo'shganidan dalolat berib turadi.

Umarxonning rafiqasi Nodira ham poytaxt Qo'qonda bozor va rastalar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar qurilishiga e'tibor beradi. Katta go'ristondagi "Madrasai Chalpak", Taqachilik rastasidagi "Mohlaroyim madrasasi", "Dahmai shohon" va "Modarixon" daxmalarini ham Nodira qurdirgan.

"Dahmai shohon" xazirasi Qo'qon xonlarining qabristonidir. Dahma qurilishi 1822-yilda Umarxon tomonidan boshlangan bo'lib, uning vafotidan so'ng qurilish xotini Nodira va og'li Muhammadalixon tomonidan 1824-yili yakunlangan. Qurilish ishlariga usta Muhammad Qozi va Muhammad Iso najjorlar boshchilik qilgan. Dahma janubga qaragan arkasimon peshtoq (9,4X11,7 m), ikki ustunli masjid va ayvondan iborat. Peshtoq geometrik shakldagi naqshlar bilan bezatilgan. Ko'proq moviy va ko'k ranglar ishlatilgan. Ikki tabaqali o'ymakor eshik, masjid ichi va shifti kompleksning turli rangdagi bezaklar ansamblini tashkil etadi. Dahmada Norbo'tabiy, Olimxon, Umarxon Sayyid Muhammad Aminxon qabrlari mavjud<sup>182</sup>.

Modarixon (xon onasi) xazirasi xon avlodiga mansub ayollar qo'yilgan. Dahma dastlab Norbo'tabiyning turmush o'rtog'i, amir Umarxonning onasi Ming Oyim nomi bilan mashur bo'gan Zuhra Oyimga atab qurilgan. Qurilish Nodirabegim buyrug'i bilan boshlanib, bosh me'mor etib usta Hasanboy gilkor tayinlanadi. Uning vafotidan so'ng qurilishni shogirdlari davom ettiradi.

<sup>180</sup> Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O'zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi..... – B. 219.

<sup>181</sup> Алихўжаев М. Қўкон маданияти тарихидан // "Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси". Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2004. – Б. 144.

<sup>182</sup> Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O'zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi. – Т.: Navro'z, 2011. – Б. 221.

Dahma qurilgan vaqtda xonaqoh, chillaxona, qorixona, hilxona va oshxona kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan. Ammo hozirgi vaqtda peshtoq bilan gumbaz (7,5X8,7 m) hamda bosh fasad burchaklariga ishlangan qirrador ikki minora saqlanib qolgan<sup>183</sup>.

Shuningdek, Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon, Toshkent, Turkiston, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilgan, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shahri va ko'oplab qishlolat barpo etilgan.

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan O'rta Osiyoda yuqori mavqega erishgan. Umarxon farmoyishiga ko'ra, diniy hayotda ham qator islohotlar o'tkazilgan. Tarixchi Mirzaolim Mushrifning "Ansab us-salotin va tavorix ul-xavoqin" asarida yozilishicha, Umarxon "Har ishni ulamolar fatvosi bilan" qilib, "Shariat hukmiga ko'kdin baland marotib va meroj berdi"<sup>184</sup>.

Umarxon hukmronligi davrida xonlik hududida vaqf ishlari tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Umarxon Qo'qonda ko'zi ojizlar uchun maxsus "Rahmati-Shohi" (Ammi-xona) nomli yotoqxona qurdirgan va unga ikkita karvonsaroyini vaqf sifatida bergan. Karvonsaroylardan biri yotoqxonaga yiliga 3000 rub., ikkinchisi 2000 rub. miqdorida daromad keltirgan. Shuningdek, Qo'qon markazidagi bozorda yotoqxonaga 16 ta do'kon vaqf etilgan bo'lib, ulardan yiliga 2000 rub., yotoqxonaga tegishli yerlardan esa 3000 rub. daromad tushgan. Yotoqxona yiliga vaqf mulklaridan umumiy hisobda 10000 rub.dan ortiqroq daromad olgan. "Rahmati-Shohi"da 80 taga yaqin ko'zi ojizlar istiqomat qilganlar, ular jismoniy holatiga qarab, 3 toifaga bo'lingan. Birinchi toifa vakillari 40 kishi atrofida bo'lib, ularning har biriga 200 rublgacha, 25 ishidan iborat ikkinchi toifa vakillarining har biriga 100 rublgacha, 15 kishilik uchinchi toifa vakillariga 50 rublgacha vaqf daromadi sarflangan<sup>185</sup>.

Xonlikdagi boshqaruv tizimi, jumladan, hukmron sulola vakillari xonlikdagi aholining quyi qatlamlari ehtiyojlarini qondirishda turli usullardan foydalanganlar.

<sup>183</sup> Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O'zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi..... B.221.

<sup>184</sup> Мирзаолим Муффриф. Қўқон хонлиги тарихи..... – Б.19.

<sup>185</sup> Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида вақф ишлари тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2009. – №1. – Б. 55 – 58.

Aholining moddiy jihatdan nochor qatlamiga davlat xisobidan alohida mablag' ajratilmagan. Bu muammoni boshqacha usulda hal qilishga harakat qilingan. Bu masalaga hukmdorlarning turli mozorlar, masjid, madrasalarga davlat yerlaridan vaqf qilib ajratib bergan mulklar yorlig'i bo'lgan vaqfnomalardagi bir qator ma'lumotlar oydinlik kiritadi. 1812-yilda Umarxon tomonidan Ko'shki Turkon azizlar mozoriga 120 tanob davlat yerlaridan keladigan daromad vaqf qilib ajratilgan. Vaqfnoma o'n banddan iborat bo'lib, uning beshinchi bandida aholining moddiy ta'minotga muhtoj tabaqasiga ko'rsatilishi kerak bo'lgan yordamlar sanab o'tiladi. Vaqfnomada: "Yana bir shart shulkim, har haftaning dushanba va juma kunlari shavla, tulon, go'ja, no'xat, loviyasho'rak kabi oshlarni navbati bilan; har ikki haftada bir marta palov oshi; yilda ikki marta halim va sumalak pishirsinlar. Hamda uni qorilar, qalandarlar, zokirlar, faqir, g'arib, beva, miskinlarga noni bilan tarqatsinlar. Har yili o'n botmon bug'doyni un qilib, non yopib mazkurlarga bersinlar, qancha masalliq ketsa, shu miqdorda sarflasinlar. Agar vaqf yerlaridan kelgan mahsulot yuqoridagi osh va nonlardan ortsa, maqbarada xalqqa tarqatib bersinlar. Agar zikr etilgan mahsulot kifoya qiladigan darajadan ortiq bo'lsa, qolganini mazkur mutavalli maqbara imoratiga sarf qiladi. Agar yana ortib qolsa, pulga aylantirib, shu yerdan o'tadigan har bir yo'lovchiga beradi", – deb qayd etiladi<sup>186</sup>. Vaqfnomaning ushbu bandidan hatto o'sha hududdan o'tayotgan musofir yo'lovchilarga ham pul tarzida moddiy mablag' ajratilganligi, davlatning aholini ijtimoiy himoyaga olish borasida muhim ishlarni amalga oshirganligini ko'rsatadi. Qolaversa, Umarxon o'zi tuzgan devonining debochasida aholining moddiy jihatdan og'ir ahvolda yashayotgan qismiga ko'rsatgan g'amxo'rligini: "...masokin va mustamandlar ahvolig'a shafqat ko'rguzdum", – deb qayd etib o'tganligini ko'rish mumkin<sup>187</sup>.

Shuningdek, Umarxon devonining debochasida davlat boshqaruvidagi faoliyati xususida quyidagilarni qayd etadi: "...chun davlat taxti va saltanat sariri nishimingohim bo'ldi, raiyatparvarliq va fuqaroparvarliq shevasi birla aftoda va

<sup>186</sup>Маъмуров М. Бир вақф қўлёзмаси // Адабиёт кўзгуси. – №9. 2006.

<sup>187</sup> Амирий. Девон. нашрга тайёрловчи проф. М.Қодирова. – Т.: 1972. – Б.19.

mustamandlar holini ko'rib, bekas va bechoralardin so'rub, mahzun va sitamdiydalar xotirlarin shod va davr zulmidin buzilg'on ko'ngillar vayronalarin lutfu marhamat birla obod qildim, masokin va mustamandlar ahvolig'a shafqat ko'rguzdim, davron xaloyiqi osoyish toptilar"<sup>188</sup>. Din peshvolariga homiylik qilganligi sababidan ham Umarxon 1818-yilda "Amir-ul-Muslimin" unvonini olgan.

**III bob bo'yicha xulosa:** xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi yirik ilm-fan markaziga aylangan va "Qo'qon adabiy muhiti" shakllangan. Madrasalarda o'qish-o'qitish ishlari yaxshilandi. Bu davrda Qo'qon shahri faqat xonlik poytahtigina emas, balki madaniy markaz ham xisoblanib o'ziga xos adabiy muhit yaratgan shahar edi. Olim-u, ulamolar, shoir va tarixchilar yig'ilishib turli anjumanlar o'tkazishib, tarixiy asarlarni muhokama qilishar va kelajak avlod uchun turli xil tarixiy asarlar yozishar edi. Bu ishlarning barchasiga ilm-fan va madaniyat peshvosi, xon va shoir Amir Umarxon boshchilik qilgan.

Umarxon hukmronligi davrida me'morchilikka ham katta e'tibor berilgan. Umarxon hukmronligi davrida poytaxt Qo'qon shahri O'rta Osiyoning yirik markazlaridan biriga aylangan. Xonlikning turli hududlarida shaharlar, qishloqlar, bozor va karvonsaroylar bilan bir qatorda go'zal va mahobatli saroylar, turli inshootlar barpo etilgan. Xonlik hududida vaqf ishlari tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

---

<sup>188</sup> Махмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709–1876 йй.)... – Б. 43.



## **Xulosa**

Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ahvolini o'rganish, to'plangan ma'lumotlar va materiallarni tahlil etish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Qo'qon xonligi (1709 – 1876) tarixan qisqa vaqt bo'lsa-da, O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol' o'ynagan. Xonlikning ko'zga ko'ringan hukmdorlari Shohruhbiy (1709 – 1721) davlat asoschisi, Norbo'tabiy (1763 – 1798) ilk pul isloxotchisi, Olimxon (1798 – 1810) esa rasman “xon” rutbasini olgan, Umarxon (1810 – 1822) “Amir – ul-muslimin” unvonini olgan va xonlik taraqqiyotining qaysidir ma'noda yuqori cho'qqisiga olib chiqqan.

2. Umarxon Qo'qon taxtini egallaganidan so'ng, o'zidan oldingi Qo'qon xonlari Norbo'tabiy va Olimxonlarning an'anasini davom ettirdi va faol tashqi siyosat olib bordi. Azaliy raqibi hisoblangan Buxoro amirligiga nisbatan faol tashqi siyosat olib bordi. Toshkent, Turkiston, O'ratepa, Xojand, Jizzax kabi ikki davlat o'rtasidagi talash hududlarda Qoqon xonligining ustunligi kuzatildi.

3. Umarxon hukmronligi davrida mamlakatda davlatchilik asoslarini mustahkamlashga harakat qilgan. Xususan, davlatchilikning muhim ko'rsatkichlaridan biri – tashqi aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim ishlarni amalga oshirdi. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi Xiva xonligi bilan do'stona munosabat o'rnatgan. Umarxon davlatning taraqqiy etishida tashqi savdo aloqalarining o'rni beqiyosligini to'g'ri anglab, Qo'qon xonligi va Rossiya o'rtasidagi dastlabki savdo diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ydi va 1812-yilda o'z elchilarini Peterburgga bu davlatga yubordi. Shuningdek, Umarxon Usmoniylar imperiyasi bilan iliq munosabatlar o'rnatishga xarakat qilgan. Shuningdek, Umarxon sharqiy qo'shnisi Xitoy bilan munosabatlarini yaxshilashga e'tibor qaratgan. Xususan, Umarxon davrida doimiy ravishda manjurlar hukumatining elchisi yashagan.

4. Umarxon xonlik hududini kengaytirish bilan birga, mamlakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, chegara hududlarga qal'a va qo'rg'onlar ham barpo etirgan.

Xonlikdagi qal`alarning asosiy qismi aynan Umarxon va Muhammadalixonlar hukmronlik davrida barpo etilgan. Tashqi xavfning kuchayib borishi ularning aynan shu davrda bunyod etilishiga sabab bo'lgan. Bu davrda Rossiyaning borgan sari O'rta Osiyo hududi tomon siljiy boshlashi va Qashqar tomonidan xavfning kuchayib borishi tufayli ulkan hududni himoya qilish uchun ko'plab qal`alar qurilgan.

5. Umarxon tomonidan davlatning siyosiy mavqeini oshirish, markazlashgan davlatning salohiyatini kuchaytirish maqsadida olib borgan faoliyatlari, ular o'tkazgan harbiy islohotlar, mamlakat hududini yanada kengaytirishga qaratilgan ichki va tashqi siyosat zamin yaratdi. Bu davrda davlatning markaziy boshqaruv tizimida mingboshi, xojakalon, qozi askar kabi yangi mansablar joriy etilgan.

6. Umarxon hukmronligi davrida xonlikda siyosiy va iqtisodiy yuksalish davri boshlangan. Natijada, mamlakat shaharlarining mavqei ko'tarilishi bilan bir qatorda, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram kabi yirik siyosiy va iqtisodiy markazlar qo'shib olindi. Shuningdek, xonlikning chegara hududlarida Oqmasjid, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal`alarga asos solingan.

7. Umarxon hukmronligi davrida Qo'qon xonligi o'zining rivojlangan davrlaridan birini boshidan kechirdi. Mamlakat hududlari kengaydi, aholining farovonligi oshib bordi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi. Yangi iqtisodiy markazlar paydo bo'ldi. Bozorlar, karvonsaroylar, yo'llar qurildi. Soliq tizimi nazorat ostiga olindi. Pul isloxoti o'tkazilib, raqobatbardosh oltin, kumush va mis tangalar zarb etildi. Xonlik Buxoro va Xiva xonliklari bilan bir qatorda, Rossiya, Hindiston, Afg'oniston, Xitoy, Eron, Turkiya, Qashqar va boshqa xorijiy davlatlar bilan keng ko'lamli savdo aloqalari olib bordi.

8. Amir Umarxon nafaqat xon balki o'zbek adabiyoti tarixida "Qo'qon adabiy muxiti" deb nomlangan, nixoyatda katta adabiy muxitini asoschi ham edi. Umarxon xonlik taxtiga ko'tarilgan so'ng siyosit bilan birgalikda maorif, fan, adabiyot va ayniqsa san`atni rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Umarxon "Amiriy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig'ilgan. Umarxon davrida Gulxaniy, Mahmur, Fazliy, Foziy kabi ko'plab

iste`dodli shoirlar ijod qilishgan. Bu davrda Dilshod, Mahzuna, Uvaysiy, Zinnat, Samdaboku, Xayriniso, Fazilatbonu va boshqa ko`plab shoiralar Umarxonning rafiqasi Nodira saroyida yig`ilib turli ijod bilan shug`ullangan.

9. Umarxon hukmronligi davrida me`morchilikka ham katta e`tibor berilgan. Umarxon hukmronligi davrida poytaxt Qo`qon shahri O`rta Osiyoning yirik markazlaridan biriga aylangan. Xonlikning turli hududlarida shaharlar, qishloqlar, bozor va karvonsaroylar bilan bir qatorda go`zal va mahobatli saroylar, turli inshootlar barpo etilgan. Xonlik hududida vaqf ishlari tizimi yaxshi yo`lga qo`yilgan. Umarxon davrida qurilgan Jome` masjidi ham madaniyat va san`atning yuksak namunasi hisoblanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

### **I. Magistrlik dissertatsiyasi uchun nazariy asos bo`lgan adabiyotlar ro`yxati:**

1.1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.

1.2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 31б.

1.3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

1.4. Каримов И. А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инкирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

1.5. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепсияси // [www. gov.uz](http://www.gov.uz).

1.6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 430 b.

17. Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Ozbekiston, 2015. – 304 b.

### **II. Manbalar**

2.1. Вельяминов-Зернов В. В. Торговое значение Коканского ханства для русских. ИРГО. – СПб., 1854. – 87 с.

2.2. Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммад Али до Худаярхана. – СПб., 1856. – С. 329 – 370.

2.3. Вельяминов-Зернов В. В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник Русского Географического Общества. – СПб., 1856. Т. 18. – С. 107–152.

2.4. Дилшод. Тарихи муҳожирон / Нашрга тайёрловчи М.Қодирова. – Т.: Фан, 1994. – Б. 77 – 91.

2.5. Записки о Бухарском ханстве. (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича) – М.: Наука, 1983. – 149 с.

2.6. Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний – Т.: Камалак, 1991. – Б. 266 – 327.

2.7. Маҳмуд Ҳаким Яйфоний. Хуллас ут-таворих. Қўқон шаҳар Ғ.Ғулом номидаги вилоят адабиёт музейи. – ҚП. 4101. – 528 в.

2.8. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – 183 с.

2.9. Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус – салотин ва таворих ул-хавоқин / Нашрга таёрловчи А. Матғозиев, М. Усмонова. – Т., 1995. – 128 б.

2.10. Муҳаммад Ҳакимхонтўра. Мунтахаб ат-таворих- – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 717 б.

2.11. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш. Воҳидов, Д. Сангирова – Т.: Маънавият, 1999. – 112 б.

2.12. Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон / Нашрга тайёрловчи Т.Алимардонов, Н.Абдул Ҳаким. – Қарши: Насаф, 1992. – 148 б.

2.13. Мирзо Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон / Маъсул муҳаррир З. Чориев, сўзбоши ва изоҳлар Ш.Воҳидовники, араб тилидан табдил Ш.Воҳидов ва Р.Холиқованики, кўрсаткичлар Ш.Воҳидов ва Д.Сангированики. – Т., Янги аср авлоди, 2008. – 242 б.

2.14. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб.: Им. Акад. Наук. 1821. – 98 с.

2. 15. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – СПб., 1821. – С. 52-53.

2.16. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. – М.: Наука, 1968.

2.17. Путешествие Мир Иззат Уллы в Кокандское ханство в 1812 году. Пер. и примеч. Ю.А.Соколова // Труды САГУ. История Средней Азии и Узбекистана. Новая серия. Вып. LVXXVIII. Кн. II. 1956. – С. 41–52.

2.18. Путешествие в Среднюю Азию Николая Муравьева (1819-1820)// История Узбекистана в источниках. – Т.: Фан, 1988. – С. 186-190.

### III. Adabiyotlar

3.1. Абдуллаев Т. XIX – XX асрларда ўзбек кандакорлиги. – Т.: Фан, 1974. –128 б.

3.2. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1964. – 383 б.

3.3. Агзамова Г. А. Марғилон хунармандчилигига оид айрим маълумотлар // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция материаллари. –Тошкент-Марғилон, 2007. – Б. 114– 117.

3.4. Амирий. Девон. нашрга тайёрловчи проф. М.Қодирова. – Т., 1972.

3.5. Алимов И. XIX асрда Қўқон хонлиги Андижон беклигининг мактаб ва мадрасалари // “Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси”. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2004. – Б. 137-138.

3.6. Алихўжаев М. Қўқон маданияти тарихидан // “Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси”. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2004. – Б 143 – 146.

3.7. Аҳмедов Б. Марказий Осиё тарихий манбаларининг ўрта асрларда Ўрта Осиё билан Хитой ўртасидаги савдо, сиёсий ва маданий алоқаларни ўрганишдаги ўрни // Тарихдан сабоқлар. – Тошкент, 1994. – Б 274-275.

3.8. Бабаджанов Б. М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Тошкент: Янги нашр, 2010. – 742 б.

3.9. Бабабеков Х. Н. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально – экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв.). – Т.: Фан, 1990. –118 с.

3.10. Бейсембиев Т. К. «Тарихи – Шахрухи» как исторический источник. Алма-ата; Наука, 1987. – 198 с.

3.11. Бекмухаммедов Х.Ю. Тарих терминларининг изоҳли луғати – Т., 1986. –184 б.

- 3.12. Бобобеков Ҳ. Н. Қўқон тарихи. – Т.: Фан, 1996. – 238 б.
- 3.13. Болтабоев Х. Амир Умархоннинг мактуби // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1997 йил 27 октябр.
- 3.14. Валиханов Ч. Ч. О состоянии Алтышара или шести восточных городов китайской провинции в 1858 – 1859 годах / Собрание сочинений. В 5-томах. – Алма-Ата, Т. III. 1985 – С. 97 – 222.
- 3.15. Воҳидов Ш., Сангирова Д. Шоҳ ва шоир Мадалихон. // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1998. – №5. – Б. 24-26.
- 3.16. Воҳидов Ш. Қўқон тарихчилари: Фазлий ва Мушриф. – Т., 1996.
- 3.17. Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Т.: Фан, 1965. – 182 б.
- 3.18. Зиёев Ҳ. З. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Т., 1962.– 340 б.
- 3.19. Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва унга қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998. – 480 б.
- 3.20. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI-сер. XIX в). – М., 1958. – 277 с.
- 3.21. История народов Узбекистана. Том II. – Т., 1947. – 512 с.
- 3.22. История Узбекистана (XVI – Первая половина XIX века) Том III. – Т., 1993. – 476 с.
- 3.23. Исҳоқхон Ибрат. Фарғона тарихи / Нашрга тайёрловчилар Ҳ. Бобобеков, М. Ҳасаний – Т.: Камалак, 1991. – Б. 266 – 327.
- 3.24. Ишанханов С.Х. Каталог монет Коканда XVIII–XIX вв. – Т., 1976.– 40 с.
- 3.25. Йўлдошев М. Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўзбекистон, 1959. – 402 б.
- 3.26. Қаяумов А. П. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Фан. Акад., 1961. – 358 б.
- 3.27. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан, 1990. – 56 б.

3.28. Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари (1709–1876). – Наманган, 1994. – 135 б.

3.29. Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари (1709–1876). – Наманган, 1994. – 135 б.

3.30. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо солиқлари тарихидан// Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2008. –№1. – Б. 49 – 51.

3.31. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлиги божхоналари // Жамият ва бошқарув. 2008. –Тошкент, – №3. – Б. 98 – 100.

3.32. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида карвон йўллари // Таълим ва Тафаккур.– Наманган, 2008. –№5. – Б. 24-25.

3.33. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигининг савдо алоқаларида Тошкент шаҳрининг тутган ўрни // Имом ал-Бухорий сабоқлари.– Тошкент, 2008. – №3. – Б. 205 – 209.

3.34. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлиги ва Ҳиндистон билан савдо алоқалари тарихидан// Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 130 – 134.

3.35. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида вақф ишлари тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2009. – №1. – Б. 55 – 58.

3.36. Мадраҳимов З.Ш. Қўқон хонлиги тангалари // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2010. – №2. – Б. 131 – 133.

3.37. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигининг Усманийлар давлати билан савдо алоқалари тарихидан // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2012. – №2. – Б. 132 – 133.

3.38. Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигининг Афғонистон билан савдо алоқалари тарихидан// Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2012. – №4. – Б. 295 – 297.

2.39. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Т.: Yangi nashr, 2014. – 174 б.

3.40. Маъмуров М. Бир вақф қўлёмаси // Адабиёт кўзгуси. – №9. 2006.



3.41. Миддендорф А. Ф. Очерки Ферганской долины / Перевод с немецкого В.И.Ковалевского. – СПб., 1882. – 604 с.

3.42. Мусаев Д., Хошимов Ҳ. Андижоннинг XIX аср охири – XX аср бошлари даври ҳунармандчилиги тарихини ўрганилишига доир // Марғилон шаҳрининг Жаҳон цивилизацияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбелейига бағишланган халқаро илмий конференцияси материаллари. – Тошкент – Марғилон, 2007. – Б. 122–124.

3.43. Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худаярхана). – Т.: Фан, 1973. – 476 с.

3.44. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886. – 215с.

3.45. Нодира. Девон. – Т.: Фан, 1963. – 620 б.

3.46. Плоских В.М. Киргизы и Кокандское ханство. – Фрунзе, 1977.– 465 с.

3.47. Ражабов Қ. Насруллоҳхон. – Т.: Абу матбуот-консалт, 2011. – 48 б.

3.48. Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968. – 582 с.

3.49. Турсунов Б. Социально-экономическая жизнь Кокандского ханства и казахское насилие // Вестник Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби. -№2 (19). 2002. – С.81-82.

3.50. Тухтиев И. Тангалар тилга кирганда. – Т.: Фан, 1989. – 40 б.

3.51. Сагдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов Ў., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т., 2000. – 270 б.

3.52. Содиқов М. Бухоро амирлигида элчилик муносабатлари // Мозийдан садо. – Тошкент, 2002. – №4. – Б. 26-27.

3.53. Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиххўжа ва унинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 262 б.

3.54. Сухарева О. А., Турсунов Н. О. Из истории городских и сельских поселений Средней Азии (второй половины XIX – начала XX в. ) // Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1982. – С. 10 – 47.

3.55. Умирзоқов Ш.У. Артиллерия тарихи. – Самарқанд, 2001. – 73 б.

3.56. Хабибуллаев Н. Н. Коканд – центр производства писчей бумаги / Поздне-феодалный город Средней Азии. – Т.: Фан, 1990. – С. 163 – 168.

3.57. Хабибуллаев Н. Н. Ўрта Осиёда қоғоз ишлаб чиқариш тарихи. – Т.: Фан, 1992. – 96 б.

3.58. Халфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. – М.: Наука, 1965.– 406 с.

3.59. Халфин Н. А. Присоединение Средней Азии к России. – М.: Наука, 1965. – 466 с.

3.60. Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX – XX аср бошлари). – Т., 2006.

3.61. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O'. Vatan tarixi. – Toshkent: Sharq, 2010. – №2. – 365 b.

3.62. Энвер Хуршут. Амир Умархоннинг канизи // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. – №9. – Б. 174-175.

3.63. Yunusov M., Saidov M., Yuldashev R. O'zbekiston arxeologiya yodgorligi tarixi. – Т.: Navro'z, 2011. – 343 b.

#### **IV. Dissertasiya va aftoreferatlar:**

4.1. Адинаров А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством: Дисс.. канд. ист. наук. –Т., 1946. – 199 л.

4.2. Алихожиев М. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тутган ўрни: тарих фан. номз... дисс. афтореф. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2012. – 27 в.

4.3. Жалилов С. Фарғона водийсининг шарқий районларининг суғорилиш тарихидан: Тарих фан. ном... дисс.– Т., 1965.

4.4. Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Университети, 2009. – 159 в.

4.5. Маҳмудов Ш. Қўқон хонлигининг маъмурий – бошқарув тизими (1709-1876 йй.): Тарих фан. номз.. дисс. – Т.: ЎзРФА, 2006. – 154 в.


4.6. Турсунов Б. Я. Қўқон хонлигида ҳарбий иш ва қўшин: ҳолати, бошқаруви, анъаналари (XIX асрнинг 70 – йилларигача): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎзРФА Тарих институти, 2006. – 154 в.

4.7. Қўлдошев Ш. Т. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар (XVIII - XIX асрнинг биринчи ярми): – Тошкент, ЎзРФА Тарих институти, 2009. – 152 в.

**Umarxon hukmronligi davrida zarb etilgan Qo'qon xonligi tangaalari**

Рис. 2. Монеты Мухаммеда-Умара

**Umarxon hukmronligi davrida - 1813-1814-yillarda Farg'ona vodiysiga kelgan rus elchisi Filipp Nazarov yurgan yo'lining xaritasi**



Путь Филиппа Назарова из Сибири в Кокандское ханство (географические названия даны в современном написании)

**Umarxon hukmronligi davrida - 1812-1813-yillarda Farg'ona vodiysi shaharlari orqali sayohat qilgan hindistonlik Mir Izzatullaning yurgan yo'li xaritasi**

